

1

Bu kun, 197... yilning 22 avgusti, tramvay haydovchi qiz Munira Shayxuddinova xotirasidan umr bo'yi o'chmaydi...

Hali tong otmagan, kulrang osmon asta-sekin oqara boshlaganiga qaramay, xiyobonlar, ko'chalar, binolarning pastki qavatlarini tun qo'ynida edi. Suv sepilgan asfalt yo'llar qora duxoba to'shab qo'yilgandek... Qo'ng'iz nusxa fonarlarga sarg'ayib yo'lni bir quloq, bir quloqdan oqartirib turibdi.

Munira parkdan tramvayni chinqiratib haydab chiqdi-da, Chorsu aylanmasidagi birinchi bekatda to'xtatdi. Bekatda deyarli odam yo'q edi. Vagonga atigi bitta yo'lovchi ko'tarildi. Bu temiryo'lchilar kiyimidagi shopmo'ylov, o'rta yashar bir kishi edi. Qo'lida katta qora sumka. Munira har smenasida uni ko'rardi.

- Assalomu alaykum! Ha, amaki, ishgami? - so'radi, eski tanishlardek.

- Tirikchlik, qizim, - dedi yo'lovchi. - Sal kechikdingmi? Soating necha bo'ldi?

Munira qo'lidagi kichkina kumush soatiga qaradi.

- Yo'q, vaqtida chiqdim. Beshdan o'nta o'tdi.

- Ha, yaxshi. Bugun teplovozni topshiramiz. O'zi ham rosa qiynadi.

U yana nimalar dedi, Munira eshitmadi. Avtomat kassa oldiga borib, yangi g'altak biletni qo'yar ekan, ko'zi bekat yonidagi na'matak butalari orasidan chiqib turgan ayol kishining oyog'iga tushdi. Qo'ng'iz nusxa fonarkj yoritib turgan paypoqsiz oppoq oyoqdagi uzun poshnali oq tuflining uchi osmonga qaragan, tovoni yerga tiralib turardi. Munira avval qo'rqib ketdi. Keyin, mast bo'lsa kerak, deb o'ylab, bir oz tinchidi va temiryo'lchi amakini chaqirdi.

- Anavini qarang, amaki, mastmi, nima balo?!

- Qani? - temiryo'lchi amaki o'rnidan turib, uning yoniga keldi.

- Ana, butalarning orasida. O'lib ketsin, tuppa-tuzuk xotinga o'xshaydi tuflisidan.

- Mastmasdirov?! - Temiryo'lchi amaki qo'llarini soyabon qilib yaxshiroq tikildi.

- Mast bo'lmasa, shu yerda yotarmidi?!

- Qani, shoshma, ko'raylikchi?

Ular pastga tushishdi. Shoxlab ketgan na'matakning osti kichkina chaylani eslatardi. Temiryo'lchi amaki epchillik bilan shoxlarni ko'tarib engashdi. Ayol nafas olmas edi.

- Chirog'ing bormi? - qichqirdi u.

Munira yugurib vagonga chiqdi-da, qo'l fonarini olib tushdi.

- Mana.

- O'zing yoq!

- O'ldirib ketishganga o'xshaydi! - dedi temiryo'lchi amaki.

- Voy o'lmasam! - Munira qichqirib yubordi.

- Yuz-ko'zi qonku! Qara!

Munira shundagina ayolning basharasiga qaradi, qaradi-yu, bo'shshib ketdi. Ayolning to'zg'igan, yuzi bilan bitta bo'lib yotgan sochlari ho'l edi. Kichkina og'zining ikki chetida qon qotib qolgandi.

- Endi nima qilamiz! - dedi Munira uning yoniga cho'kkalab.

Idorangga yugur. Tez yordamga telefon qilish kerak.

- Men... men... - Munira dag'-dag' titrardi. Chunki birinchi marta shunday yaqindan o'lik ko'rishi edi.

- Chop, deyapman senga! - qichqirdi temiryo'lchi amaki. Uning do'qi ta'sir qildimi, yo qo'rquvdan dovdirab qoldimi, Munira orqasiga tisarila-tisarila tramvayga yetdi, keyin shpallar ustidan park tomon yugurib ketdi.

Temiryo'lchi o'likning olataroq yuziga, tizzasigacha ko'tarilgan no'xat gulli yupqa ko'ylagiga, barmoqlarida uzuqlar yaltirab turgan qo'llariga tikilar ekan, hech narsa tushunmasdi.

- Yosh ekan, bechora... - derdi faqat. - Ha, yosh ekan...

2

Er-xotinning urishi, doka ro'molning qurishi... Ota-bobolarimiz to'qigan bu maqolning qanchalik to'g'ri-noto'g'riligini har bir oila o'zicha tasdiqlaydi. Uylanganiga to'rt yildan ozgina oshgan Rahim Saidov bu maqolni mutlaqo noto'g'ri hisoblardi. Uning nazarida oiladagi urish-janjal bamisoli daraxtning ichidagi qurt. Daraxt qanchalik mustahkam bo'lmasin, shu qurt, shu kichkinagina qurt albatta bir kun uni yo qulatadi, yo quritadi. Oila ham xuddi shu daraxtga o'xshaydi. Urish-janjal bir kunmas-bir kun uning asosi bo'lgan muhabbatni kemirib tashlab, er-xotinning yuragini nafratga lang ochib beradi. Rahim Saidov shunday o'ylar va yil o'tgan sari o'yining to'g'riligiga ishonchi kuchayib borardi. Axir hamma daraxtga ham qurt tushavermaydi-ku? U iloji boricha uyda urish bo'lmaslik-ka, agar bo'lib qolsa, birovlariga eshittirmaslikka harakat qilardi. Lekin kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi deganlaridek, ko'pincha xotini bilan bo'lib o'tgan g'idi-bidi gaplar o'sha kuni, juda bo'lmaganda ertasiga, kamalak tus olib, yetti mahalla nariga, qolaversa, ishxonasiga ham yetib borardi. Albatta, ko'pchilik unga achinardi.

Oradan bir-ikki kun, yo bir-ikki soat o'tib, ish bilan ovungach, iloji boricha tezroq janjalning sabablarini unutib, aybi bo'lmasa ham, odatdagidek, xotinidan kechirim so'rashga, yarashishga oshiqardi.

Albatta, yarashish o'z-o'zidan bo'lmasdi, quruq qoshiq og'iz yirtadi - biron narsa, biron va'da evaziga yana uyda noma'lum muddatga tinch-totuvlik barpo bo'lardi. Rahim Saidov dissertatsiya yoqlagan kuni o'rtoqlari sovg'a qilgan, romba shaklidagi yarqiroq temir parchasiga ismi, familiyasi yozilgan qora portfelda shampanKj vinosi olib kelar, shunda qo'ni-qo'shnilar, hatto sho'x kulgi, qadahlarning jarangini eshitib qolishardi. Shunday paytlarda rahmdil ayollar ko'ngillari yumshab:

- Munixonga Xudo bitta farzand berganda, ikkovi ham tinchirdi-qo'yardi, - deb allavaqtgacha bolaning oilani mustahkamlashdagi roli haqida gap sotishardi. Munisxon atayin bola istamasligidan ular bexabar edi. Buni faqat Rahim Saidov bilar, bilgani bilan hech narsa qila olmasdi.

Oralarida Xitoy devoridek to'siq ko'tarilganda, Rahim Saidov o'zini qayoqqa qo'yishni bilmay qolardi. Ammo dilida bunday yashash mumkin emasligini, bir kunmas-bir kun orani ochiq qilish zarurati tug'ilajagini yaxshi bilardi. Bilardi-yu, o'zlikmi, yo muhabbatning o'ti hamon balandmi, shunday kunning kelishini orqaga cho'zardi. Bo'lmasa, eh-ha, necha marta bunga imkon bo'ldi.

Rahim Saidov shularni o'ylab ba'zan o'zini lanjlikda ayblardi. Ba'zan esa xotining kulib turgan basharasini ko'z oldiga keltirardi-yu, yana muhabbatning qudrati haqida xayol surib ketardi.

Munisxonga u o'zi, birovlarning aralashuviz, muhabbat qo'yib uylangan edi. Birinchi marta uni Qo'qon - Ohangaron yo'lida shunday dovonning ustida, beso'naqay ganch sherning yonida ko'rdi. Ko'rdi-yu, bitta qiz bo'lsa shunchalik bo'ladi-da, deb sevinch bilan ko'nglidan o'tkazdi.

O'shanda institutlarining Oltiariqdagi tajriba uchastkasidan kelayotgan edi. Institut direktori ertalab uning poezdga chiqishiga ham qo'ymay, mashina topib yo'lga chiqishni buyurdi. Ular olib borayotgan tajribadan katta manfaat kutgan kolxoz raisi darhol o'zining "Volga" sini berdi. Rahim Saidov apil-tapil tushlikka qovurilgan ovqatdan yeb, yo'lga tushdi.

Mashina Qo'qondan chiqqach, shofer raisning gapiga amal qilib, gazni bosdi. Mashina qushdek uchar, orqa o'rindiqda o'tirgan Rahim Saidov yosh boladek ko'zlarini pipiratib, entikib nafas olari.

- Sulaymon akani hayron qoldiramiz to'g'ri idoraga borib, - dedi g'urur bilan shofer. - Ja sekin yuradilar u kishi, xit qilib yuboradilar.

Sulaymon aka institut direktori edi. Katta odam, qishloq xo'jalik sohasidagi bir qancha ilmiy kitoblarning avtori, oblastlarda tez-tez bo'lib turar, institut xodimlaridan ham shuni talab qilardi. "Bizning ishimizni kolxozlarda bilishmasa, quvvatlashmasa, bizning mutlaqo keragimiz yo'q", - derdi u ko'p yig'ilishlarda. Shu gapiga amal qilib, deyarli har bir oblastda tajriba uchastkalari tashkil etgan, xodimlarni ham shunga qarab turli guruhlariga bo'lib yuborgan edi. Rahim Saidov ishlayotgan sektor, asosan, Toshkent, Farg'ona viloyatlarida tajriba o'tkazardi. Keyingi yillarda shu oblastlarda paxtachilik oqsab, turli kasalliklar ko'paygan edi. Paxtaga tushgan kasalliklarning eng dahshatli bu- vilt edi. Uning kushandasi nima, qanday dori bilan paxtani undan xalos qilish mumkin? Bu savol bir necha yildan beri paxtakorlarni ham, olimlarni ham qiynab kelardi. Ammo buning chorasi topilmagan, har yili davlat mo'ljalidagidan yigirma besh, o'ttiz protsent hosil kam olardi. Rahim Saidovning Oltiariqqa kelganining ham boisi shu edi. Yangi nav paxta ekilgan, u gullab, endi ko'sak tuga boshlagan edi. Lekin nima uchun shu muhim paytda u Toshkentga borishi kerak? Qancha o'ylamasin, Rahim Saidov sababini bilolmadi. Direktorning o'zi esa telefonda "keling", dedi-yu, boshqa hech narsa aytmadi.

Mashina dovonga ko'tarila boshladi. Issiq shamol o'rnini muzdek tog' havosi egalladi. Oqtepadan o'tishganlarida yomg'ir tomchilay boshladi. Lekin darhol tindi.

- Yaxshi bo'ldi, - dedi shofer, - tushishga qiynalardik...

Rahim Saidov ko'p marta shu yo'ldan yurgan bo'lsa ham har gal suq bilan atrofiga qarardi, bu baland-past, xavfli olataroq tog' yo'li uni o'ziga maftun qilib qo'ygan edi. Bir tomon tog', tuya o'rkachidek katta-kichik, ba'zilar ustida qor erimagan qoyalar, bir tomon esa qaraganda yurakni muzlatadigan jarlik, sharqiragan tiniq suv, ko'm-ko'k may-sa ko'rpalar... Ba'zi qoyalar ustida olislarga ko'z qadagan soqchidek chinor yoki archa. Har aylanishda manzara xuddi kinodagidek o'zgaradi. Tog'lar goh chap, goh o'ng tomoningda paydo bo'lib qoladi. Goh tubi yo'q jarlikka sho'ng'iyotgandek his qilasan, goh odam oyog'i yetmagan qoyaga chiqib ketayotgandek bo'lasan. Ba'zan dovon oshishingga ko'zing yetmay, yuraging orqangga tortib ketadi. Yo'l shunday tikka! Lekin mashina to'xtamaydi, inqillab, titrab-qaqshab oldinga intiladi va bir amallab dovonning ustiga chiqasan, hamma narsa, shaharlar, daryolar, tog'lar oyog'ing ostida qolgandek, dunyoning ustiga chiqqandek bo'lasan, yengil nafas olasan, zum o'tmay nafasing tomog'ingga tiqiladi - mashina pastga sho'ng'iydi...

Ana shu yo'lda Rahim Saidov o'z baxtini uchratdi. Hozircha shundai deymiz, negaki uning o'zi shu uchrashuvni uzoq vaqtgacha baxtim deb yurdi.

Shofyor so'nggi dovonning ustidagi choyxona oldida mashinasini to'xtatdi. Uni tanishsa kerak (Farg'onada bir-birini tanimaydigan odam kam), bir bola kosada yaxna choy olib chiqdi. Shofyor miriqib ichdi. Rahim Saidovga ham uzatdi. Keyin yana yo'lga tushishdi. Dovon usti ikki kilometrcha tekis yo'l. Yo'lning oxiridagi burilishda katta xarsang ustiga sherni eslatadigan ganch haykal o'rnatilgan, uning yonidagi taxtachaga "2342" raqami yozib qo'yilibdi. Bu dovonning dengiz sathidan balandligi.

Rahim Saidov Munisxonni shu yerda ko'rdi. Ko'rdi-yu, es-hushini yo'qotdi.

Munisxon bir oyog'ini sher ostidagi xarsangga qo'yib, qo'llarini beliga tiraganicha jarlikka tikilib turardi. Undan narirokda, shunday jar yoqasida kapoti ochilgan qizil "Moskvich" quyuq zangori tutun chiqarib, titrardi.

Munisxon "Volga" ni ko'rishi bilan qo'lini belidan olib, boshi uzra silkildi.

- Suvi qaynab ketibdi shekilli? - dedi shofer va hamrohining roziligini kutib o'tirmay, shunday qizning oldida mashinasini to'xtatdi.

- Nima bo'ldi? - so'radi u eshigi derazasidan boshini chiqarib.

- Yurmayapti, - dedi qiz shoferning oldiga kelib va ichkariga qaradi. - Meni olib ketinglar?!

Bu iltijo bir paytda ham shoferga, ham Rahim Saidovga qaratilgan edi.

Rahim Saidov uning tilidan qo'qonlik ekanini darrov bildi. Qo'qonlik qizlarning tili unga studentlik paytidan beri yoqimli, shirin tuyulardi. Shofyor bir narsa deyishga ulgurmasdan u qizni mashinaga taklif qildi:

- Marhamat!

Shu payt ular oldiga oppoq neylon ko'ylagi qoramoy, yuz-ko'zi terga botgan yoshgina yigit keldi.

- Salom alaykum, - dedi u uyalinqirab.

- Nima bo'ldi? - so'radi shofyor.

- Tortmayapti, qarab yuboring, bir soatdan beri unnayman.

Shofer mashinadan tushib, yigit bilan ketdi.

- Siz o'tiring, - dedi Rahim Saidov nima qilishini bilmay turgan qizga va orqa eshikni ochdi.

- Men hozir!

Munisxon "Moskvich" tomon yugurib ketdi. Rahim Saidov beixtiyor orqasidan qarab qoldi. Ha, u kelishgan qiz edi. Oyoqlari uzun, to'la ham emas, oriq ham emas, o'rtacha. Yevropacha tikilgan yirik katakli ko'ylagi badanini tortib turibdi. Qalin qora sochi orqasiga tugilgan. Ko'p o'tmay shofer qaytdi.

- Prokladkasi teshilibdi.

- Sizda yo'qmi? - so'radi Rahim Saidov.

- E, aka, u anqoning urug'i, - dedi shofer. Innaykeyin "Volga" niki tushmaydi. Po'nkandan olib keladi endi. Adres berdim.

Rahim Saidov shoferning gaplarini chala eshitdi... Uning ko'zleri "Moskvich" ning eshigini ochib, engashganicha nimalarnidir olayotgan Munisxonda edi. Nihoyat, u qaddini rostladi, xomush turgan yigitga nimalarnidir dedi, keyin yugurib iziga qaytdi.

- Maylimi?

- Marhamat!

Rahim Saidov chetroqqa surilib, yonidan joy berdi.

- Judayam zarur ishim bor edi, bormasam bo'lmaydi, - dedi qiz mashinaga o'tirar ekan, kechirim so'raganday.
- Kuyov bola yolg'iz qolar ekanlarda? - qizning hara-katlari negadir shoferga yoqmadi shekilli, ensasi qotib, rulga o'tirdi.
- Voy, nega unday deysiz? - qiz qo'llari bilan yuzini berkitib kuldi. - Jiyanimku bu yigit. Meni tashlab kelmoqchi edi Toshkentga.
- Bilmabman, uzr, - dedi shofer, baribir uning qovog'i ochilmadi. - Ketdikmi?
- Ha, - dedi Rahim Saidov. Mashina siltanib joyidan qo'zg'aldi.
- Toshkentda o'qiysizmi? - Rahim Saidov qiz tomon o'girildi.
- Ha. Inyazda. To'rtinchini tugalladim.
- O, juda yaxshi, - dedi Rahim Saidov, lekin nega "yaxshi" dedi, bilmadi. - Yaqinda bitirar ekansizda?
Qiz kuldi. Uning kulgisi xuddi duxobadek yumshoq edi.

- Hali bir yil bor.
- Xo'sh, rejalar qanday?
Qiz qoshlarini chimirib, unga qaradi.
- Qanday reja?
- Bitirib, nima qilmoqchisiz?
- Qaydam?. - Qiz yelkalarini qisdi. - Nima deyishsa, shu.
Rahim Saidov yana bir narsa deyish kerakligini bilardi, lekin gap topolmadi, shuning uchunmi, orzusi amalga oshmagan odamdek xo'rsindi.

- Men ham bir vaqtlar inyazga kirmoqchi edim... Ingliz tili fakulKjtetiga...
- Hozir kimsiz? - qiz jonlanib so'radi.
- Ximik, bioximik...
- Bu ham yaxshi kasb. Men asli tarixchi bo'lmoqchi edim. Tarixni juda yaxshi ko'raman. Samarqand... Salb yurishlar...
Monomax... Kirish imtihonida yiqildim.

- Yaxshi bo'lgan ekan...
- Nega? - yana qoshlarini chimirdi Munisxon.
- Chet tilini bilgan odamlarni yaxshi ko'raman. Ularda qandaydir sirli bir narsa bor. Masalan, sen bilmagan narsani bilishadi.
- Maqtab yubordingizku? - Munisxon kuldi. - Men esa ximiklarni sirli odamlar deb bilaman. Ular yo'kdan bor qilishadi. Masalan, misdan oltin.

Rahim Saidov xursand bo'lib ketdi va Munisxonga qo'shilib kuldi. Shu kulgi uning xayolini olislarga olib ketdi, o'zini o'zga go'zal bir olamda, oila olamida ko'rди. Shunday odam bilan birga bo'lish qanday yaxshi! Buning ustiga aqlli bo'lsa kerak. Shundayligi ko'zlaridan ham bilinib turibdi. O'z fikrini tasdiqlash uchun qizga qaradi. Munisxon suyanchiqqa boshini tashlab, derazaga tikilib borardi.

- Charchadingizmi? - so'radi Rahim Saidov.
- Ha, oftobda uzoq qoldik, - dedi qiz hozirjavoblik bilan. - Oftobda salga boshim og'riydi.
- Dam oling. Toshkentga hali ancha.
- Bir yarim soat, - dedi shofer.
- Rahmat, - dedi qiz va oppoq yuzini chetga o'girib, ko'zlarini yumdi.

Rahim Saidov unga xalaqit bermaslik uchun yanada chetroqqa surildi. Uning nazarida Munisxon hozirgina osmondan uchib tushgan farishtaning o'zi edi.

Olmaliq - Toshkent yo'lga chiqishganda, mashina yana qushdek ucha boshladi. Yoniga go'zal qizning uxlab borishi, tekis yo'l, bepoyon adir, nozik atir hidiga qo'shilgan o'tkir o't-o'lan hidi Rahim Saidovni elitdi, u ko'zlarini yumdi. Anchagacha shirin xayollar og'ushida mudrab bordi. Bir siltanib, boshi ko'kragiga tushganda, cho'chib ko'zlarini ochdiyu, lol bo'lib qoldi. Munisxonning kichkina boshi yelkasida edi, sochlarini shamol to'zg'itgan, bir-ikki tolasi bo'ynini qitiqlardi. Rahim Saidov nima qilishini bilmay, qotib qoldi. Qimirlasa, qiz uyg'onib ketadi. Keyin qachon uning yelkasiga boshini qo'yadi? Qo'yarmikan, umuman? Shu o'y bilan Rahim Saidov qimir etmaslikka qaror qildi va shu alfozda, yuragi shodlikdan hapriqib, ne-ne shirin rejalar bilan Toshkentga kirib keldi. U albatta, Munisxon bilan yaqinroq tanishishga, agar o'rni kelib qolsa, kinogami, teatrgami taklif qilishni o'ylab qo'ydi.

Kurantga yetilganda, shofer mashinasini to'xtatdi.

- Opa! Shu yerda tushasizmi? Munisxon cho'chib, boshini ko'tardi.
- Voy, keldikmi? - dedi u ko'zlarini pիրpiratib.
- Skverdamiz, - tushuntirdi shofer.
- Uxlab qolibman, - qiz uyalinqirab jilmaydi.
- Ha, dam oldingiz ozgina, - dedi Rahim Saidov. - Qayoqqa borasiz?
- Oqtepaga, yotoqqa.

- Aylanish ekan, - uni bo'ldi shofer. - Akademgoro-dokka...

Rahim Saidov ichida shoferdan jahli chiqdi-yu, lekin hech narsa deyolmadi.

- Kechirasiz, - qo'lini uzatdi u qizga. - Shoshib turibmiz.
- Voy, shunga ham rahmat.
- Yotoq Oqtepaning qaerida?
- Shunday o'zida. Aptekaning oldida.

Munisxon shunday deb mashinadan chiqdi. Shofer gaz berdi.

- Zap qiz ekanmi? Tavba!
- Ha? - tushunmadi Rahim Saidov.
- Ukasini yarim yo'lda yolg'iz tashlab ketsa... Begona erkakning ko'kragida uxlasa... Endi aytyapmanda...

Rahim Saidov bir narsa deb Munisxonni himoya qilmoqchi edi, kayfiyatini buzgisi kelmadi. Kayfiyati esa nihoyatda yaxshi edi. Umuman, o'sha kun uning xotirasida umrbod ajoyib, baxtli kun bo'lib qolgan edi. Institut hovlisiga kirishganda Sulaymon aka endi uyiga ketmoqchi bo'lib turgan ekan. Ularni ko'rib, qo'llarini yozdi:

- Rahimjon! Uka! Tabriklayman! Kandidatlik diplomingiz keldi!

Rahim Saidov hang-mang bo'lib qoldi. Odamlar yillab kutadi diplomni, uniki esa himoyadan so'ng uch oy o'tgach keldi. Juda tez!

- Darrov-a? - hayron bo'lib so'radi oxiri.

- Nimasi darrov? - O'z navbatida unga g'alati qaradi direktor. - Yaxshi ishga uch oy ham kam emas. Ishingiz esa yaxshi, juda yaxshi! Men shunga sizni chaqirtirgan edim. Yana ba'zi ishlar bor. Ertaga gaplashamiz. Kelishdikmi?

- Kelishdik! - dedi Rahim Saidov direktorning yumshoq yirik qo'lini siqarkan.

- Juda yaxshi! Sulaymon aka ketdi.

So'nggi bir-ikki soat ichida yuz bergan bu ikki quvonchli hodisa Rahim Saidovning boshini aylantirib qo'ygan, kim bilandir ularni o'rtoqlashgisi kelib qolgan edi.

- Sadriddin! - chaqirdi u. - Planlar qanday?

- Nima edi? - tushunmay so'radi shofer.

- Hozir nima qilmoqchisiz?

- Jo'namoqchiman. Fayzimat akam ertaga rayonga bo-rishlari kerak.

- Kolxozda boshqa mashina qurib qolganmi?! Bugun men bilan bo'lasiz. Mashinani shu yerda qoldiring.

Shofer yigit bir oz o'ylanib turdi-da:

- Ha, mayli, - dedi. - Yigit kishining ra'yini qaytarib bo'lmaydi. Ammo lekin bugun omadingiz kelgan kun ekan.

- Nimasini aytasiz, Sadriddin do'stim! - Rahim Saidov uning yelkasiga qokdi. - Ko'chamizda bayram, deb shuni aytadilar!

O'sha kuni ular Olimlar shaharchasining yakkayu yagona restoranida yarim kechagacha o'tirishdi. Ikki kishiga mo'ljallangan stol yoniga restoran yopiladigan paytga borib besh-oltita stol qo'shib ketgan, orkestr tinmay kuy chalar, go'yo dissertatsiya yoqlagan kuni qilingan va hammaga manzur bo'lgan banket qaytadan boshlanib ketgandek edi. Faqat navbat bilan so'zlovchilar yo'q, hamma baravar so'zlar, kular edi.

Hayot tasodiflardan iborat, lekin har qanday tasodif ham ma'lum kunda zanjiriga bog'langan. Demak, hech narsa o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi.

Rahim Saidov shunday o'ylar va o'sha kungi quvonchlarini qay darajadadir dovon ustida uchragan qiz - Munisxonga tegishli, deb hisoblardi. Kim biladi, agar uni uchratmaganda, diplom kelmasmidi, direktor ham boshqa narsaga chaqirgan bo'larmidi? Shunday emasligini u yaxshi bilardi, lekin ko'ngil, ko'ngil shunday o'ylaganing ma'qul, derdi. Shuning uchun ham keyinchalik qachon kayfiyati buzilsa, (kayfiyati esa, ko'pincha, uyda buzilardi) shu kunni eslar, ko'z oldida baland tog' tepasida xarsangga bir oyog'ini qo'yib, unga xomush va o'ychan tikilib turgan qizning siymosi paydo bo'lardi. Shu bilan yengil tortar, tashvishli xayollardan o'zini xalos qilganday bo'lardi.

O'sha kunning ertasiga u Munisxonni topdi. Teatrga borishdi. "Sevgi tumori" baletini tomosha qilishdi. Keyin boqqa o'tishdi. Shu boqqa ertasi kuni ham kelishdi. Undan keyin ham. Albatta, bog'ning yolg'iz oyoq yo'llarida odamning ko'ngli nimalarni tusamaydi? Avval qo'l ushlab yurishdi, keyin ora-sira Munisxonning xipcha beliga qo'l o'tadigan bo'lib qolganday, so'ngra bo'lsa... Undan keyin nima bo'ldi. Hozir gapirib o'tirmayman. Faqat bitta narsani aytib o'tish shart. Hikoyamiz boshlangan kundan bir kun oldin er-xotin odatdagidek qattiq urishib qolishdi. Hamma narsa tushdan boshlandi. Ha-ha, oddiy tush, hammamizning vaqt-bevaqt dilimizni ravshan, yo xira qiladigan tush. Rahim Saidov boshi og'rib turdi. Munisxon hali uyquda edi. Sochlari yuzi bilan bitta. Lablari cho'chchaygan. Oyog'iga ilinib qolgan choyshab tortilib beligacha tushgan. Rahim Saidov hayajonlanmadi. U hozirgina ko'rgan tushi ta'sirida edi. Begona bir erkak xotining qo'lga uzuk taqyapti. Katta yoqut ko'zli tilla uzuk. Rahim Saidov jahl bilan:

- Nima qilyapsiz? - dedi.

Begona erkak javob bermay, tirjaydi.

- Sizga aytyapman!

Rahim Saidov xotining qo'lidan ushlab uzukni su-g'urmoqchi bo'ldi. Uzuk chiqmadi. Shunda xotini bir siltanib qo'lini tortib oldi-da, begona kishini imladi. Ikkalovi qayoqqadir ketdi. Rahim Saidov qichqirdi, ammo ovozi chiqmadi.

Ko'zlarini ishqalab, shu tushning ta'birini o'ylab o'tirar ekan, beixtiyor xotining qo'lga ko'zi tushdi. Qay ko'z bilan ko'rsinki, uning semiz, oppoq barmog'ida hozirgina tushida ko'rgan uzuk yaltirardi. U shoshib, ushlab ko'rdi. Rostmana uzuk, katta, yoqut ko'zli. Olmoqchi bo'ldi, uzuk chiqmadi. Munisxon ko'zlarini ochdi:

- Nima qilyapsiz?

- Hech nima, - dedi terslik bilan Rahim Saidov. Erining kayfi buzilganligini payqab, Munisxon choyshabni bo'ynigacha tortdi, qo'llarini uning ostiga yashirdi va erinibgina esnadi.

- Erta turibsiz?

Rahim Saidov javob bermadi. Birpas xomush o'tirgach, tomdan tarasha tushgandek:

- Uzuk muborak bo'lsin!

- Yarashibdimi? - shoshib so'radi Munisxon.

- Juda ham, - zaharxandalik bilan javob qildi Rahim Saidov.

Munisxon buni sezmadik yo o'zini sezmagalikka soldi. U sapchib o'rnidan turdi-da, issiq qo'llarini erining bo'yniga tashladi.

- Shundan bitta olib bering, rostakamidan!.. Uzukning qip-qizil yirik ko'zi Rahim Saidovning shunday burnining uchida o'ynay boshladi.

- Bu-chi? Bu yolg'ondakammi? - dedi u kallasini orqaga tashlab.

- Voy, ko'rmayapsizmi? - erkalandi Munisxon. - Magazinniki. Jez. Besh so'm o'n tiyin turadi.

Rahim Saidovning ustidan tog' ag'darilgandek bo'ldi. Shunday bo'lsa ham tasmollab so'radi.

- Rostakamga o'xshaydi-ku?

- Voy, rostakamni qaysi pulga olaman? Mashinachidagi ko'yilgimni olib kelolmayapmanku, pul yo'qligidan! O'n kun bo'ldi bitganiga. Nomuslarga o'lyapman.

Rahim Saidov tilini tishladi. Tush qolib ketdi. Munisxon doim g'olib keladigan otiga hech qiyinchiliksiz minib olgan edi. Shunday bo'lsa ham Rahim Saidov bo'sh kel-maslikka urinib ko'rdi:

- Tunov kuni olib keldingiz-ku?

вЂ” U boshqa edi. Uni ayamlar Mayga olib kelgan edilar. Yoz o'tib boryapti, men bo'lsam endi tikdirdim. Olib berasizmi?

- Nimani?

- Voy, qulog'ingizga tanbur chertyapmanmi? Uzuknida! Qarang, shunaqasi menga juda yarashar ekan.

- Shuni taqib tura qoling! Maoshga hali ancha bor. Munisxonning issiq qo'llari sovib, shilq etib choyshab ustiga tushdi.

- Sizdan boshqa javob kutmovdim. Satqai kandidat ketding!

- Munisxon?! Bu nima deganingiz? Men, axir... Munisxon quloq solmadi, shippagini shipillatib yotoqxonadan chiqib ketdi. Rahim Saidov bo'shshaganicha joyidan turolmay qolgan edi. Ko'p o'tmay Munisxon kirdi.

- Baribir olaman. Qarzga botsam ham olaman. Shu paytgacha siz nima olib beruvdingiz, buni olib berasiz?! O'rtoqlarimning hammasi tillaga ko'milib yotishibdi. Bitta men sho'rlik kechalari bilan tiyinni hisoblab chiqaman.

- Yolg'on! - qichqirib yubordi Rahim Saidov o'zini tutolmay.

- Ha! Alam qildimi?! Ovozingiz chiqib qoldi? Menga baqirmang!

- Baqirganim yo'q. - Rahim Saidov xatosini tuzatishga urindi. - Tushuning axir, pulga zarurligingiz yolg'on, deyaqman, xolos.

- Baqirdingiz. Kimga? Menga-ya, eshik tiq etsa, keldilarmi deb, ko'chaga yuguradigan odamga-ya?! Mendan bo'lak kim yarim kechagacha yolg'iz o'tiradi sizni poylab? Kim sassiq noskilaringizni yuvadi? Changga, loyga botib kelasiz dala-dashtdan, churq etib og'iz ochmayman. Bitta uzuk desamu, baloga qolsam-a? "Shuni taqib tura qoling" mish! Mana taqish!

Munisxon uzukni barmog'idan sug'urib uloqtirdi, uzuk dumalab-dumalab taxta karavotning tagida to'xtadi.

- Bo'ldi, - dedi Munisxon. - Bu oxirgi tomchi. Ketaman. Ayamlar, hali ham kech emas, deydilar, ketaman.

Uyni yig'i ovozi tutib ketdi. Rahim Saidov xotinini ovutmoqchi bo'lib u yog'idan o'tdi, bu yog'idan o'tdi. Munisxon yo'latmadi.

O'sha kuni institutdan uyga besh-olti marta qo'ng'iroq qildi. Munisxon trubkani ko'tarmadi. Laboratoriyada o'sha kunlari viltga qarshi yangi preparatning ximiyaviy analizlari olib borilayotgan edi. Rahim Saidov topgan va uning bevosita rahbarligida o'tkazilayotgan tajribalari agar natija bersa, fanda katta kashfiyot qilingan bo'lar edi. Paxta hosili ancha ko'tarilar edi. Ana shu muhim ish ustida ham bizning qahramonimiz tinch emas edi, ba'zan "nega ham shu la'nati tushni ko'rdim?" - deb o'zini koyib qo'yardi.

- Yanami? - so'radi tushlik mahali undan hafsala-sizlik bilan kavshanib o'tirganiga achinib, laboratoriya boshlig'i, kursdoshi Hafiz Abdullaev.

- Ajralmasam bo'lmaydi, - dedi Rahim Saidov. - Bugungisi oxirgi tomchi. Ajralaman.

- O'zing bilasan, - dedi Hafiz. - Lekin men senga aytсам, do'stim, xotin-xalajning dilini bilish ham katta kashfiyot. Ha, bu senga vilt emas.

Rahim Saidov rozi bo'lib boshini xam qildi. O'sha kuni u ishdan chiqib, O'rdadagi tilla magaziniga kirdi. Munisxonning qo'lidagi uzukdan yo'q edi.

- Uzuk kerakmidi? - so'radi yoshgina, kelishgan so-tuvchi yigit.

- Ha, yoqut ko'zli uzuk.

- Unaqasi anchadan beri yo'q. - Rahim Saidovning o'ylanib qolganini ko'rib, sotuvchi: - To'xtang-chi! - dedi-da, ichkariga kirib ketdi.

Bir mahal u qora duxoba qutichaga solingan uchta kichki-na-kichkina brilliant ko'zli uzuk olib chiqdi.

- Hozirgi eng yaxshi uzuklardan.

Uzuk chindan ham yaxshi edi. Ko'zlari yonma-yon joylashtirilgan, tillasi qalin edi.

- Qancha?

- Ikki yuz oltmish yetti so'm.

Rahim Saidovning ichida bir narsa uzilgandek bo'lib ketdi, lekin sir boy bermadi. Uzukni sekin qaytarar ekan:

- Chiroyli ekan, - dedi.

- Olasizmi? O'zi bitta, - sotuvchi yigit peshtaxtaga ishora qildi. - Agar bu yoqqa qo'ysam, qolmasdi.

Rahim Saidov o'ylanib qoldi. Buncha pul yonidagina emas, uyida ham yo'q edi. Albatta, yarim oylik maoshiga avansini qo'shib olsa - ba'zan shunday qilib turardi - yetadi, lekin maoshga hali bor. Nima qilish kerak?

- Qachon bekitasizlar? - so'radi u sotuvchidan.

- Yarim soat qoldi. Agar hozir pulingiz bo'lmasa, - sotuvchi og'zi to'la tilla tishlarini ko'rsatib iljaydi, - ertalabgacha olib qo'yaman, xursand qilarsiz.

- Albatta, - dedi shoshib Rahim Saidov va ko'chaga chiqdi.

Uning esiga o'rtog'i Hafiz kelib qolgan edi. Unda doim pul bo'ladi. Xotini ham kandidat.

Shunday magazinning yonida telefon-avtomat bor edi. Rahim Saidov Hafizning uyiga qo'ng'iroq qila boshladi.

- Manavi ishing joyida, - dedi Hafiz uning ko'nglini ko'tarib. - Albatta beraman.

- O'n minutda yetib boraman. Ko'chaga chiqib tur. Xotiningdan uyalaman! - qichqirdi sevinib Rahim Saidov va trubkani ildi.

Yarim soatdan so'ng u to'rt qavatli bino oldida taksidan tushdi. Bir qo'lida portfelKj, bir qo'lida Munisxon yaxshi ko'radigan "Paxta" torti. Uning chehrasi shod, tog'ni talqon qiladigan odamdek, ko'kragi ham ko'tarilgan edi.

To'rtinchi qavatga liftning tushishini kutmay ko'tari-lib, yuragini to'ldirib turgan g'urur bilan qo'ng'iroq tug-masini bosdi. O'zining kaliti bo'lsa ham, u Munisxonning o'zi eshikni ochishini va uning sevinch barq urib turgan yuzini ko'rishini istardi. Lekin eshik orqasida hech kimning tovushi eshitilmadi. "Uxlab yotibdimikin?" - O'yladi Rahim Saidov va portfelini yerga qo'yib, cho'ntagidan kalitni oldi.

- Munis!... Munisxon?!

Hech qaysi xonada xotini yo'q edi. Rahim Saidov bo'sha-shib, oshxonadagi stulga o'tirdi. "Qayoqqa ketishi mumkin?" U qancha o'ylamasin, xotining qaerdaligini o'ylab topolmadi. Albatta, Qo'qonga ketmagan. Yosh bola emas. Arzi-magan janjalga ketib qolsa. O'rtoqlarinikidamikan? U soatiga qaradi. To'qqizdan o'nta o'tibdi. Zamiralarnikidamikan? Keyingi paytlarda shu o'rtog'ini ko'p gapirardi. U ham chet tillar institutini bitirgan. Institutda dars beradi. Zamira, Zamira... Zamira Karimova. Rahim Saidov shoshib telefon kitobini qo'lga oldi. Haytovur, telefoni bor ekan. Trubkani oldi. Shu zahoti aynidi. Balki u yerdamasdir? Yo'q,

deyishsa xunuk ahvolga tushib qoladi. Bir marta shunday bo'lgan. Qaysi bir o'rtog'inikiga telefon qilib, juda uyatga qolgan.

Munisxon o'shanda ko'chada yolg'iz yurgan ekan. Yana janjal ko'tariladi.

U trubkani qo'yib, yotoqxonaga kirdi. O'rin yig'ishtirilmagan. Ertalab ketayotganida qanday bo'lsa, shundayligicha yoyilib yotibdi. Toshoyna oldidagi ko'k duxoba g'ilof tortilgan kursida Munisxonning ichki ko'ylagi osilib yotibdi. Upa-elik qutilari betartib.

Demak, pardoz qilibdi. Uning esiga ertalab xotini uloqtirgan jez uzuk tushdi. Engashib karavotning ostiga qaradi. Hech qaerda u yo'q. Taqibdi. Qayoqqa ketdi ekan? Balki ko'chalarda sanqib yurgandir?

Rahim Saidov shu qarorga kelib, kutishni lozim topdida, oshxonaga o'tdi. Shoshilmasdan choy qanatdi. Hech narsa yegisi kelmadi.

Achchiq ko'k choy ichib, bugungi gazetalarni varaqlay boshladi. Shu alfozda bilinmay vaqt o'ta boshladi. Nima qilish kerak?

"Inturist"ning "Toshkent" mehmonxonasidagi bo'limida ishlaydigan Farida xotining sirdoshroq dugonasi edi. Bir-ikki marta eri bilan urishib kelib, hasrat qilib o'tirganini ko'rgan. Shunga telefon qilmoqchi bo'ldi. Nima deydi? Avval, hol-ahvol so'raydi, keyin xotini uning oldiga kirmoqchi bo'lganini aytadi. Shu fikr bilan u trubkani oldi.

- Farida? Salom, bu men, Rahimjonman. Yaxshimisiz? Rahmat, rahmat. Men hozir ishdan keldim. Ha, dalada edim. Munisxon sizning oldingizga kirmoqchi edi? Yo'q?! Kechirasiz.

U trubkani qo'ydi. Qayokda bo'lishi mumkin. U tasavvur qilolmasdi. Soat o'n bir ham bo'ldi. Endi u jiddiy xavotir ola boshladi. Yana birpas kutib o'tirdida, ko'chaga chiqdi. U xiyobon tomon ohista yura boshladi. Ko'chada odam siyrak, fonarlarning yorug'idan uning ikki betidagi odam-larni ham tanish mumkin edi. Munisxon ko'rinmadi. Xiyo-bonni ikki marta aylanib chiqdi. Yana uyga kirdi. Uy ichi ko'chgan hovlidek huvillab turardi. Uyatni yig'ishtirib qo'yib, Zamiralarnikiga telefon qildi. Uyqusiragan ovoz "yo'q", dedi. Shunda u xotining so'nggi gapini esladi: "Ayamlar hali ham kech emas, dedilar". Nahotki ketib qolgan bo'lsa? Unda biror iz qoldirib ketardi. Rahim Saidov shifonerni ochdi. Chamadonlar joyida. Uniki ham. Munisxon yaxshi ko'radigan sariq charm chamadon ham. Jahl ustida hech narsa olmay ketgan bo'lsachi? U shunday o'ylab, trubkani yana qo'lga oldi. Soat to'rt dan yigirma minut o'tgan edi shunda. Telefonchi qiz bir soat kutishni so'radi.

- Yo'q, yo'q, singlim, - yalindi Rahim Saidov. - O'tinaman, hozir bering. Juda ham zarur!

- Hammaning ham gapi zarur, - xotirjamlik bilan javob qildi telefonchi qiz. - Bo'lmasa kim kechasi telefon qiladi?

- Siz meni eshiting, singlim! - yig'lagudek bo'ldi Rahim Saidov. - gap odam ustida ketyapti! Odam yo'qoldi. Eshityapsizmi, odam!

- Kutung, - trubka band bo'lib qoldi.

Rahim Saidov xo'rsinib, stulga omonatgina o'tirdi. Shu tob anchadan beri chekmaganligi esiga tushdi. U uyda chekmasdi, ba'zi-ba'zida o'rtoqlariga qo'shilib tutatib qolardi. Lekin Munisxon yaxshi sigaretlarning uyida turishini istardi. Onda-sonda chekardi ham. "Filips", "BT", "Styuardessa" va yana allaqanday uzun sigaretlarni qayoqdandir topib kelardi.

Rahim Saidov mehmonxonaga o'tib, stol ustidagi sigaret qutisini oldi. Allaqanday bir sigaretni olib tutatdi. Yo'tal tutdi, dastro'molini cho'ntagidan olib, og'ziga tutguncha ham vaqt o'tgani yo'q, telefon jiringlab qoldi. Yugurib borib trubkani ko'tardi.

- Allo! Toshkent! - Boyagi telefonchi qizning ovozi keldi. - Qo'qonni so'rovingizmi?

- Ha-ha, Qo'qon kerak! - shoshib javob qildi Rahim Saidov.

- Hozir ulayman. Nomerini ayting.

- 33-47.

- Ulayman!

- Allo! Aya! - Rahim Saidov trubkadan erkak ovozi eshitdi. - Dada! Sizmisiz? Assalomu alaykum! Bezovta qilganim uchun kechiring, Munisxon bordimi?

- Qayoqqa? - hech narsa tushunmay so'radi erkak ovozi.

- Sizlarnikiga-da!

- Yo'q. Kelgani yo'q. Nima, yana urishib qoldilaringmi? Rahim Saidov rostini aytishga majbur bo'ldi.

- Ha, jindek aytishib qoldik. Uyda yo'q. Ayamnikiga ketaman deyayotuvdi ertalab. Shunday, ishdan kelsam yo'q.

Rahim Saidov sevinib ketdi va xotini tomon qadam tashladi. Shu payt Munisxon yo'qoldi. Rahim Saidov alanglab atrofiga qaragan edi, anhor ichida boshini ko'rdi.

- Qayoqqa?... - qichqirdi u.

- Yuring, - chaqirdi Munisxon.

Rahim Saidov yechinmasdan, shunday tuflisi bilan suvga oyoq qo'ydi va shu zahoti shalop etib ag'darildi...

U sapchib o'rnidan turganda, ko'cha eshik qo'ng'irog'i ti-nimsiz jiringlardi, yugurib borib ochdi.

- Munis?

Lekin bu Munisxon emas, erkak kishi edi.

- Kechirasiz Saidova Munisning uylari shumi?

- Ha, nima edi? Tinchlikmi?

Erkak kishi ichkariga kirdi va soat cho'ntagidan hujja-tini olib ko'rsatdi.

- Militsiyadanman. Leytenant Sultonov.

- Tinchlikmi? Munisga nima bo'ldi? Kechadan beri yo'q.

- U kishi sizga kim bo'ladilar?

Leytenant Sultonov boshdan-oyoq unga razm solib chiqdi.

- Xotinim, xotinim bo'ladi. Aytsangiz-chi, unga nima bo'ldi? - jahl bilan so'radi Rahim Saidov.

- O'zingizni qo'lga oling, xunuk xabar keltirdim.

- Nima?! - Rahim Saidovning yuragi orqasiga tortib ketdi.

- Xotiningiz... Xotiningiz qazo qilibdi. Bundan ikki soat burun Chorsuda o'ligini topdik.

- O'ligini topdik?!

- TIP°.

- Nega o'lik? Kim o'ldiradi? - bo'shashib ketdi Rahim Saidov.

- Bu hali noma'lum.

Rahim Saidov gandarab ketdi. Leytenant uni qo'ltiqlab ichkariga olib kirdi-da, mehmonxonadagi kresloga o'tqazdi.

- O'zingizni bosing, endi foydasiz, - dedi u.

- Munis! Munis!!

Rahim Saidovning lablari titrab, ko'zlaridan yosh quyulib ketdi. U har qanday xunuk xabarni kutishga tayyor edi, lekin o'limni emas. Endi u nima qiladi? Munis, Munis! Nima qilib qo'yding?

- Men o'ldirdim uni!... - Bo'g'ilib dedi Rahim Saidov. - Hammasiga men aybdorman, men!

- O'zingizni qo'lga oling, - uni yupatdi yana leytenant. - Endi tashvishingiz ko'p. Yolg'iz o'zingizmisiz?

- Ha, - boshini liqillatdi Rahim Saidov. - Nima edi?

- Xabar berish kerak. Qarindosh-urug' deganday...

- Ha, ota-onasiga aytish kerak.

- Ular qayerda turadi? Chekasizmi? - leytenant unga sigaret qutisini uzatdi.

Rahim Saidov titroq qo'llari bilan bitta sigaretni olib og'ziga olib borgan edi, tushib ketdi.

- Boshqasini oling, - taklif qildi leytenant va unga bilintirmay yerdagi sigaretni ko'tarib, cho'ntagiga soldi.

- Ular qayerda turishadi? - yana so'radi leytenant.

- Ha... Qo'qonda. 33-47.

- Ishxonadan telefon qilaman. Xo'p, men ketdim. Leytenant eshikka borganda to'xtadi.

- Xotiningiz... ikki soatdan so'ng ToshMI morgida bo'ladi. Dadil bo'ling.

U ketdi. Rahim Saidov hech narsaga parvosiz, bo'shashga-nicha o'tirardi. U xuddi tush ko'rayotganday edi. Mana, hozir Munisxon yotoqxonadan chiqib keladi. Egnida oq ko'ylak. U shu ko'ylakni yaxshi ko'rardi. Chiqadi-yu, kelib peshanasidan o'padi...

Birdan uning qulog'i ostida leytenantning so'nggi gapi jaranglab ketdi. U morgda!

- Munis! Munisxon!..

Rahim Saidov o'zini tutolmay, yig'lab yubordi.

3

Militsiya kapitani Sobir Aliev o'z kabinetida xomush o'tirardi. U ertadan mehnat o'tpuskasiga chiqishi kerak edi. Ariza berib qo'rganiga bir haftadan oshdi. Ikki yildan beri xotiniga birga dam olib kelamiz, derdi, lekin hech imkoni bo'lmasdi. Bu yil nihoyat orzusi amalga oshadigan bo'lib, Truskovetsga ikkita putyovka olib qo'ygandi, tasodifan qo'lga yangi ish tushib qoldi. Agar kuni kecha o'tpuskaga chiqqanda, bu ishni boshqa odam olardi. Endi kech. U ichida yordamchisi leytenant Sultonovdan xafa edi. Uyga u telefon qildi. Xotini ham soddalik qilib uni chaqirib berdi. Mana endi o'tpuska bekor. U o'zi uchun juda ham xafa emas edi.

Xotinidan uyalardi. To'ydan beri mana ikki yarim yil ham o'tdi, hech qayoqqa olib borolgan yo'q. Va'dalari esa quyuk edi.

Farg'onani aylantirib kelmoqchi bo'ldi. Bir yog'i Shohimardon, bir yog'i Arslonbob. Bo'lmadi. Samarqandga borib, Urgutda dam olib kelamiz, dedi. Bo'lmadi. Yaltani ham va'da qildi. Endi jo'naymiz deb turishganda jinnixonadagi ish ochilib qoldi. Juda g'alati, bosh og'ritadigan ish edi. Uch oy - yozning deyarli hammasi shu ishni tekshirishga ketdi. Yalta olis yulduzdek olisda miltillab qolaverdi. O'shanda bir tasodif sabab bo'ldi-yu, kasalxonaning bosh hamshirasi so'roq paytda ikkita ro'molcha ishlatdi. Bittasi juda g'alati, kapitan izlab yurgan to'r ro'molcha edi. Keyinchalik shu ro'molcha kasalxona territoriyasidagi yashirin sexga, undan esa respublikaning turli rayonlariga jo'natilgan million-million metr kashtalarga olib bordi. Lekin shungacha ozmuncha ter to'kildimi?!

Kapitan Aliev hozir shuni o'ylar ekan, yangi ish ham uzoq cho'zilishini, bu oddiygina qotillik emasligini, qotilni topish va fojining sabablarini aniqlash ancha vaqt olishini sezardi. Shuning uchun uyga qanday telefon qilishini bilmay o'tirardi. Xotini samolyotga bilek olishni va Truskovetsga olib ketish uchun bozordan uzoq turadigan meva-cheva xarid qilishni topshirgan edi.

SekretarKj qiz choy olib kirdi.

- Sultonov kelmadimi? - so'radi kapitan qizning qo'lidan paxta gulli piyolani olar ekan.

- Yo'q, - qiz oq qog'oz ustiga choynakni qo'ydi.

- Kelsa albatta chaqiring.

- Xo'p bo'ladi.

- Ekspertizadan hech nima kelmadimi?

- Hali yo'q. Yarim soatdan so'ng G'ulomovning o'zlari keladilar.

- Yaxshi.

SekretarKj qiz yana biror savol bo'lib qolar, deb poylab turdi. Kapitan choy bilan ovora, unga e'tibor bermadi. Qiz eshik tomon yuzlanib, so'radi:

- O'tpuskangiz nima bo'ldi?

- Nima edi?

- Men ham chiqmoqchi edim.

- Nazarimda hali-veri o'tpuskaga chiqolmasam kerak.

- Ketavermaymi?

- Marhamat.

SekretarKj qiz chiqib ketdi. "Buning ham rejalari buzildi", o'yladi ichida kapitan achinib. Lekin nima qilish mumkin? Ish bo'lgandan keyin shu-da. U trubkani ko'tardi.

- Eshitaman, - sekretarKj qizning ovozi eshitildi.

- Meni uy bilan ulang. Sanobar? Ha, menman. Yo'q, hali hech qayoqqa borolgan yo'q. Borolmasam kerak. Eshiting, eshiting axir! Muhim ish chiqib qoldi. O'tpuskani bekor qilishdi. Eshityapsizmi? Ha, shunday bo'lib qoldi. Bir oy. Bo'ldi, bo'ldi, o'zingizni bosing. Bir oy nihoyati. Putyovkalarni o'zim almashtiraman. Ha, ha, atigi bir oy. Dam olishga kuz ham juda yaxshi bo'ladi.

Truskovets bo'lmasa bo'lmas. Qringa boramiz. Bilasizmi, oktyabrni u yerda barxatniy sezon deyishar ekan. O'sha yoqqa boramiz. Xo'p, hozircha. Kechqurun albatta uyga boraman.

Kapitan trubkani qo'ydi, og'ir xo'rsinib, peshanasidagi terni artdi-da, oldidagi papkani ochdi.

"Saidova Munis... 197... yil, 22 avgust..." Nima bo'lishi mumkin? Kim o'ldirdi? Nega?

U papka yonida turgan oppoq qog'ozga qandaydir uchta belgi qo'ydi va avtoruchkasi bilan chakkasini qashib o'yg'a soldi. U hozir bu tungi fojia haqida hech narsa bilmasdi. Oldida faqat fojia tafsiloti yozilgan ikki varaq qog'oz, marhumning sumkasidan chiqqan shaxsiy shahodatnomasi va zudlik bilan katta qilingan shu shahodatnomadagi surat...

Boshqa hech narsa hali unga kelib tekkan yo'q. Hammasi tungi operativ grupp bo'limida. Lekin hammasimikin? Ular orasida tugunni yechadigan biron narsa bormikan? Saidova Munis... yosh ekan, chiroyli ekan... Buning endi hech qanday ahamiyati yo'q... Kapitan shahodatnomani olib o'qiy boshladi. Toshkent davlat chet tillar pedagogika instituti. Fransuz tili kabineti boshlig'i, 197... 26 yanvarKj... Hammasi aniq va ravshan. Shahodatnomadan boshqa hech narsa bilib bo'lmaydi. Nega o'ldirishdi? Kim o'ldirdi? Kapitan oq qog'ozga yana bitta belgi qo'ydi.

SekretarKj kirdi.

- Guvoh Shayxuddinova keldi.

- Chaqiring.

Xonaga rangi oqargan tramvay haydovchi qiz uyalinqirab kirdi-da, javdirab kapitanga qaradi.

- Keling, o'rtoq Shayxuddinova, o'tiring.

Kapitan ro'parasidagi stulni ko'rsatdi.

- Xo'sh, o'rtoq Shayxuddinova, fojia qanday yuz berdi?

Munira sapchib o'rnidan turdi.

- Men hech narsa bilmayman. Men ko'rdim, xolos!

- Xo'p, xo'p. Tinchlaning. Ko'rganingizni gapirib bering. O'tirsangiz yaxshi bo'lardi.

Munira hozirjavoblik bilan o'tirdi.

- Rahmat. Bu shunday bo'ldi: men birinchi smenada edim kecha. Sakkizinchi marshrutda ishlayman. Chorsu - To'qimachilar kombinati. Ertalab, hali qorong'i edi...

- Soat necha edi!

- Soatmi? Soat beshlar edi. Ha, to'g'ri, besh edi. Chunki ostanovkaga kelganimda, beshdan o'n minut o'tgan edi.

- Qaysi ostanovkaga?

- Chorsuga-da. Parkimiz Chorsuda. Undan chiqib, maydonni aylansak birinchi ostanovka.

- Xo'sh, keyin-chi?

- Shunday qilib, ertalab hali qorong'i edi, parkdan chiqdim. Vagondagi bitta lampochka yonmagan ekan, shunday darvoza oldida, orqamga qarab ko'rib qoldim. To'xtab, Klavaning vagonidan bitta lampochka olib keldim. Sklad ertalab ishlamaydi. Keyin maydonga o'tdim.

- Hech kim yo'qmidi maydonda?

- Hech zog'! Mendan boshqa, albatta.

- Tushunaman, davom eting.

- Maydonni aylanib, ostanovkaga keldim. Bu yer ham jimjit. Hech kim yo'q edi.

- Kechirasiz, har doim ertalab jimjit bo'ladimi o'sha yer?

- Har doim. Faqat ikkitami-uchta odam tramvayga chiqadi. Ikkinchi reysga juda ko'p. Ishga borishadida. Birinchi reysga chiqadiganlarni bilaman. Bir kishi. Temiryo'lchi. Kecha ham u bor edi. Keyin bir yigit, vrachman, deydi. Yangiyo'lda ishlar ekan. Keyin yana bir kampir. Vera xola. Uborshitsa. Kombinatga boradi. Yana...

- Juda yaxshi. Demak, ostanovkaga keldingiz?

- Ha, ostanovkaga keldim. Jimjit. Hech kim yo'q edi. Bir minut ham turganim yo'q edi, amaki chiqdi.

- Kim?

- Amaki. Temiryo'lchi-da.

- Xo'sh?

- So'rashdik. U o'rtaga borib o'tirdi. Men yangi biletni shunday kassaga solayotganimda... gapira olmayman...

- Nega? - hayron bo'ldi kapitan.

- Qo'rqib ketyapman...

- Nimadan qo'rqasiz? Choy ichib yuboring. Kapitan unga choy quyib uzatdi.

- Rahmat. - Munira qalqib-qalqib ichdi. - Bechoraga odam juda achinadi. Yosh ekanmi?

- Ha, ancha yosh ekan. Xo'sh, bilet solayotuvdingiz.

- Ha, kassaga yangi bilet solayotgan edim, ko'zimga oq tufli ko'rindi. Chiroyli oq tufli. Uchi osmonga qaragan. Ko'rinib turibdi, kimdir dumalab yotibdi.

- Dumalab yotibdi?

- Ha, bu yerda mastlar ko'p bo'ladi. Katta na'matak bor ostanovkada. Xuddi sadaga o'xshaydi. O'shaning tagida. Ko'rdi-mu, jahlim chiqib ketdi. Mast deb o'yladim-da! Keyin amakini chaqirdim. Amaki uni ko'rib, mastmas, dedilar. Keyin pastga tushdik. Avval amaki, keyin men. Ha, men vagonga qaytib fonarimni olib tushdim. Shunday yuziga tutdimu, qotib qoldim. Bilasizmi, yuz-ko'zi shundoq qon edi. Afti qanaqaligini ham bilib bo'lmaydi. Bechoraga judayam achinib ketdim. Keyin amaki, yugur, telefon qil, dedilar. Yugurib parkka keldim. Brigadirimiz biram urishib berdi!

- Nega?

- Tramvay turib qolmasin, dedi-da. Shunday bo'lsa ham direktorning kabinetiga kirib telefon qildim. Gapiraveraymi?

- Rahmat, bo'ldi, - dedi kapitan. Fojianing davo-mini leytenant Sulonov aytib bergan edi. - Uni ilgari ko'rganmidingiz?

- Ilgarimi? - O'ylanib qoldi Munira, keyin yelkalarini qisdi. - Qaydam... Aftini ko'rolmadim, qonga botgan, yorilgan edi.

- Manavi ayolnichi?

Kapitan Saidovaning shahodatnomasidan katta qilingan suratni ko'rsatdi.

- Qani? - Munira kapitan qo'lidan suratni yulib oldi-da, unga qattiq tikila boshladi. - Ko'rgandayman. Ha, bir-ikki marta ko'rganman. Chorsuda tushgan edi, bir-ikki marta. Lekin qaerda tramvayga chiqqan, bilmayman.

- Shu surat o'sha ayolniki.

- Voy! - Munira qo'lidagi suratni tashlab yubordi. - Bechora-ey!.. Judayam chiroyli ekan-a!

- Ha, u chiroyli ayol edi. Xo'p, o'rtoq Shayxuddinova, hozircha xayr. - Kapitan stol ostidagi qo'ng'iroq tugmasini bosdi.

SekretarKj qiz kirdi.

- Eshitaman?

- Bu kishiga qog'oz-ruchka bering. O'rtoq Shayxuddinova, hozir menga gapirib berganlaringizning hammasini yozib, shu qizga bering. Keyin sizga ruxsat.

Munira kabinetdan chiqayotganda, leytenant Sulonovga duch keldi va cho'chib, unga yo'l berdi.

- Salom.

- Salom, - dedi leytenant va unga qaramay, yonidan o'tib ketdi.

- Xo'sh? - so'radi kapitan Munira chiqib ketgach, undan.

- Uyini topdim. SвЂЃ da turar ekan. Erini ko'rdim. Kiyimlari g'ijim, nazarimda, kechadan beri yechinmagan. Har ehtimolga qarshi barmoqlarining izini oldim.

- Chekar ekanmi?

- Chektirdim. Sigaretni ekspertizaga berib kelyapman.

- Yaxshi.

- Sobir aka?

- Labbay?

- Qo'qonga telefon qilish kerak. Ota-onasi Qo'qonda turar ekan. 33-47. O'likni qachon beramiz?

Kapitan javob berishga ulgurmay, sekretarKj qiz kirdi.

- Kapitan G'ulomov keldilar.

- Chaqiring.

Xonaga harbiy meditsina formasidagi to'ladan kelgan ofitser kirdi.

- Tugatdik, - dedi u Sul-tonovning ro'parasiga o'tirar ekan. - Marhuma kecha kechqurun, soat yigirma to'rtlarda o'lgan. Yarim soatcha qiynalgan. Ikki joyidan - ko'kragi va qornidan pichoq yegan, boshiga o'ng chakkasi aralash og'ir narsa bilan urilgan. Bosh suyagining orqasi darz ketgan. Xullas, haqiqiy qotillik. La'nati, urganga ham o'xshaydi, badanlarida, ayniqsa, qo'llarida ko'kargan joylari bor. Yana bir detalKj. Marhuma fojjadan bir soat oldin konKjyak ichgan. Pliski.

G'ulomov, gap tamom, degandek tekshirish oqibatlarini solingan papkani Alievning oldiga qo'ydi.

- Eri kechqurun qaerda bo'lgan? Aliev leytenantga murojaat qildi.

- Bu bilan leytenant Qodirov shug'ullanyapti. Kapitan radiatorbani ilgagini ko'tardi.

- Menga starshiy leytenant Ro'zиеvni ulang.

- Ro'zиеv eshitadi!

- O'rtoq starshiy leytenant! Tekshirish tugadimi?

- Tugadi.

- Bo'lmasa Saidovanning buyumlari va tekshirish natijalari bilan mening oldimga kiring.

- Xo'p, o'rtoq kapitan.

- KonKjyak ichgan, deng? Kapitan G'ulomovga o'girildi.

- Ha, yuz grammcha.

- Demak, yengil kayfi bo'lgan?..

- Gavdasiga qaraganda, uncha sezilarli emas, lekin... - G'ulomov qoshlarini chimirdi. - Ayol kishining shuncha konKjyak ichishiga biror sabab bo'lishi kerak.

- Ichirishgan, demoqchimisiz?

ВЪ”Bilmadim. Chiroyli ekan, bironta bezori ketiga tushgan bo'lishi mumkin.

- Uni bitta deb o'ylaysizmi?

- Har holda murdada bitta odamning izi. Hammasi yozilgan.

Kapitan Aliev beixtiyor vrach qo'ygan papkani ochdi va protokolga ko'z yugurtirdi.

- Ha, taxminingiz haqiqatga yaqin. Tajovuzga o'xshaydi.

- Mumkinmi?

Kabinetga starshiy leytenant Ro'zиеv kirdi. Bu qotmadan kelgan, qoracha, leytenant Sul-tonov tengi yigit edi. Qo'lida temir quti.

- Mana buyumlari.

U qutini ochib, buyumlarni ola boshladi.

- Zirak. Ko'zlari brilliant. To'rt yuz sakson so'm turadi. Uzuk. Ko'zi yoqutdan. Bahosi uch yuz qirq olti so'm. Toshkentda faqat Urdadagi magazinda bir yil oldin bo'lgan. Uch dona. Uchalovini ham sotib olgan odamlar ma'lum. Bu uzukni u qaerdan olganligini aniqlay olmadik. Ziraklar "Rubin"dan shu yil bahorda olingan. Bu magazin Bogdan XmelKjnitskiy ko'chasida. Tilla soat. Erkaklarniki. Bir yuz yetmish so'm. Sovg'a: R. Saidovdan.

- Bu eri, - izoh berdi leytenant Sul-tonov.

- Sumkasidan o'n uch so'm pul chiqdi, - davom etdi Ro'zиеv. - Qosh bo'yaydigan qora qalam. Upa, oyna. Ro'molcha. Magazinniki. Tutilgan. Faqat o'zi tutgan. Keyin gazeta parchasiga o'rog'liq mana bu quticha.

Ro'zиеv qutichani kapitanga uzatdi.

- Nima ekan bu?

- Uzukning qutichasi. Aniqladik. Quticha shu qo'lidagi uzukniki. Yangi. Uzuk ham yangi. Ikki kun bo'lgan qo'lga taqqaniga.

Manavi nikoh uzuk. Oltmish to'rt so'm turadi. Kiyim-kechagini olib kelganim yo'q.

Kapitan Aliev marhumaning taqinchoqlariga qarab, o'ylanib qoldi.

- Ha, badavlat ayol ekan. Eri qaerda ishlaydi?

- O'simliklar biologiyasi ilmiy-tekshirish institutida, - javob qildi leytenant Sul-tonov. - Yaqinda kandidatlik dissertatsiyasini yoqlagan. Starshiy ilmiy xodim.

- Demak, qotil o'g'ri emas.

- Ha, - gapga qo'shildi G'ulomov, - bu yo nomusiga tegmoqchi bo'lgan odam, yo...

- Dalilingiz to'g'ri, - dedi kapitan. - O'likni bersak bo'ladimi?

- Agar siz ruxsat bersangiz...

- Morgga jo'nating, menga kerak emas.

- Yaxshi, ketsam maylimi?

- Marhamat.

Kapitan G'ulomov chiqib ketdi.

- Xo'sh, nima deysizlar? Aliev yordamchilariga tikildi.

- Erini so'roq qilish kerak, - dedi leytenant Sul-tonov.

- Boshida shuncha tashvish turganda-ya? O'likni ertaga olib ketsa, indinga ko'madi. O'shandan keyin u bilan gaplashamiz. Hozir marhuma kecha qaerda, kim bilan bo'lgan, kim bilan ichgan - shuni aniqlaylik. Kelishdikmi?

Kapitan yordamchilariga gap tamom, degandek qaradi va ko'zlarini yumdi.

Ha, bu voqea ancha vaqtini oladiganga o'xshaydi. Hozir uning sabablarini taxmin qilish foydasiz, hozir marhumaning kechagi har bir qadamini shoshmasdan zargardek aniq belgilab chiqish kerak edi...

Xuddi shunday voqea kapitanning boshidan o'tgan. Olti yil bo'ldi shunga. Ha, roppa-rosa olti yil. O'shanda u rayon militsiya bo'limida ishlardi. ToshMIning orqasidagi madaniyat va istirohat bog'iga tutashib ketgan "Shanxay" deb nom olgan pastak, omonat uylar orasidagi jinko'chalarning birida yosh bir ayolning o'ligi topildi. O'shanda ham qotil uning hech narsasiga - na taqinchoqlari, na sumkasidagi talaygina pulga (ayol oziq-ovqat magazinida sotuvchi bo'lib ishlardi) tekkan, lekin ashaddiy

dushman sifatida butun yerini qoldirmagan, urgan, bo'g'gan, oxiri boshiga tosh bilan urib o'ldirgan. Bir oy deganda u topildi. Xuddi shu yerda, fojia sodir bo'lgan joyda qo'lga tushdi. Sababi - rashk. Ayol u bilan bir yilcha yurgan, hatto yashagan, keyin boshqa odam bilan turmush qurgan. Yigirma yilga kesilib ketdi.

Bu fojining ham nimasidir shunga o'xshab ketardi. Yosh, chiroyli ayol. Ko'p odam unga xushtor bo'lgan bo'lishi kerak. Lekin rashkmikan?

Kapitan marhuma ishlagan institutga o'zi borib kelishni lozim topdi. Kabinetning orqasidagi dam olish xonasiga o'tib, formasini grajdan kiyimiga almashtirdida, ko'chaga chiqdi. Uni yana bir narsa xavotirga solib qo'ygan edi. U ham bo'lsa, fojia yuz bergan joy. Chorsu Toshkentning eng gavjum rayonlaridan biri. Nahotki hech kim ularni ko'rmadi? Kechki o'n bir - bu hali juda kech, bitta ham odam bu yerdan o'tmaydi, degan gap emas-ku? Yo...

Uning xayoliga yangi fikr keldi-yu, hozircha institutga borishdan voz kechdi. Qayoqqa yurishini bilmay, gazni bosib qo'yganicha buyruq kutib o'tirgan shofer so'radi:

- Qaysi tomonga?

- Chorsuga yur!

Mashina u ko'chadan chiqib, Navoiy prospektiga burildi. Kapitan shofer yonidagi mikrofonni olib tizzasiga qo'ydi.

- Eshitaman! - SekretarKj qizning ovozi keldi undan.

- O'likni olib ketishlari bilan menga xabar qilishsin.

- Xo'p bo'ladi.

"Volga" Xadradagi fontanni aylanib o'ngga burilishi bilan kapitan buyurdi:

- Shu yerda kuting.

Mashina tramvay parkining darvozasi oldida to'xtadi.

Havo dim, issiq asfalKjt ustida suvdek jimirlardi. Ko'chani narigi betidagi kabobxonadan tarqayotgan ko'kimtir quyuq tutun havoda buralib-buralib qayoqqa ketishini bilmay, serbarg daraxtlar orasiga o'zini urardi.

Kapitan qora ko'zoynagini taqib, shu tomonga o'tdi-da, keng trotuar bo'ylab pastga, Chorsu tomon jadal yurib ketdi. Uning hozir biron narsa aniqlashi qiyin edi. Odam ko'p, izlar toptalgan, kecha kechqurundan beri necha marta suv sepilgandir? Lekin odatB"odat. Leytenant Sultonovning batafsil hikoyasini eshitib, aniq tasavvurga kelgan bo'lsa ham o'sha joyni o'z ko'zi bilan ko'rishi kerak edi.

Mana, bekat. Odam ko'p. Har xil odamlar. Birov ishga shoshilyapti, birov bozordan kelyapti, ikki qo'lida setka, korzinka...

Kapitan bekatga kelib, na'matak oldida to'xtadi. U katta sadadek shox otgan. Tagiga uch-to'rt odam bemalol sig'adi, yotsa ham bo'ladi. Ketmon ushlagan ikki mo'ysafid uning yonidagi elektr ustuni tagida gaplashib turardi. Kapitan beixtiyor ular qarshisiga borib sigaret tutatdi. Gaplashib turganlar unga parvo qilishmadi.

- Topiladi, - dedi bittasi og'zidagi nosvoyni na'ma-takka tupurib. - Odam o'ldirarmishu topilmaydimi?

- Milisani o'zi bo'lib gapirasan-a, chilton?! - e'tiroz bildirdi ikkinchi yoshrog'i. - Kecha o'lgan bo'lsa, o'ldirgan odam shu paytgacha manaman deb turadimi? Allaqachon juftakni rostlagan, la'nati!

"Chilton" laqabli kishi yana tupurdi.

- Qochib qayoqqa borardi? Tutiladi. Lekin men senga aytsam, shunaqa odamni otish kerak emas.

- Nega? - hayron bo'ldi sherigi.

- Bo'yniga zanjir solib, sho'tga bog'lab qo'yish kerak. Shu joyni ko'raverib, ko'r bo'lsin, boshqalar ham ko'rsin. Yaponlar shunaqa qilarmish, men senga aytsam...

- Yo'g'e?..

- Nima "yo'g'e..." O'zim eshitdim. Cho'ntakka tushsa - bir qo'lini, uyni bossa - bir qo'l, bir oyog'ini kesisharmish. Odam o'ldirsa, boyagiday, o'ldirgan joyiga o'la-o'lguncha bog'lab qo'yisharmish, bo'yniga zanjir solib.

- Zo'r ekan, - dedi sherigi soqolini tutamlab.

- Men senga aytsam, - davom etdi ikkinchi kishi sirli ohangda, - eski zamonda shunday qilar ekan.

- Bechora, kim ekan, eshitdingmi?

- Hech kim bilmaydi. E Mamarasul, nima, bir bebaxt odamning farzandi-da!.. Ota-onasini qaqshatib ketdi-ku!..

Chinqirib tramvay keldi. "Shuv" etib odamlar tushdi undan. Bekatdagilar ham shunday "shuv" etib bir zumda uni to'ldirishdi.

Mo'ysafidlar ham tramvayga chiqishdi. Chorsu maydonida bir qancha vaqt suv budkasiga suyanib turgan yigit va kapitandan bo'lak hech kim ko'rinmadi.

Kapitan chollarning ketib qolganidan ichida achindi va yana na'matakka qaradi. Shu top trotuar bilan katta yo'lni ajratib turgan qalin ajriqning shunday na'matak qarshisida uch-to'rtta singan shoxlariga ko'zi tushib qoldi. Xayoliga boya, mashinaga tushayotgandagi fikri keldi. Uni olib kelib tashlashgan bo'lsa-chi? Shu xayol bilan singan shoxlarni sindirib ola boshladi.

- Hoy, nima qilyapsiz? - qichqirdi orqadan qandaydir ayol ovozi.

Kapitan o'girilib qaradi. Uning qarshisiga supurgi va xokandoz ko'targan, etagini lippasiga qistirgan o'rta yoshli bir ayol shaxt bilan kelardi.

- Kap-katta odam, uyalmysizmi? Buni o'stirguncha ozmuncha urindimmi?

- Kechirasiz, opa, sinib yotibdi. Kimdir bosib o'tgan bo'lsa kerak, qarang. Shu yerda ishlaysizmi? - so'radi kapitan kulgisi qistab.

- Ko'rmayapsizmi, qo'linda supurgi! Bir oydan beri sho'tdaman, rahmatlik erimning o'rnida.

- Nechagacha ishlaysiz?

- E, ukam, soatning tayini bormi bizning ishda? Uyim sho'tda. Suv do'konining orqasida turaman. Bo'sh qoldim, chiqib supurib-sidiramanda. Odamlarda insof yo'q, ukam. Chekishadi, shunday oyoqning tagiga tashlashadi. Bir qadam yur, yashik qo'yib qo'yibman, shunga tashla! Ro'para bozor. Keldi-ketdi ko'p.

- Kechqurun ham chiqib turasizmi?

- Kechquruni bor ekanmi?! Evtotmanku, bo'sh qoldim, chiqaman, deb. Ertalab ham, kechqurun ham, kechasi ham. Uyda nimayam qilardim, kun-uzzukun bekorman.

- Kecha kechqurungi voqeani bilasizmi?

- Ana shunga kuyib turibman, ukam. Kecha rahmatlik erimning qirqini o'tkazuvdim. Chiqqanim yo'q. Bir kun chiqmaganimga shundoq falokat yuz beribdi-qo'yibdi. O'ziz qayokdan bilasiz?

- Men militsiyadanman, - dedi kapitan Aliev. - Uyingizga kirsak maylimi?

- Jonim bilan, ukam. Ovqat mahali bo'lib qoldi. Yuring, aylanay.

Uzilgan ajriq shoxlarini olib kapitan ayol ketidan yurdi.

Ayol qancha qistamasin, kapitan uyga kirmadi, yo'lakda to'xtab, cho'ntagidan Munis Saidovanning suratini chiqardi.

- Mana shu ayolni ko'rganmisiz?

- Voy, shumi o'lgan? -Ha.

Ayol suratga diqqat bilan tikildi.

- Qaydam, ukam, hech eslolmayapman.

- Yaxshilab o'ylang. Sochi kalta qirqilgan. Qora qosh, qora ko'z... Uning yuzida, shunday burnining uchida xoli bor, moshdek keladi. Kecha qo'lida oq sumka ham bor edi. Bandi to'qima charmdan qilingan, oq sumka. Oq bosonojka oyog'ida.

- Tatiring, tatiring!.. Oq sumka deysizmi? Sochi kalta qirqilgan?.. O'tgan kuni ko'rdimov, chamamda. Kunduz kuni. Ha, ko'rdim.

Do'kondan suv ichdi. Men shundoq do'konning oldini supurvotuvdim... Ha, o'sha, aylanay, o'sha... - ayol jonlanib ketdi. - Yuzida xoli bor. Moshdekkin. Biram kelishgan. Menga gap otdi ham! Supuryapman, ko'rib turibdi. "Nega changitasiz, xola?" deydi.

Jahlim chiqib ketdi. "Avvalo, xolang emasman, qoqindiq, dedim. Keyin, ko'rmayapsanmi, dedim". Indamadi.

- Suv ichdi. Keyin nima qildi?

- Keyinmi? Tatiring, tatiring... Keyin ketdi. Samar-qand darvozasiga kirib ketdi. Sumkasini shunda ko'rdim. Oq sumka, bandi to'qilgan. Biram ko'hlik. O'ziga shundoq yarashib turuvdi.

- Yonida hech kim yo'qmidi?

- Yo'q, yolg'iz edi. Tag'in bilmasam... Shunaqalarni, aylanay, qaramayman.

- Opa, sizdan iltimos. Avvalo, men bilan gaplashganingizni hech kimga aytmaysiz.

- Esimni yebmanmi, ukam.

- Keyin, yana bir o'ylab ko'rarsiz. Balki bitta-yarimta bilan ilgari ko'rgandirsiz? Har holda o'ylab ko'ring. Bu juda muhim. Bir-ikki kundan keyin xabar olamiz.

- O'zim boraman, aylanay, o'zim. Kapitan boshini qimirlatib, ko'chaga chiqdi.

"Har kaday jinoyat izzsiz bo'lmaydi, - O'ylardi u Xadra tomon yurar ekan. - Ertami, kechmi, biron belgisi topiladi. Lekin qanday belgi? Gap ana shunda".

Munis Saidovanning kvartirasi ma'lum. Ish joyi ma'lum. Samarqand darvozaga uni nima yoki kim boshlab keldi? Ikki kun ketma-ket shu yoqqa kelibdi. Nima bor bu yerda?

Kapitan kabinetidagi oq qog'ozga xayolan yana bir belgi qo'yib qo'ydi. U mashinaga o'tirganda shofer: "Hozir o'likni morgga olib ketishdi", dedi.

Kechga yaqin marhumaning biografiyasi unga ayon bo'ldi. 28 yoshda. Qo'qonda tug'ilgan. Otasi - Ubaydulla Xoliqov - xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, hozir pensiyada. Onasi ishlamaydi, qandaydir artelda urush yillari ishlagan, atigi ikki yil. Asosan, uyda.

Oltmish uchinchi yili ToshDUga kirmoqchi bo'ladi, imtihondan yiqilib, hujjatlarini chet tillar institutiga topshiradi. Oltmish sakkizinchi yili institutni bitiradi. Bir yilcha 40-maktabda fransuzchadan dars beradi. Keyin sakkiz oy "Inturist"da ishlaydi. Bir yil ishlamaydi. Sababi noma'lum. O'tgan yilning sentyabridan institutda fransuz tili kabineti boshlig'i bo'lib ishlaydi.

Eri - bioximik. O'simliklarning eksperimental bio-logiyasi ilmiy-tekshirish institutida katta ilmiy xodim. Ximiya fanlari kandidati. Asosan, paxtachilik bilan shug'ullanadi. Yangi "Toshkent-2" nomli paxta sortlarini yetishtirishda qatnashgan. Hozir viltga qarshi qandaydir yangi preparat ustida ish olib boryapti.

- Bu institutda kim bor? - so'radi kapitan Sultonovdan.

- Starshiy leytenant Abdullaev.

- U nima fikrda?

- Saidov katta olim va uning hozirgi ishi ko'p mamlakatlardagi institutlarni qiziqtirgan, ba'zilarini hatto tashvishga solgan. Vilt faqat bizda emas, AQShda ham paxtani kamaytirib yuboryapti.

- Durustsiz-ku? - jilmaydi kapitan.

- To'g'ri keldi, - mamnunlik bilan javob qildi leytenant.

- Xo'sh, kecha Saidova qaerda bo'lgan?

- Saidova kecha soat o'n ikkilarda ishga kelgan, - javob qildi starshiy leytenant Ro'ziev. - Bir soatcha ishda bo'lgan. Keyin kabinet kalitini bibliotekachi kampirga berib ketgan. Qayoqqa ketayotganini aytmagan. O'zi to'rtgacha ishlashi lozim ekan. Uning qaerda bo'lgani noma'lum.

- Eri-chi?

- Eri kecha yettilargacha ishda bo'lgan. Keyin O'rdadagi tilla magaziniga kirib uzuk ko'rgan. Uchta ko'zlik brilliant uzuk.

Magazinchidan ertagacha ushlab turishni iltimos qilib, ketgan. Magazin yonidagi avtomatdan telefon qilgan.

- Kimga?

- Hamkasbi, institutdagi laboratoriya boshlig'i Hafiz Abdullaevga. Undan pul so'ragan. Keyin uning uyi oldida pulni olib, yana iziga jo'nagan. Soat sakkiz yarimda uni bir qo'lida katta qora portfelKj, bir qo'lida tort ko'targan holda uyiga kirib kelayotganini ko'rishgan. Keyin ertalab leytenant Saidov uyiga borguncha bir necha marta ko'chaga chiqib kelgan, juda tashvishli ko'ringan. Ha, kechasi soat to'rtlarda Qo'qonga telefon qilib, qaynatasi bilan gap-lashgan, xotini yo'qligini aytgan.

- Hamkasbi bilan gaplashdingizmi?

- Ha, uning aytishicha, er-xotin juda ko'p urishishar ekan. Kecha ertalab ham u uyidan xotini bilan urishib chiqqan. Ajralishga ahd qilganini aytgan. Qo'shnilari ham ularning yomon turishlarini aytishdi. Saidova ko'pincha onasinikiga, Qo'qonga ketib qolar ekan. Uch-to'rt kundan keyin yo eri, yo otasi olib kelar ekan. Qo'shnilar onasini ancha koyishdi. Aftidan, u xotin qizini juda yaxshi ko'rsa kerak. Albatta, o'zicha. Har kelganida kuyovidan qo'shnilarga shikoyat qilar ekan. Hamma gapni pulga olib borib taqar ekan.

- Saidovning oylik daromadi?

- Ikki yuz oltmish so'm.

- O'ziniki-chi?

- To'qson sakkiz so'm.

- Nechta bolasi bor?

- Bolalari yo'q. U istamas ekan. Hozircha. O'ttizga chiqay, keyin der ekan.

11 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Tilla asboblari o'zinikimi?
- Ular yangi, demak, o'ziniki. Lekin qaysi pulga olgan, noma'lum.
- S-5 da qachondan beri turishar ekan?
- Ha. Lekin undagi iz Chorsudagi izlarga o'xshamaydi. O'rtoq kapitan, - leytenant Sulonov qoshlarini chimirdi. - Saidovni so'roq qilsak bo'lardi hozir.
- U qochib ketmaydi, - dedi kapitan va gapim to'g'rimi, degandek Ro'zievga qaradi.
Ro'ziev boshini qimirlatdi.
SekretarKj qiz kirib kapitanga qog'oz uzatdi.
- Hmm... - O'ylanib qoldi kapitan. - Ajriq xuddi fojia yuz bergan paytda bosilgan.
- Demak, ular mashinada kelgan bo'lishlari mumkin? - faraz qildi leytenant.
- Ha, - tasdiqladi kapitan. - Lekin bu ham tekshiruvga muhtoj. Xo'sh, hozir biz nimalarga egamiz? Birinchidan, kim o'ldirganligi ma'lum...
Ular uzoq o'tirishdi. Kech kirib, qorong'i tushdi. SekretarKj qiz uyiga ketish oldidan kapitandan ruxsat so'radi. Aliev ruxsat berdi-yu, yana qator belgilar qo'ygan qog'oz ustiga egildi.
Bir kunda ular ancha narsani aniqlashgan, marhumaning hayotiga oid deyarli hamma hujjatlarni to'plashgan edi. Rahim Saidovning qanday odamligi ham, uning hayoti ham, asosan, ma'lum edi. Lekin hali ko'p narsa - ularning fojia yuz berganda birga yo birga emasliklari, marhumaning o'ldirilishi sabablari, qotil kimligi hali qorong'i edi.
Kapitan bir narsani yaxshi bilardi. Qotil kim bo'li-shidan qat'i nazar, o'z ishini ustalik bilan bajargan, deyarli hech qanday iz qoldirmagan edi. Biroq bunday bo'li-shi mumkin emas. Undan biror iz qolgan, lekin u qaerda, qanday iz?
- Bunday qilamiz, - kapitan o'rnidan turdi. - Ertaga tramvayda yuradigan chorsuliklar blan uchrashish kerak. Shayxuddinova qandadir temiryo'lchi, keyin to'qimachilar kombinatida ishlaydigan ayol, yana kimlardir aytgan edi. Uni topib, shu odamlarni surishtirish kerak.
- Xo'p, men shug'ullanaman bu bilan, - dedi starshiy leytenant Ro'ziev.
- Bo'lmasa, Anvarjon siz Saidovning o'rtoqlari bi-lan shug'ullaning. Qachon ko'mishar ekan?
- Hali noma'lum, - dedi Sulonov. - Aftidan, ertaga. Faqat bir narsani bilmayman.
- Xo'sh?
- Qaerga ko'mishar ekan? Ota-onasi Qo'qonga olib ketamiz, deb turib olishlari mumkin?
- Agar shunday bo'lsa, Qo'qonga xabar berib qo'yamiz. Xo'sh, ertagacha xayr.
Ro'ziev bilan leytenant Sulonov ketishdi. Kapitan belgilar qo'yilgan qog'oz ustida birpas ruchkasini o'ynatib turdi-da, joyiga o'tirdi. U uyiga telefon qilib, xotini-ga: hozir boraman, demoqchi edi, aynidi. Boshqa nomerni terdi.
- O'rtoq polkovnik?
- O'rtoq polkovnik ministr oldiga ketdilar, - javob qildi ayol ovozi.
- Zamira?
- Ha, menman. O'rtoq kapitan, sizmisiz?
- Men.
- Ahmad aka arizangizga qo'l qo'ydilar. Ertalab kadrlar bo'limiga olib chiqib beraman.
- Keragi yo'q.
- Voy, nega?
- Otpuskam qoldi. Ish chiqib qoldi.
- Ahmad akamga aytib qo'yaymi?
- Hojati yo'q. Ertalab o'zim kiraman.
Kapitan trubkani qo'ydi. Shu payt leytenant Sulonov qaytib kirdi.
- O'rtoq kapitan?
- Eshitaman!
- Sizni bir ayol so'rayapti. Zarur ishim bor, deydi.
Menga aytmadi.
- Chaqiring.
Kabinetga qorovul ayol kirdi.
- Ha, opa, keling? - tanidi kapitan.
- Ukam, topdim! - dedi hovliqib ayol. - Uni bir-ikki marta bir erkak bilan ko'rganman.
- Qanday erkak?
- O'rta bo'yli, o'ziga o'xshagan qora qosh, qora ko'z. Qo'lida katta qora papkasi bor.
- Manavi emasmi? - leytenant cho'ntagidan Rahim Saidovning ertalab eshikni ochganda olingan suratini ko'rsatdi.
- O'xshab ketadi, - dedi ayol iyagini ushlab. - Tag'in, kim biladi, qo'rqaman bir narsa deyishga. O'zini ko'rganda tanimasam?
- Qora portfelKj deng qo'lida? - so'radi kapitan.
- Ha, katta qora port... portfelKj...
Kapitan va Sulonov bir-birlariga tikilib qolishdi.

4

Kun chiqib, uy nurga to'lib, isib ketdi. Rahim Saidov esa hamon joyidan qimirlamay o'tirardi. Qirra burnining ikkala chetidani lablariga oqib tushgan yosh yaltiroq iz qoldirib, allaqachon qotib qolgan, qo'lidagi chekilmagan sigaret tutab so'ngan, ammo u buni payqamas, panjalari orasidan siqqanicha, bir nuqtaga tikilib qolgan edi.
Mudhish xabarni eshitganidan keyin ikki-uch soat o'tgani uchunmi, u endi ancha tinch, boyagina butun vujudini qoplab olgan hayajon, titroq bosilgan, o'zining qaerdaligini, nima uchun o'tirganini aniq his qilardi. Biroq qopdan tikilgandek ichi bo'm-bo'sh, hech narsa yig'isini, hech narsa g'azabini qo'zg'atmasdi, go'yo shunday bo'lishini bilgandek, hatto qachonlardir boshidan o'tkazgandek o'tirardi. Shu uy, xuddi shu kreslo... Stol ustida hozirgidek xuddi shu narsalar - paxta gullik choynak, ikkita piyola, sindirilmagan yarimta g'ijda non... Egnida ham xuddi shu kiyimi, g'ijim. G'ijim triko shim, ko'k vKjetnamcha ko'yilak... Qachon shunday bo'lgan edi? Ha, esida... doim shunday edi. Urishishdimi, u nima qilishini bilmay, gunohkor odamdek, shu kresloga o'tirib

boshini egardi va og'ir xayollarga cho'mardi. Kecha ertalab ham shunday bo'ldi. Yotoqxonadan chiqib yuvindida, kiyinib, oshxonaga o'tdi, lekin hech narsa yegisi kelmadi. Keyin mehmonxonaga chiqib, shu choynaqdan sovuq choy ichdi, yuqigacha simirdi va butun og'irligi bilan o'zini kresloga tashladi. U Munis chiqib, biror narsa deyishini kutgan edi. Xotini chiqmadi, yotoqxonadan uning "piq-piq" yig'isi eshitildi. Keyin jim bo'lib qoldi. Rahim Saidov nafas olishga ham qo'rqib, quloq soldi. Oyoq tovushlari eshitilmadi. Chidolmay:

- Munisxon!.. - deb ohista chaqirdi. - Men... men ketyapman.

Urishmagan paytlari yugurib chiqib, "cho'lp" etib yuzidan o'padigan xotini ovoz ham bermadi.

Rahim Saidov jo'rttaga oyoqlarini tapillatib eshikkacha bordi. Portfelini qo'lga olib bir oz turdi. Yo'q, Munisxon chiqmadi. Ovoz chiqarib orqasidan qarq'ab qolsa ham mayli edi, tezroq yarashishga bahona bo'lardi. Ko'pdan shunday bo'lib qolgan edi, xotini qanchalik ovozi baland qilsa, u shunchalik past tushar, ba'zan esa, miq etmay, boshini xam qilib turaverardi.

Munisxon battar jahli chiqib:

- Bir balo desangiz-chi! Qon qilib yubordingiz-ku! - derdi va yig'lab yuborardi.

Bu yarashishning birinchi belgisi edi. U yig'lab yotoqxonaga kirib ketgandan keyin tashabbus Rahim Saidovning qo'lga o'tardi. U kirib xotini yoniga o'tirar va sekin yig'idan titrab turgan yelkalarini silar, xotini indamagach, bo'yniga lablarini ko'yardi.

- Meni kechiring, Munisxon, ayb menda. Eshityapsizmi? Ayb menda...

- Siz faqat shuni bilasiz, - derdi yig'i aralash Munisxon. - Ming marta kechirgandirman.

- Ming birinchisi ham bo'lsin. Kechiring...

Nam yostiq ustida Munisxonning chiroyli boshi qimirlardi.

Shunday paytlarda Rahim Saidov uchun undan aziz, undan mehribon, undan sevikli odam yo'q edi. Shunday odamni qiynab, yig'latib o'tiribdi-ya?! Aytganini qila qolsa nima qilardi?!

Rahim Saidov mehr bilan xotinini bag'riga bosar, yuz-ko'zidan o'pard. Munisxon birdan o'zgarardi, bir zumda ochilib, husniga husn qo'shilib ketardi. Yengil bir harakat bilan to'zg'igan sochlarini orqaga tashlab, hozirgina to'yib uyqudan turgan odamdek, eriga ko'zlari to'la tabassum bilan tikilardi...

Endi u yo'q. Yuragi muz bo'lib o'tirgan Rahim Saidov buni aniq his qilardi. Lekin nega, kim uni o'ldirdi? Shu savollar miyasida aylanar ekan, u bir narsaga hamon tushunmasdi. Munisxon nega kechqurun Chorsuga bordi? U yerda nima qildi? Bunga u javob topolmadi. U endi yolg'iz, umrbod yolg'iz. U shunday o'yladi-yu, yana tomog'iga bir narsa kelib tiqildi.

- Munis, Munis, nima qilib qo'yding?.. Men aybdonman, men!.. Agar urishmaganimizda u tirik bo'lardi. Yana birga bo'lardik...

U ovoz chiqarib gapira boshlaganini sezib qoldi-yu, cho'chib ketdi. Alanglab atrofiga qaradi. Hech kim yo'q. Yolg'iz o'zi uyda.

Nima qilish kerak?

U o'rnidan turdi, qayoqqa borishini bilmay xona o'rtasida bir oz turdi-da, yotoqxonaga kirdi. O'rni yig'ilmagan, toshoyna oldidagi kursida Munisxonning ichki ko'ylagi yotardi. U shu ko'ylakka tikilib qoldi. Ko'ylak orasidan Munisxon chiqib kelayotgandek bo'ldi bir mahal. U orqasiga tisarildi, toshoynada soqollari o'sgan, rangi quv o'chib, ko'karib ketgan o'zining basharasini ko'rdi-yu, bu xayol ekanini tushundi.

Ko'ylakni olib, karavot zixiga o'tirdi. Nazarida uyni Munisxonning yoqimli hidi qoplab ketgandek bo'ldi, lablari nimalarnidir shivirlab, ko'zlariga o'z-o'zidan yosh keldi. U seskanib o'rnidan turdi, ko'ylakni yostiq ostiga qo'yib, o'rinni yig'ishtirdi.

Yotoqxonadan chiqayotib, yana bir marta hamma yoqqa razm soldi, ortiqcha hech narsa ko'ziga ko'rinmadi. Keyin negadir oshxonaga o'tdi. Bufetning ustida og'zi ochiq "Pliski" turardi. O'tgan kuni Hafiz kelganda ochishgan edi. Bitta Hafizning o'zi ichdi o'shanda. Ryumkasi ham shunday patnis ustida turibdi. U shu ryumkaga to'latib konKjyak quydi-da, zarb bilan ichdi. Hech narsa sezmedi, hatto hech narsa yegisi ham kelmadi. Yana quyayotganda telefon jiringlab qoldi.

- Rahimjon? Sennisan?

Rahim Saidov tanidi. Hamkasbi Hafiz Abdullaev edi.

- Nega ishga kelmayapsan? Tinchlikmi?

- Munis... Munis yo'q, - dedi zo'rg'a bo'g'ilib Rahim Saidov. - Uni kecha o'ldirib ketishibdi.

- Nima?! Esing joyidami o'zi? Nima deyapsan?

- Rost, Munis endi yo'q.

Trubka jimib qoldi. Qandaydir g'o'ng'ir-g'o'ng'ir tovushlar eshitildi.

- Men hozir boraman! - qichqirdi keyin Hafiz va trubkani ildi.

Rahim Saidov bo'shashib, telefon yonidagi stulga o'tirdi. Chindan ham esi joyidamikan uning? Yolg'on bo'lsa-chi? Kechasi bilan ko'chalarda sang'igani, militsionerning kelgani, mana hozir shunday, g'ussaga to'lib o'tirgani tush bo'lsa-chi?

U sapchib o'rnidan turdi.

- Munis!

Munis yo'q edi, oshxonada ham, yotoqxonada ham. Toshoyna oldidagi kursicha yonida uning yaltiroq shippaklari yotardi. O'zi yo'q.

Eshik taqilladi. Pochta.

- Telegramma! - qichqirdi eshik orqasidan kimdir. Rahim Saidov eshikni ochdi.

"Viletaem dvux chasovim reysom" - deyilgan edi telegrammada. Bu qaynatasi. U beixtiyor soatiga qaradi. Soat strelkasi sakkizni ko'rsatardi. Qulog'iga tutdi. Yotib qolibdi. Oshxonadagi osma soatni ko'rdi. O'n ikkidan o'nta o'tibdi. Ular kelishiga hali uch soat bor. Yuklari bo'lsa, yana bir soat ketadi. Yuksiz bo'lishsa kerak bu gal. Ubaydulla aka uchun xotining o'zi katta yuk. Bechoraning yuragi chiqib ketgandir? U mayli, kelgani qaytanga yaxshi. Dalda bo'ladi. Aya bilan gaplashish qiyin. U albatta, kuyovini ayblaydi. Negadir u kuyovini yoqtirmaydi. Rahim Saidov ham shunday. Sergap, tamagir, pul desa o'zini tomdan tashlaydigan bu xotinni ko'rdi, ensasi qotaveradi. Uning uchun qizidan boshqa hamma yomon, xunuk, ahmoq. Dunyodagi odamga berilgan jamiki yaxshi fazilatlar go'yo qizida mujassamlashgan. Unga tushuntirish qiyin bo'ladi. Yaxshiyam militsiyadan telefon qilishdi. U aytolmasdi. Aytib ulgurguncha aya miyasini qoqib qo'lga berardi.

Hafiz keldi. Rahim Saidov o'pkasi to'lib unga qaradi, lekin yig'i kelmadi.

- Nima bo'ldi? - hovliqib so'radi Hafiz.

- Shu, kecha kelsam uyda yo'q. Kechasi bilan qidirib chiqdim. Ertalab militsiyadan kelib aytishdi.

- Nima bo'libdi?

- Chorsuda o'ligini topishibdi... Chorsuga nega borgan? Hech narsani bilmayman.

- Qaerda emish?
- Hozir ToshMIga olib kelishadi.
- Hech kimga aytdingmi?
- Yo'q.
- Aytish kerak. O'zingni qo'lga ol. Qarindoshlaringni sana, men aytib chiqaman.
- Boshim g'uvillab ketyapti...
- Tushunaman, og'ir... - Hafiz uning yelkasiga qo'lini qo'ydi. - Yomon bo'libdi. Kimlar... shu ishni qilibdi?
- Bilmayman. Ammo bilsam ham sog' qo'ymayman...
- Bo'ldi, do'stim, o'zingni bos. Militsiya topadi. Qotil tegishli jazosini oladi.
- Uzuk devdi... Katta yoqut ko'zli uzuk... - xayolchan gapirdi Rahim Saidov. - Unaqasini topolmadim. Anchadan beri yo'q ekan. Lekin men ko'rgan uzuk ham juda chiroyli ekan. Ustida kichkina-kichkina ko'zi bor. Brilliant ko'zlar... Endi keragi yo'q...
- Bo'ldi, Rahimjon, o'zingni qiynama. Ichasanmi? Hafiz oshxonaga kirib, konKjyak va ikkita ryumka olib keldi.
- Ma, shuni ichib ol. Yaxshi bo'ladi.
Rahim Saidov qarshilik qilmadi. Hafizning o'zi ham ichdi.
- Uyingdakilarga qachon aytasan? Qo'qonga-chi? Rahim Saidov telegrammani ko'rsatdi:
- Uyga hali boraman. Hozir ToshMIga boraman. Borasanmi?
- Bo'lmasa-chi!
- Yo'q, ToshMiga o'zim boraman. Sen shu yerda qol. Nima qilsang, shuni qil. Bilasan nima qilishni.
- Pastda mashina bor, - dedi Hafiz. - Sulaymon aka berdi. Ta'ziya bildirdi.
Rahim Saidovning bu birinchi eshitgan ta'ziyasi edi. Yana qancha eshitadi?..
- Munis, Munis... nima qilib ketding?
U pastga tushdi. Kun tikkaga kelgan, ko'cha yonardi. Odam ko'p, hamma o'z ishi bilan ovora. Hech kim unga qaragani ham yo'q, dardini surishtirgani ham yo'q... Hech kim uning hozir yuragida nimalar bo'layotganini, eng yaqin, suyuqli odamidani hozir judo bo'lib turganini bilmaydi. Hatto uning kimligini, nima uchun yashayotganini ham bilmaydi. Hayot shunday. Har kim o'zi bilan o'zi ovora, o'zining tashvishi bor...
Rahim Saidov institutning ko'k "Volga" sini darrov tanidi. Mashinaga yaqinlashayotganda shofer yigit turib kelib tirsaklaridan ushladi.
- Bandalik, Rahimjon aka!..
Rahim Saidov nima javob qilishini bilmay, tutilib qoldi. Shofer buni sezib, xijolatlikdan qutqardi.
- Qayoqqa boravuz?
- ToshMIga.
- Bu ko'rgilik sizga qayokdan yopishdi-ya, aka-ya!.. Shofer chaqqonlik bilan Rahim Saidovning eshigini yopib, joyiga o'tirdi va starterni bosdi. Mashina g'izillab katta ko'chaga chiqdi.
ToshMI darvozasi oldida qorovul ularni to'xtatdi.
- Propusk!
- Xotinimni olib ketgani keldim, - dedi Rahim Saidov.
- Xotiningiz qaerda?
- Xotinim... Xotinim morgda...
- Bandalik, uka... kiringlar...
Shofer bilar ekan, kasalxonaning orqasidagi sister-naga o'xshagan dumaloq, ko'rimsiz g'isht bino oldida to'x-tadi.
- Keldik, - dedi u va mashinadan tushib, Rahim Saidovning eshigini ochdi.
Ular oldinma-keyin morgga kirishganda, muzdek zax havo dimog'lariga "gup" etib urildi. Eshik oldida qora xalat kiygan sap-sariq, oriqliq mo'ysafid ularga orqa o'girib, ovqatlanib o'tirardi.
- Mumkinmi? - so'radi Rahim Saidov.
Mo'ysafid shoshmasdan o'girildi. Rahim Saidovning ko'zi kleyonka solingan stol ustidagi non to'g'ralgan bir tovoq achchiq-chuchukka tushdi. Beixtiyor o'xchiq kelib, ko'ngli ag'darildi.
Zo'rg'a o'zini tutib olib, cholga murojaat qildi:
- Xotinim... Xotinimni ko'rsam bo'ladimi?
- Kim u? - soqol-mo'ylabini ro'molcha bilan artib, chol o'rnidan turdi.
- Munis... Munis Saidova. Bugun olib kelishgan bo'lishlari kerak.
- E, chavaqlangan juvonmi? - so'radi chol.
Rahim Saidovning jahli chiqib ketdi, tishini tishiga qo'yib, boshini qimirlatdi.
- Ana, to'rdagi stolda. Rahmatlik yosh ketibdi-da... Rahim Saidov to'rdagi uzun stolga qaradi. Xotining ustiga oppoq choyshab tortilgan, yuz-ko'zini ko'rib bo'lmasdi.
- Ko'rsam bo'ladimi?
- Ha... agar... cho'chimasangiz.
Cholning bu gapi dalda berdi. U stol yoniga borib, choyshabni ohista ko'tardi. Munisxon uyquda yotgandek tinch yotardi. Yumuq ko'zlari ostidagi uzun kipriklari bir-biriga chirmashib ketgan, bitta uzun soch tolasi oppoq peshanasi, burni ustidan tushib, bilinar-bilinmas ko'kara boshlagan lablariga tegib turardi. Unga hech narsa bo'lmagandek edi... Faqat chakkasi yong'okdek qoraygan, undan chiqqan bitta qora chiziq ko'ziga tutashgan.
Rahim Saidov titroq qo'llari bilan soch tolasini yuz-ko'zi aralash sidirib, kichkina yostiqliq bilan bitta bo'lib yotgan sochlariga sekin qo'shib qo'ydi, ichidan bo'g'ilib yig'i keldi.
- Munis, azizim... - deb yubordi xirildoq ovoz bilan u va xotining boshi uzra egildi.
Munisxonning oyoq tomonida turgan shofer yigit o'zini tutib turolmadi, ko'ziga yosh oldi.
- Rahimjon aka, bo'ldi, o'zingizni ezmang...
- Qo'yaver, o'g'lim... - dedi chol unga. - Ko'rib olsin. Odamning hayoti shu. Kecha bor, bugun yo'q. Ko'rib olsin.
Anchadan so'ng u Rahim Saidovning oldiga kelib, Munisxonning yuzini berkitdi. Rahim Saidov qarshilik ko'rsatmadi. Kaftlari bilan ko'zlarini artar ekan, so'radi:

- Mashina topiladimi, ota?
- Olib ketmoqchimisiz hozir?
- Ha.
- Qachon ko'masizlar?
- Bilmadim.

Rahim Saidov buni o'ylamagan edi. Chindan ham qachon ko'madi? Buni uydagilar bilan maslahatlashish kerak edi. Hafizni olib kelsa bo'lar ekan. U bilardi.

Uning o'ylanib qolganini ko'rib, chol maslahat berdi:

- Hoynahoy ertaga ko'marsizlar. Bugun tegmanglar. Issikda nima qilasizlar qiynab! Tinch yotibdi shu yerda. Ertaga olib ketinglar. Shofyor ham uning gapini ma'qulladi. Rahim Saidovga bu qanchalik og'ir botmasin, u Munisxonning shu yerda tun bo'yi yolg'iz qolishini istamas edi, rozi bo'ldi. Cho'ntagiga qo'l solgan edi, bir dasta pul chiqdi. Qaerdan keldi bu pullar? Ha, kecha Hafizdan olgan edi. Munisga uzuk olib bermoqchi edi... U bitta qog'oz pulni cholga uzatdi.

- Qarab turing...

Chol pulni rad qilar ekan, ko'llarini fotihaga yozdi.

- Omin, joyi jannatda bo'lsin. Ollohu akbar! Rahim Saidov beixtiyor yuziga qo'llarini surtib, tashqariga chiqdi.

Ular eski hovliga kelishganda kun peshin bo'lgan edi. Eshikdan kirishlari bilan katta kul rang it vovillagani-cha, lapanglab ular qarshisiga kela boshladi. Shofer yigit cho'chib, o'zini eshik orqasiga olayotgan edi, Rahim Saidov to'xtatdi.

- Qo'rqmang. Tashlanmaydi. Ko'ktoy! Jim bo'l, Ko'ktoy! It tanib, Rahim Saidovning oyog'ini yaladi va erkanib, dumini likillatdi.

- Yuravering.

Ular katta hovli o'rtasidagi so'ri tagiga kelishdi. Chorsi supa ustiga namat tashlangan. Atrofida ko'rpachalar yozig'-liq edi.

- O'tirib turing.

Rahim Saidov hovlining to'ridagi derazalari lang ochiq uylar tomon ketdi.

- Oyi!

Hech kim javob bermadi.

Rahim Saidov o'rtadagi oldi ochiq ayvonga ko'tarilib, uylarni qarab chiqsi.

Hech kim yo'q edi. U kutishga qaror qilib, so'ri tagiga qaytdi.

- Qo'shnilarinikiga chiqishgan bo'lishsa kerak.

U shoferning yoniga o'tirdi. Ko'ktoy oyog'i ostiga cho'kka-lab tilini osiltirdi.

- Shu yerda tug'ilganman...

Rahim Saidov bu gapni o'ziga aytdimi, shofer yigitgami - bilmasdi. U doim shu hovliga kelganida yuragida ham quvonch, ham faqat o'zigina payqab oladigan og'riq sezardi. O'ttiz yil shu uyda yashadi. Undagi har bir eshik, har bir deraza, hovlining burchagiga omonatgina solingan hujradagi eski-tuski narsalar, har bir daraxt unga tanish edi. Mana shu oldida unga termilib o'tirgan it ham xuddi uning singari shu hovlida tug'ilgan. Rahim Saidov uni mushuk bolasidek kichkina, hali ko'zini ochmagan vaqtdan beri biladi. Uning onasini ham, otasini ham biladi. Mahallaning yarmida ularning itlari. Olapar, To'rtko'z, Sharik...

Ko'ktoy unga yoqib qolgan edi. Katta savatga solib, sakkizta kuchuk bolani qo'shnilariga tarqatib chiqdi. Shu ko'kimtirini olib qoldi. Shunga ham ancha bo'ldi. Institutda o'qirdi o'shanda. Sut berib bokdi. Oyisi unga atab olib qo'ygan ovqatdan berdi. Mana endi u qaribdi. Ko'zlari yoshlanadigan bo'lib qolibdi. Negadir Munisxon uni yoqtirmasdi. "O'lsin, tasqara", derdi. Ko'ktoy ham uni ko'rishi bilan dumini qisib, hujra yonidagi uyasiga kirib ketardi. Aftidan, urgan bo'lsa kerak. Munisxon o'zi, umuman, hayvonlarni yomon ko'rardi. Mushuk desa kapalagi uchi ketardi.

Ko'chib ketishayotgan kuni, xuddi xunuk bir ish sodir bo'lganini sezgandek, Ko'ktoy juda ko'p g'ingshidi, vovilladi. Rahim Saidov yuklarni har safar mashinaga ortib ketayotganida, muyulishgacha vovillab bordi. Oxirgi marta kelishganda, u yaqin kelmadi.

Olisdan bir-ikki vovillab uyasiga kirib ketganicha, ular qaytayotganda chiqdi va Rahim Saidovning oldiga kelib, tuflisining uchini yaladi.

Munisxon tiqilinch qilmaganda ular ko'chib ketishmasdi. Rahim Saidov o'z uyini yaxshi ko'rar, unda o'zini tinch va betashvish his qilardi. U shuncha yoshga kirib, mustaqil hayot kechirishga qurbi yetadigan bo'lganiga qaramay, onasi uchun baribir bola ekanligini bilardi. Har kuni, ishga ketayotganida ham, ishdan qaytganida ham Hakima opa buni o'zi sezmaganda holda, esiga solib turardi. Lekin Munisxon bilan ular kelishishmadi. Bu kelishmovchilik birdan, to'yning ertasidan boshlandi. Rahim Saidov o'sha kuni nima bo'lganini, kim birinchi kimga yoqmaganligini, kim xato qilib qo'rganini haligacha bilmaydi. Ular esa - na ona, na xotin bunday aniqroq qilib aytib berishmadi.

Hakima opa katta qiyinchiliklar ko'rgan, shuning uchun ham o'z farzandlarini erkalatmasdan, har bir buyum, har bir kiyimning qadriga yetadigan qilib o'stirgan edi. Munisxon buning aksi. U erka, hayotga anchayin yengil qaraydigan, ertaga nima bo'lishi bilan uncha qiziqmaydigan odam edi. Kim biladi, balki shu asosiy sababdir, ularning kelishmaganiga? Har holda, to'yning ertasigayoq Munisxonga shaharning deyarli markazida katta binolar panasida qolib ketgan hovli ham, yangi kelin-kuyovga atab solingan ikki xonalik uy ham yoqmay boshlagan edi. Hakima opa ham uning biron narsasini, garchi ular maqtovgacha arziydigan buyumlar bo'lmasa ham, biron harakati, yo gapini kinoyasiz tilga olmaydigan bo'lib qoldi. Lekin qudalarini yaxshi ko'rar, ular kelsa o'tqizgani joy topolmay qolar edi. Anchagina bosiq, hayotning achchiq-chuchugini totgan tajribali ayol bo'lganidan, buning ustiga o'g'lini yaxshi ko'rganligidan biron marta kelinidan shikoyat qilgani yo'q. Shuning uchunmi, Rahim Saidov aybni ko'proq xotinigacha qo'yardi va ota-onasi oldida uni maqtab gapirolmasdi, uyalardi. Munisxon bo'lsa battar jahli chiqar, ayasi kelganda zorlanib yig'lardi:

- Men begonaman bularga! Rahimjon akam ham meni yakalab qo'yganlar. Yo olib keting, yo uyimizni boshqa qilib bering! Ikki yil o'tgach, hammasini zimdan kuzatib yurgan va o'zicha ezilgan Said aka o'g'lini yoniga chaqirdi. Qaynana-kelin haqida gapirgani yo'q.

- O'g'lim, - dedi. - Alohida turib ko'rmaysizmi? Biz qarib qoldik. Keyin qiynalib qolmanglar.

Rahim Saidov otasini yaxshi tushundi va ich-ichida undan minnatdor bo'ldi.

Hakima opa esa, bir haftagacha u bilan gaplashmadi.

Yangi uyga ko'chib ketgan bo'lsalar ham, Munisxon to'la mustaqillikka erishgan bo'lsa ham, qaynana va kelin munosabati o'zgarmadi. Munisxon har safar qaynanasi kelib-ketganda, yo ularning o'zi eski hovliga borib kelishganda kerosin sepilgan o'tindek, bir necha kun asablari tarang bo'lardi. Shunday paytda arzimagan gap gugurtdak uni pov etib yondirib yuborardi. Rahim

Saidov uni o'chirishdan yangi dissertatsiya yoqlashni oson, deb bilardi.

Mana endi "sovuq urishlar" o'z-o'zidan yo'qoldi. Rahim Saidov shunday o'ylab onasidan ranjidi. Nima qilardi uni xafa qilib? Dunyoda kamdan-kam kelin qaynanaga ma'qul keladi. Munis ham o'shalardan biri edi.

Ko'ktoy bir-ikki vovillab, ko'cha tomon yugurib ketdi. Ko'p o'tmay, eshikda og'ir sumka ko'targan Hakima opa paydo bo'ldi.

- Buncha jilpanglaysan, Ko'ktoy, kim keldi?.. Rahim Saidov o'rnidan turib, onasi qarshisiga yurdi.

- Rahimjon? Voy, bolamdan aylanay!.. - Hakima opa sumkani yerga qo'yib, quchog'ini ochdi. - Qachon kelding? Ko'zlarim to'rt bo'lib o'tiruvdim o'zim. Esonmisan, omonmisan? Kelinposhsha qalay? Kecha birrov borib kelay desam, dadang urishib berdi.

Dadangi fe'lini bilasanku!..

- Borsangiz bo'lar ekan, - dedi Rahim Saidov onasiga tik qaray olmay.

- Ha, yana...

- Yo'q. Munisdan ajrab qoldik...

- Nima bo'ldi? Nima deganing, bolam? Tuzukroq gapir!

- Munis... Munisni kecha o'ldirib ketishibdi...

- Voy sho'rim!.. Voy mening sho'r peshanam! Nega o'ldirishdi? Kimning qasdi bor ekan unda?

- Bilmadim. Hozir ToshMIdan kelayotganim. U... U... O'shatda.

- Voy sho'rim!.. Voy bechora qiz!..

Hakima opa yana nimalardir dedi, yig'ladi, o'g'lini yupatgan bo'ldi.

- Dadam qanilar? - so'radi gap orasida Rahim Saidov.

- Hozir keladilar. Putyovka berishgan ekan kombinatdan. Shunga ketuvdilar. Qatda o'ldirishibdi?

- Chorsuda...

Rahim Saidov bilganlarini gapirib berdi.

- Qudalarga xabar berdingmi?

- Ha. Uchlarga kelishadi.

- Men ham hozir bora qolay bo'lmasam! Avval choy qo'yay sizlarga. Voy bolam, voy bolaginam-ey, shu tashvish ham bormidi senga?!

Hakima opa o'choqboshiga ketdi. U yerdan ham uning nimalardir deyatotgani, dam tinib, dam yig'layotgani bilinib turardi.

Rahim Saidov uning chindan qayg'urayotganini ko'rib, ancha yengil tortdi. Odamlar begonaga yig'lashadi, bu axir kelini-ku? Lekin hozir bu hakda o'ylashga uning na imkoni, na xohishi bor edi. Onasi to'g'ri aytdi, shu tashvish ham bormidi unga? Onasi tashvish deganda uning azoblarini tushundi, unga achindi. Rahim Saidovning o'zi esa hech qanday tashvishni xayoliga keltirgani yo'q.

Qayoqqa qaramasin, ko'zini ochsa ham, yumsa ham oldida Munisxon paydo bo'lardi. Bechora qanday azob chekkan ekan?

Dodlagandir? Uni chaqirgandir? Rahim Saidov unga achinardi. Odam qo'lga igna kirs qanday og'riqni sezadi. Uni esa urishgan, pichoq sanchishgan...

- Munis, azizim...

Rahim Saidovning vujudi titrab, ko'ziga yosh quyildi.

- Rahimjon aka... - uning tirsagini ushladi shofer yigit.

- Ha, ha foydasiz, - rozi bo'ldi u. Choynak ko'tarib, Hakima opa keldi.

- Mana bolam, manavini ichib tur. Rangingda rang qolmabdi... Yer yutkurlar, yer yutkurlar! Kelinimning yosh joni kimga kerak ekan?.. Aylanay, oling, siz ham iching.

Ular endi bir piyoladan achchiq choy ichishgan edi, hassaga tayangan Said aka keldi. Uni ko'rishi bilan Hakima opa dodlab qarshisiga yugurdi.

- Dadasi! Sho'rimiz quribdi! Sho'rimiz quribdi! Munisxondan ajralib qopmiz!

Said akaning qo'lidan hassasi tushib ketdi.

- Nima deyapsan o'zi? Bo'kirmasdan gapir!

- Munisxonni kecha o'ldirib ketishibdi!.. Voy sho'r peshanam! U o'lgandan ko'ra, men o'lsam bo'lmasmidi?!

- Bor, uyga kir! - Jerkib berdi Said aka. - Rahimjon?! Nima bo'ldi?

Rahimjon voqeani yana bir boshidan otasiga aytib berdi. Said aka boshini xam qilib, anchagacha jim o'tirdi. Oxiri o'g'liga o'girildi.

- Qo'qonga xabar berdingmi?

- Ha, hozir ikkidagi reysda kelishadi.

Rahim Saidov soatiga qaradi. Ikkidan chorak o'tibdi.

- Hozir kelib qolishadi.

- Mashina senikimi? -Ha.

- Ketskik bo'lmasa. Uyingda gaplashamiz. Hakima! Ko'zlari shishgan Hakima opa ayvondan tushdi.

- Bo'l, qudalar kelishadi. Boraylik.

- Tayyorman. Putyovkangiz nima bo'ldi? Said aka o'qrayib xotiniga qaradi.

- Dard bo'ldi.

Hakima opa indamadi. U shunday paytda qandaydir putyovkani surishtirib, xato qilganini sezgan edi. Shu bittagina savoldan uning keliniga chin munosabati bilinib qoldi. Rahim Saidov peshanasidan sovuq ter chiqib, og'ir "uh" tortdi. Mana odamning qadri, xayolidan o'tdi uning va bir daqiqa o'zini Munisxonning o'rnida tasavvur qilib ko'rди... U morgda yotibdi... Qaynanasi tepasida achchiq-chuchuk yeb o'tiribdi. Hech kim yig'layotgani yo'q. Onasi shoshib-pishib nimalarnidir qilyapti. Ish orasida "voy bolam"lab qo'yadi. Faqat Said aka g'am-g'ussaga to'la. U o'g'lining oyog'ida hassasiga qo'llarini tirab xomush turibdi. Ikkala ko'zi jiqqa yosh...

Rahim Saidov otasining yig'laganini sira ko'rmagan edi. Umuman, Said akaning ko'p odatlari uning havasini keltirardi. Kamgap, bir so'zli, bekor o'tirsa charchaydi. Pensiyaga chiqqanidan keyin ham kombinatdan o'ziga qandaydir ish topgan edi. U bir marta ham o'g'lini urish u yokda tursin, urishmagan ham. U juda qattiq xafa bo'lganda "sizlashib" gapirardi. Lekin hech kim uning ana shunday muomalasiga dosh berolmas edi. U bir marta o'g'li bilan ham shunday gaplashgan. Ancha bo'ldi unga. O'ninchi sinfga endi o'tgan edi. O'shanda mahallaga bir polkovnik ko'chib keldi. Uning Rahim tengi o'g'li va undan bir yosh kichik qizi bor edi. Oti - Sveta. Juda g'alati qiz edi u. Doim kulib turardi. Rahim ular bilan o'rtoq bo'lib, Svetani yaxshi ko'rib qoldi. Bo'sh qoldi ularnikiga yuguradi. Uydagilarni xavotir oldirib, kech qaytadi. Bu ham mayli, o'qishi yomonlashib ketdi. Birinchi chorakda bir-

ikkita uch baho paydo bo'lib qoldi. Vaholanki, u yaxshi o'qir edi. Maktab direksiyasi uch-to'rtta a'lochilar qatorida uni ham oltin medalga mo'ljallagan edi.

Bir kuni u Svetalarnikidan qaytayotganda, uylaridan direktor chiqib ketayotganini ko'rib qoldi. Darrov o'zini panaga olib, anchagacha uning ketidan qarab turdi. Nega keldi ekan? U taxminan bilardi, lekin ikkita "uch" uchun direktorning o'zi uyga kelishiga ishonmas edi.

O'sha kuni Said aka u bilan gaplashmadi. Rahim kechasi bilan alahsirab chiqdi, yomon uxladi. Ertalab nonushta paytida otasi gap qotdi:

- O'g'lim, katta bo'lib qolibsizmi?

Rahim tushunmadi. Ko'zlarini pirlirpiratib, dam otasiga, dam onasiga qaradi.

- Nima edi?

- Qizlar bilan podruvka qilib yurarmishsiz? Rahim quloqlari qizarib ketganini sezdi.

- Unaqa bo'lsa, uylantirib qo'ya qolaylik. O'qishni tashlang... Nima deysan, Hakima?

Rahimning yeb turgan noni og'zida qoldi, yutulmadi.

- Unaqa demang, dadasi, - kulib javob qildi Hakima opa. - Rahimjon hali yosh. Hali maktabni bitiradi medalga, institut bor.

Undan keyin bir gap bo'lar...

- Shundoqmi? Sizdan so'rayapman? Rahim zo'rg'a boshini qimirlatdi.

- Eshitmadim, bir narsa dedingizmi? Rahim og'zidagi nonini kaftiga tashlab:

- Ha, - dedi.

- Barakalla.

U o'sha kuni uydan qanday chiqib ketganini bilmaydi. Boshi g'uvillab og'rur, yuragi hozirgina krossdan qaytgan odamnikidek gupillab urardi. U bir necha kun otasiga ko'rinmay yurdi. Otasi ishdan kelmasdan o'z xonasiga kirib ketadi, u turmasdan qochadi. Direktorga ham bir necha kun ko'rinish bermay yurdi. Svetalarnikiga ham bormadi. Ammo uni tushlarida ko'rib chiqdi. Shundan bir hafta o'tar-o'tmas, kutilmagan voqea yuz berdi. Rahim maktabdan qaytayotganida Mirobod bozori og'zida Svetaning akasini ko'rib qoldi.

- Ha, ko'rinmay ketding? - so'radi u. Rahim qizarib ketdi.

- Ish ko'p. Ulgurmayapman, - aldadi u boshini ko'tar-may.

- Biz ketyapmiz...

- Qayoqqa? - cho'chib so'radi Rahim.

- Dadamni yangi ishga o'tkazishdi. Olmaotaga ketyapmiz.

- O'qishing... O'qishlaring nima bo'ladi? - nima deyishini bilmay bo'shshib so'radi Rahim.

- O'sha yerda o'qiymiz. U yerda ham maktablar ko'p. Kel, ertaga jo'naymiz.

Rahim uyaldimi, yo xayrlashish og'ir tuyuldimi, kuzatgani bormadi.

Bir oydan so'ng katta konvertga solingan xat oldi. Unga "Rahim Saidovu lichno", deb yozilgan edi. Haytovur pochtaKjon qiz uning qo'liga berdi xatni. Bu xat emas edi. Svetaning katta fotosurati edi. Beligacha olingan bu suratda Sveta maktab formasida edi. Bo'ynida oq atirgulti eslatuvchi bant. To'lqin-to'lqin qilib taralgan sariq sochi quloqlarini berkitib turibdi. Uzunchoq, ori q yuzida yengil tabassum... Ko'm-ko'k ko'zlari o'ychan... Yaqin-yaqingacha suratni u kitobning orasidan bu kitobning orasiga solib yashirib yurdi. Yaqinda yo'qoldi. Kim biladi, Munisxon rashk qilib, unga bildirmay yirtib tashladimi?!

Hamma yoqni yig'i tutib ketdi. Rahim Saidov chidolmay yuqoriga otildi. Eshik oldida terga botgan Hafizga duch keldi.

- Keldingmi? Endi xavotir olib turuvdim. Sulaymon akalar shu yerda! Men ketdim.

- Qayoqqa? - ko'zlarini artib so'radi Rahim Saidov.

- Aeroportga. Qaynatalaringni kutib olish kerak. Bu yerda hammasi joyida.

Rahim Saidov to'lqinlanib ketdi. Shuncha g'amxo'rlari borligini u xayoliga ham keltirmagan edi. Ichkariga kirdi. Uy to'la odam edi.

- Bandalik, Rahimjon, uka, - to'rda o'tirgan Sulaymon aka o'rnidan turdi. - Falokat oyoq ostidan chiqadi, deb shuni aytadilar.

U odamlar oldidan o'tib, qo'lini uzatdi. Boshqalar ham o'rinlaridan qo'zg'alib, unga ta'ziya bildirishdi. Kimdir fohihaga qo'l yozdi.

- Omin! Falokat ikkinchi bu uyga qadam qo'ymasini. Ollohu akbar!

Rahim Saidov qo'llarini yuziga surtayotib, hammaning dasturxon atrofida o'tirganini ko'rdi. Kim tashkil qildi bularni? Qachon?

Uning aqli bovar qilmasdi. Shu top kimdir uning oldiga yarim kosa mastava olib kelib qo'ydi. Rahmat, deb Rahim Saidov kosani surib qo'ygan edi, Sulaymon aka urishib berdi.

- Oling, uka! Bunaqada yotib qolasiz. Bir-ikki qoshiq iching.

Rahim Saidov o'zini majbur qilib, uch-to'rt qoshiq ichdi. Boshqa o'tmadi.

- Otangiz qanilar? - so'radi Sulaymon aka. Rahim Saidov uchun kimdir javob berdi.

- U kishi qo'shni xonadalar. Qariyalar bilan.

- Men so'rashib kelay.

Sulaymon aka o'rnidan turdi. Odamlar unga yo'l berib, joylaridan qo'zg'alishdi.

Oshxonadagi soat uchga bong urdi. "Hozir kelishadi", - xayolidan o'tkazdi Rahim Saidov. Lekin qaynatasi bilan uchrashuv ertalabkidek uni tashvishga solmadi. Xotining o'limidan og'ir nima bo'lishi mumkin?.. Munis... Munis... Nima qilib qo'yding?..

Bitta emas, mingta uzuk desang ham olib berardim!.. Aytganingni qilardim! Rahim Saidov xotining uzun stol ustida hozir yolg'iz yotganini esladiyu, badani muzdek bo'lib ketdi. Necha oylab, yillab tortgan azoblari, hamma janjallar, beandisha gaplar, hammasi xayolidan ko'tarildi. Ko'z oldida Munisxonning kulib turgan ko'zlari, qulog'i ostida jarangdor sho'x kulgisi qoldi, xolos!

- Qadrimga yetmaysiz, - derdi u ba'zan ham hazil, ham chin qilib. - Bir kun o'lib qolsam, o'shanda ko'rasiz. Biram pushaymon yeysizki...

- Nafasingizni issiq qiling! - jahli chiqardi Ra-him Saidovning va beixtiyor o'shanday, xotini o'lib yolg'iz qolgan kunini tasavvur qilardi, lekin tasavvuridagi yolg'izlik negadir yoqardi... Tinch, hech qanday tashvish, janjal yo'q. Ertalab ishga boradi, kechqurun qaytadi. U kino, teatrni yoqtirmasdi. Ba'zida televizor qo'yib, detektiv kinolarni ko'rib o'tirardi. Baribir zerikmaydi, ishi bilan kechalari ham band bo'ladi.

Albatta o'sha paytlari bularni u faqat tasavvur qilgan edi, chindan ham shunday bo'lib qolishi uning xayoliga ham kelmagan edi.

Chunki, hech mahal xotining o'limini tilamas, aksincha, ba'zan o'ziga o'lim tilagan paytlari bo'lardi. Xayol hayot emas ekan.

Hozirgi uning boshiga tushgan yolg'izlik hech kimning boshiga tushmasin...

Bir kuni Munisxon ko'lga olib boring, deb turib oldi. Dam olish kuni edi. Kuzning o'rtalari. Havo issiq ham emas, sovuq ham. Juda sayr qiladigan havo. Ertalabdan beri qog'ozlari ustida bosh qotirgan Rahim Saidov "yo'q" demadi. O'zining ham borgisi kelib qoldi. Ancha aylanishdi ko'lni. Kafega kirib, morojenoe yeyishdi. Shampanskoe ichishdi. Munisxonning ba'zi-ba'zida o'tkir ichimliklarni ko'ngli tusab qoldi. Shuning uchun ham uylarida doim g'alati markali, chiroyli idishlardagi ichimliklar bo'lardi. Rahim Saidov endi ketamiz deb turganida, Munisxon:

- Bir qayiqda aylantiring, jon Rahimjon aka!.. - deb yelkasiga yopishdi. - Anavilarni qarang, nimamiz kam?

Rahim Saidov ko'l ichida suzib yurgan qayiqlarni ko'rdi. Lekin hech qanday xohish sezmad. Buning ustiga, u hech mahal qo'lga eshkak ushlagan edi. Suzishni ham bilmasdi. Yigitligi qo'zib ketdimi, yo Munisxonni xafa qilgisi kelmadimi:

- Bo'пти, yuring! - dedi.

Ular bir soatcha qayiqda suzishdi. Munisxonning boshi osmonda edi. Yosh boladek eshkaklardan suv sachraganda, o'zini tutolmay qiyqirar, "Tuzuksiz-ku, endi har otdix kelamiz!" - deganicha kulib eriga qarardi. Rahim Saidovning esa qo'rquvdan rangi quv o'chib ketgan, kulishga ham majoli yo'q edi...

Uyga kelishganda:

- Bilasizmi, Munis... men suzishni bilmayman, - dedi kresloga o'zini tashlab.

- Qo'ying-e... - kuldi xotini, keyin tutaqib ket-di: - Ag'darilsak nima bo'lardi?

- Qo'rqmang, bir amallab sizni qirg'oqqa olib chiqib qo'yardim. O'zim...

- Yo'q, nima bo'lsa ham avval men bilan bo'ladi. - Munisxon qat'iy ohangda gapirdi. - Sizdan keyin qanday yashayman? Brr-r-r!..

- Bitta-yarimta mo'ylovdor topilar, - gapni hazilga burdi Rahim Saidov.

Munisxon bir vaqt gap orasida "mo'ylov qo'ysangiz bo'lmaydimi?" degan edi. Uning esa bir kun soqol olmasa, g'ashi kelardi, xuddi bir yil hammomga tushmagan odamdek his qilardi o'zini.

- Siz-chi, - dedi qoshlarini chimirib Munisxon. - Men o'lsam shunday ko'mib kelib, bittasini olib kirib olarsiz uyga. Nima ko'p, institutingizda qiz ko'p... Bitta - yarimtasini ko'z ostingizga olib qo'ygandirsiz ham? Nima qilsangiz qilavering, mayli. Bilaman, yolg'iz qolmaysiz, uylanasiz... Faqat, baraka topkur, bu karavotni sotib, boshqa oling. Bo'lmasa, go'rimdan turib kelib, sochingizni bittalab yulaman!.. Rozimisiz?! Xo'p deng!

Munisxon otilib kelib, o'zini erining quchog'iga tashladi...

- Sizni chaqirishyapti... - dedi kimdir Rahim Saidovning yelkasiga qo'lini qo'yib.

U cho'chib o'rnidan turdi.

- Kim? Qaerda?!

- Dadangiz bilan Sulaymon aka. Rahim Saidov tashqariga chiqdi.

- Bu yokda...

Rahim Saidov qo'shnisining uyiga kirdi. Bu yerda ham odam tiqilinch edi. Bir xonada qariyalar orasida otasi va Sulaymon aka o'tirishardi.

- Ertalab chiqariladigan bo'ldi, - dedi Said aka o'g'li kirishi bilan. - Nima deysan?

- Nima desanglar, shu.

- O'zimizning Minordagi maqbaramizga qo'yadigan bo'ldik. Bobolaring shu yerda, - davom etdi salmoqlanib Said aka. - Munisxon ham farzandimiz edi. Qolaversa, hammamizning boradigan joyimiz shu yer.

Uning yonida o'tirgan mo'ysafidlar boshlarini egib tasdiqlashdi.

- Qudalarga tushuntiramiz. Keyin, shu issiqda olib ketish ham qiyin. Azoblanadi.

Rahim Saidov "to'g'ri" degandek, boshini qimirlatdi. Pastdan yig'i ovozi ko'tarildi.

- Bolajonim Munisim!.. Qayga ketding, yolg'izim!.. Rahim Saidov tanidi. Bu qaynanasi edi. Uning ovoziga onasining yig'isi qo'shildi. Yana hamma yoqni qiy-chuv, yig'i tovushlari tutib ketdi. Rahim Saidov otasiga qaradi.

- Qudalar kelishdi... - dedi Said aka. - Kutib olaylik!..

Hamma "gur" etib o'rnidan turdi.

Uchrashuv Rahim Saidov o'ylaganidek ko'ngilsiz bo'lmadi. Uyga birinchi bo'lib Ubaydulla aka ko'tarildi. U Said aka va pod'ezdda turgan boshqa mo'ysafidlar bilan ko'rishib bo'lgach, kuyovini bag'riga bosdi.

- Qizimizdan ajralib qolibmiz-da, o'g'lim?.. Uning ovozi titrardi.

- Ayb menda. Uydan chiqarimasligim kerak edi...

- Unday demang, o'g'lim. Qaerdan bilibsiz... Peshanamizga yozilgani shu ekan... Qizim, qizim bechora... Xuddi uxlayotgandek yotibdi...

Ubaydulla aka piq-piq yig'lab yubordi.

- Bordingizmi?

- O'sha yokdan kelyapmiz. Ayangizga qiyin bo'ldi. Sho'rlikning bittayu bitta tilab olgan bolasi shu edi...

Aya ko'tarildi. Beliga qiyiqcha bog'lagan. Qovoqlari shishib ketgan. Qudasini ko'rib, yig'idan to'xtadi.

- Saidxon aka... bu qanday ko'rgilik-a?.. Endi men nima qildim? Men o'lsam, endi kim yig'laydi onam deb?..

- Ko'rgilik, quda, ko'rgilik... Boshimizda bor ekan... Said aka u bilan ko'rishib ichkariga o'tqazdi.

- Salom alaykum, aya.. Rahim Saidov unga yaqinlashdi.

- Voy bolam, Munisxon nima qilib ketdi o'zi? Hammamizni qon yig'latib ketdi-ku, a?! O'sha qonxo'rlar meni o'ldirib ketisha qolsa bo'lmas ekanmi? Bolam, bolajonim!

U kuyovini quchoqlab o'kirib-o'kirib yig'ladi. Hakima opa uni zo'rlab qo'ltig'idan olib ichkari xonaga yetakladi.

- Sen ul-bul yeb oldingmi, - dedi kimdir ayollar ketishgach.

Rahim Saidov yonida Hafizini ko'rdi.

- Ha, qornim to'q...

U shunday dedi-yu, birdan ko'zlari tinib ketdi, muvozanatini yo'qotib, "gurs" etib yo'lakka yiqildi. Bu shu qadar tez yuz berdiki, Hafiz ham, uning yonida turgan odamlar ham yiqilganidagina ko'rib qolishdi.

Anchadan so'ng u o'ziga kelib, ko'zlarini ochganida, o'z yotoqxonasida yotardi. Tepasida qandaydir basharalar... U tanidi: otasi, Hafiz, Ubaydulla aka... yana qandaydir ayollar...

- Hechqisi yo'q, o'g'lim... - dedi Said aka. - Dadil bo'l...

5

Sanobar ertalab erining shimini cho'tkalayotib, qo'li qattiq bir narsaga tegib ketdi. Gugurtga o'xshaydi. Lekin eri gugurt tutmasdi. Zajigalka tutardi. Zajigalkasi esa doim ko'krak cho'ntagida bo'ladi. Hozir uyda, tokchada turibdi. Boya ko'rdi. Nima bo'ldiykin? Uning cho'ntak kovlash odati yo'q edi. Shunday bo'lsa ham cho'ntakka qo'l soldi. Kichkina, gugurt qutichasidek quticha. Ochdi. Ichida katta yoqut ko'zli yangi uzuk. Yangiligi shunday ko'zidan bilinib turibdi, kir emas.

Ko'rdi-yu, sevinib ketdi. Nahotki unga bo'lsa? Barmog'iga solib ko'rdi. Zo'rg'a sig'di uzuk. Hechqisi yo'q, kengaytirib olish mumkin. Uzuk qo'lga yarashdi. Unda ZAGSdan o'tayotganlarida erining o'zi taqib qo'ygan ko'zsiz tilla uzuqdan boshqa hech narsa yo'q edi. Bitta zirak. Bir ko'zli kichkinagina zirak. Uni ham otasi qizligida olib bergan. Eri taqinchoqlarni yomon ko'rardi. Dur, tilla, yoqut... shularni eshitsu ensasi qotardi. Nima bo'ldiykin unga? Yo birov olib berdimikan? Albatta, biron kishi olib bergan, magazin desa quti uchadi-yu, o'zi olarmidi? Sanobar yana qo'lga qaradi, oftobga soldi. Baland so'ri orasidan tushib turgan tonggi quyosh nurlarida uzukning ko'zi qip-qizil anor donasidek yaltirardi...

Birdan xayoliga boshqa narsa keldi. Nega kechqurun bermadi? Yo "syurpriz" qilgisi keldimi?

U oyoq uchida yotoqxonaga kirib, eriga qaradi. Eri boshini qo'llariga qo'yib, shiftga termilib yotardi.

- Sobir aka, uyg'ondizmi? -Ha.

Sobir Aliev boshini ko'tardi.

- Qarang!..

Sanobar o'ng qo'lining panjalarini yozib eriga ko'rsatdi. Sobir Aliev birpas hech narsa tushunmay unga qarab turdi, keyin birdan do'q urdi:

- Yech, darrov!

Starshiy leytenant Ro'ziev Chorsuda turadiganlar va ishga ko'pincha tramvayda qatnaydiganlar bilan gaplashdi. Ularning bittasi ham Munis Saidovani tanishini, hatto uni ko'rganini aytib berolmadi. Tramvay haydovchi Shayxuddinova bilan birinchi bo'lib o'likni ko'rgan temiryo'lchi amaki ham masalaga ravshanlik kiritolmadi.

- Hech unga ko'zim tushmagan, - dedi u. - Azonda ishga ketaman. To'rtlarda qaytaman. Qaytayotganimda ham tramvay xuddi ertalabgidek bo'sh bo'ladi. Atigi besh-oltita odam. Agar shu paytlari u tramvayda bo'lganda ko'zim tushardi. Yo'q, ko'rmaganman...

To'qimachilar kombinatida ishlaydigan Vera Ivanovna Sokolova ham xuddi shunday dedi:

- Chorsuda tramvayga chiqadiganlarni yaxshi bilaman. Hammasi chaqarlik, samarqand darvozaliklar.. Ular ham meni tanishadi. Shu yerda tug'ilganman. Lekin bu ayolni sira uchratmaganman. Na tramvayda, na ko'cha-ko'ya. Tag'in kim biladi? Chorsu gavjum joy. Keyin, yoshlar ko'p. Hammaga e'tibor berib bo'larmidi?

Yoqut ko'zli uzukni tekshirish ham hech qanday natija bermadi. Kapitan Aliev shunga katta umid bog'lagan edi. O'zi shaxsan Samarqandga borib keldi. O'zuk shu shahardagi yuvilertorg magazinidan xarid qilingan edi. Sotuvchi kim olganini aytib berolmadi. Lekin qachon sotilganini daftaridan qarab bilib berdi. O'n to'rtinchi avgustda sotilgan. Yanabir narsa. Ayol kishi olgani yo'q. Buni u aniq biladi. O'zi oltita shunday uzuk kelgan. Beshtasi Samarqandning o'zida, kimlarda ekaninin ham biladi. Yashirishning hojati yo'q - tanishlari. Uzuk juda chiroyli bo'lganidan ularga o'zi xabar berdi. Albatta, bu uning aybi, lekin hammasini o'z narxiga sotgan. Tekshirib ko'rish mumkin. Oltinchi uzukni u prilavkaga qo'ygan edi, hech kim so'ramadi. Tomosha qilishdi-yu, olishmadi. Tanishlari ham olmadi. Sotilgan kuni magazinga xrustalKj vaza kelgan edi. Bilasiz, hozir bu juda noyob narsa. Odam yopirilib ketdi. Shuning uchun kim sotib olganini eslolmaydi.

Sotuvchi yana nimalarnidir gapirib, kechirim so'radi. Kapitan eshitmadi. Tarvuzi qo'ltig'idan tushib, so'nggi samolyotda Toshkentga qaytdi. Rahim Saidov 12B B"15 avgust kunlari Oltiarikda bo'lgan, institutning tajriba uchastkasida. 15 da kechqurun qaytib kelgan. Kim olgan uzukni? Yo Oltiarikdan Samarqandga o'tganmikin? Yo'q, yo'l teskari. Mabodo o'tgan bo'lsa, institutdagilar bilishadi. Har holda so'rash kerak.

Kapitan Aliev kecha Samarqandga jo'nayotib, uni chaqirishni leytenant Sulonovga topshirdi. Besh kun bo'ldi xotining ko'milganiga. Ancha o'ziga kelib qolgandir?

Sultonov uning Qo'qondaligini, qaynatasi bilan xotining yettisi bilan so'ng Qo'qonda tashkil etilgan ma'rakada qatnashayotganini, kechqurun qaytishini aytdi.

- Juda yaxshi, - dedi kapitan. - Ertalabga chaqiring. Qorovul xotinni ham.

Sultonov chestKj berdi.

Kapitan Aliev negadir Rahim Saidovning qotil bo'lib chiqishini istamasdi. Ko'ngli bo'sh, mo'min odamga o'xshaydi. Ta'riflaridan ham yaxshi odamligi sezilib turibdi. Lekin hayotda nimalar bo'lmaydi. Tuppa-tuzuk odamlar o'z xotinlarini juda puxta o'ylab o'ldirganlariga misollar yo'q emas. Obro'li bir vrach shunday qilgan. Bunga ancha bo'ldi. Kapitan ko'rgan emas, delosini o'qigan. Yangi yil kechasi ichib o'tirib, zahar bergan. Qizig'i shundaki, ertasiga o'zi militsiyaga borib aytib bergan. Rahim Saidov bunday odamga o'xshamaydi. Keyin, nima uchun o'ldirishi kerak? Yomon turishgan. Unda ajralishi mumkin edi.

Leytenant Sulonov kirdi.

- Rahim Saidov shu yerda.

- Qorovul xotinchisi?

- Ro'parasida o'tiribdi.

- Demak, ko'rdi?

- Yeb qo'ygudek bo'lib tikilib o'tiribdi.

- Chaqiring. Qorovul xotin kirdi.

- Keling, opa. Yana ovora qildik-da, sizni?

- Ovorasi bor ekanmi, uka. Zarur bo'lgandan keyin chaqirasizlar-da.

Qorovul xotin kresloga o'tirdi.

- Ho'sh, yangilik bormi?

- Yo'q, aylanay. Hech kimni ko'rganim yo'q. Ko'rsam, tanir edim.

- Hozir oldingizda o'tirgan yigit-chi?

- O'xshaydi. Lekin u emas.

- Nega?

- Negaligini bilmayman. O'xshamaydi. Buni hech ko'rgan emasman biz tomonda.

19 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Yaxshilab qaradingizmi?
- Voy, ukam. O'sha kundan beri durbin bo'lib ketdim. Bu emas. Tepamda Xudo turibdi, aylanay. Yolg'on gapirib bir bechorani tashvishga qo'yaymi? Bu o'zi kim? Siz chaqirdingizmi?
- Ha. O'sha o'ldirilgan juvonning eri.
- Voy sho'ring qurg'ur-e!.. Voy tuppa-tuzuk eri bor ekan-a.
- Ha, unga qiyin bo'ldi. - Kapitan, gap tamom degandek, o'rnidan turdi. - Xo'p opa, xayr bo'lmasam...
- Nega chaqiruvdingiz, ukam? - Qorovul ayol hayron bo'lib unga tikildi.
- Yangilik bormi, deb chaqiruvdim-da, - kapitan jilmaydi.
- Yangilik bo'lsa o'zim yugurib kelaman. Ko'rsam taniyman, aylanay. Ko'rdim deguncha oldingizga yuguraman.
- Bo'pti bo'lmasam, kelishdik...

Qorovul xotin chiqib ketdi. "Tanimadi, - xayolidan o'tkazdi kapitan. - Yo chindan ham bu emas. Ishqilib shunday bo'lsin".
U stol ostidagi knopkani bosdi. SekretarKj qiz kirdi.

- Rahim Saidovni chaqiring.

Kabinetga bir necha kundayok o'zini oldirib, chakkalari turtib chiqqan Rahim Saidov kirdi.

- Salom, o'rtoq Saidov!

Kapitan chaqqonlik bilan uning oldiga borib so'rashdi va kresloga o'tqazdi.

- Bilaman, sizga og'ir bo'ldi. Katta kulfat tushdi boshingizga... Chin yurakdan sizga chuqur ta'ziya bildiraman.

- Rahmat, - dedi Rahim Saidov eshitilar-eshitilmas.

U bugun ham deyarli mijja qoqmay chiqqan edi. Kechqurun samolyotdan tushib to'g'ri uyiga bordi. Singlisi achchiq mastava qilgan ekan, yarim kosa ichdi. Keyin o'ringa cho'zildi. Anchagacha uyqusi kelmadi. U yoniga-bu yoniga ag'darilib yotdi. Ko'zi ilinganda uzuq-yuluq tushlar ko'rdi. Qandaydir odamlar uni quvlashdi, urishdi, yechintirishdi... Xotini yana paydo bo'ldi. Bu gal u kulmadi. Odatda u qahqaha otib kulardi, uni qayoqqadir imlardi. Bu gal kulmadi ham, imlamadi ham. Boshida o'tirdi. Katta lolazor emish. Qip-qizil gilamdek lolazor. Sharqirab oqayotgan ariq labida Rahim Saidov cho'zilib yotgan emish. Boshida Munisxon o'tirib, ohista-ohista uning sochlarini silarmish...

- Judayam sog'indim. Bu gal uzoq qolib ketdingiz... - dermish u.

Rahim Saidov qancha o'ylamasin, qaerda uzoq qolib ketganini eslolmasmish. So'ray desa, tili gapga kelmasmish... Yana nimalardir ko'rdi, u ilib ololmadi. Faqat ertalabga yaqin bir oz tinch uxladi.

Qo'qondan u kayfi buzilib qaytdi. Kunduzi mahallaga osh berilayotganda qandaydir ahmoq, mast bo'lsa kerak, Ubaydulla akani quchoqlab yig'ladi:

- Munisni bekor Toshkentga uzatdingiz, domla! Menga berganingizda hozir oldingizda bo'lardi, besh-oltita churvaqalar bilan. Manavi hezalak... uni xor qilgan!..

Rahim Saidovning g'azabi qaynab ketdi. Borib basharasiga musht solmoqchi bo'lganida odamlar sudrab olib ketishdi.

- Ko'nglingizga olmang, o'g'lim, - yupatdi Ubaydulla aka. - Bu yaramas bir vaqtlar Munis bilan o'qigan. Sovchi ham yuborgan edi... Hafa bo'lmang.

Rahim Saidov o'zini bosib oldi, lekin baribir dilidagi g'ashlik uyga qaytganida ham tarqamadi.

Hozir ham u militsiya kapitanining xonasida o'tirar ekan, negadir kechagi voqeani esladi. Kim biladi, balki Munis shunday mastlarning qo'lida qurbon bo'lgandir?

- Nima uchun chaqirganimizni, albatta, bilarsiz... - dedi kapitan joyiga o'tirib. - Xotiningiz... Munis Sai-dovanning qotili hali topilgani yo'q...

U shunday deb, yer ostidan Rahim Saidovga qarab qo'ydi.

- Tushunaman, - dedi Rahim Saidov boshini quyi solib.

- Bizni juda ko'p narsalar qiziqtiradi, - davom etdi kapitan. - Yordamingizga muhtojmiz. Og'ir bo'lsa ham, bezovta qilishga majbur bo'ldik... Chorsuga xotiningiz nega borgan? Bilmaysizmi?

- Yo'q, o'zim ham hayronman.

- Balki u tomonda qarindoshlar yoki tanish-bilishlar bordir?

- Yo'q. Shaxsan mening u tomonda hech kimim yo'q.

- Xotiningizning-chi?

- Uning ham qarindoshlari yo'q u tomonda, umuman Toshkentda. U qo'qonlik.

- Bilaman. Balki, tanishlari bordir? Siz xotiningizning hamma tanishlarini bilasizmi?

Rahim Saidov o'ylanib qoldi. Bilarmidi? Munisxonning o'rtoqlari ko'p edi. Ilgari, hali turmush qurmaslaridan uchrashuvlariga u har doim yangi o'rtoq boshlab kelardi. Rahim Saidovning istagi faqat Munisxonning o'zi bilan birga bo'lish edi, shunday bo'lsa ham noiloj indolmasdi. Munisxon uni ranjitmasdi. Kino yo teatrda borib kelishgandan so'ng o'rtog'ini yotoqqa kiritib yuborib, o'zi qolardi.

Bu o'rtoqlarining ko'pi hozir har yoqqa tarqab ketgan. U Faridani biladi. Zubayda degan qiz bor. Do'stlik jamiyatida tarjimon.

Ishxonasidagilar. O'zining ham, xotining ham. Lekin bularning hammasi ikkalovining ham tanishi edi. Boshqa tanishlari bormidi uning? Albatta, bo'lsa kerak... Lekin ular kimlar?

- Yo'q, bilmaganlarim ham bo'lishi kerak...

- O'sha kuni u nima qilmoqchi edi? Bilmaysizmi? Odatda ertalab er-xotin qandaydir rejalar haqida gaplashib olishadi...

- O'sha kunimi?.. O'sha kuni... biz janjallashib qoldik. Arzimagan narsadan chiqdi janjal. Men ishga ketdim keyin. U uyda qoldi...

- Iltimos, to'laroq gapirsangiz...

- Buning nima ahamiyati bor?

- Hozir bir narsa deyish qiyin. Iltimos, to'laroq gapiring, nimadan janjal chiqdi...

- Nima desam bo'ladi?..

Rahim Saidov o'ylanib qoldi. U hech kimga, ayniqsa, rasmiy kishilarga oilaning ikir-chikirlaridan gapirmasdi. Shunday odamlarni yomon ko'rardi. Uning uchun er-xotinning urishi haqida gapirish qandaydir juda uyatli ko'rinardi. U hatto Hafizga ham anchagacha uyidagi to'polonlarni gapirolmay yurdi. Lekin odam qachonlardir yo'lini topib yuragini bo'shatishi kerak. Bir kuni Hafiz bilan qaerdadir ichishdi, Olimlar shaharchasida bo'lsa kerak. Rahim Saidovning kayfiyati juda buzuq edi. O'shanda yorildi. Ertasiga esa eslab, bir necha kun o'zidan nafratlanib yurdi.

Kapitan uni majbur qilyapti... Nima qilishi mumkin... Aytishi kerak. Shunday bo'lsa ham u ancha o'ng'aysizlandi.

- Ertalab uning qo'lida yangi uzuk ko'rib qoldim. Katta qizil ko'zli uzuk. Tabrikladim. Bu jez uzuk, dedi. Rostakamidan olib bering, dedi. Yo'q, bunday demadi. Agar darrov shunday deganida janjal bo'lmasdi. Qandaydir gaplarni aytdi. Gina qildi. Hech narsa sizdan ko'rganim yo'q, dedi. Men ham biror narsa degan bo'lsam kerak, uzukni yechib, otib yubordi. Xullas, aytishib qoldik... Keyin men ishga ketdim. Ishxonadan bir-ikki marta telefon qilmoqchi bo'ldim, lekin... lekin la'nati g'urur yo'l qo'ymadi. Men o'zimni aybdor hisoblolmadim. Bunday qimmatbaho sovg'alarga qurbim yetmasa, menda nima gunoh? Lekin ko'rishingiz mumkin. Yomon yashamaymiz. Hamma narsamiz bor. Munis ham yomon kiyinmasdi. Har holda, nima desa shuni qilishga harakat qilardim. O'sha kuni ishning oxiriga borib, yarashishga, unga o'shanaqa uzuk va'da qilishga qaror qildim. Shuning uchun uyga borishdan oldin, O'rdadagi tilla magaziniga kirdim. Bitta uzukni ko'rdim. Ancha qimmat ekan. Ikki yuz qanchayam. Buncha pulim yo'q edi. Lekin uyga quruq borgim kelmadi. Bir o'rtoq'imga telefon qildim. Hafiz. Birga maktabda o'qiganmiz. Birga ishlaymiz. Uni puli bor ekan. Lekin magazinga ulgura olmadim. Sotuvchi bola ertalabgacha olib qo'yishni va'da qildi. Keyin uyga bordim. Ha... Yo'lda gastronomga kirib tort oldim. Munis "Paxta" tortini yaxshi ko'rardi. Uyg'a borsam, yo'q. Kechasi bilan qidirib chiqdim.

- Qaerlarga bordingiz?

- Qaerga?.. Skverga bordim, butun EngelKjs ko'chasini kezib chiqdim. Xadicha Sulaymonova ko'chasini aylandim.

- Nega qo'shnilaringizdan so'ramadingiz? Yo militsiyaga xabar bermadingiz?

- Militsiya... Militsiya esimga kelmabdi. Qo'shnilardan so'ragani... rostini aytsam, uyaldim. Biz ko'p janjallashib turardik. Ayniqsa, keyingi paytlarda...

- Taxminan, qanchadan beri?

- Bir yilcha... ha, bir yilchadan beri. Rahim Saidov birdan o'rmidan turib ketdi.

- O'rtoq kapitan! Mendan shubhalanyapsiz shekilli? Nahotki men!.. Nahotki!..

- O'zingizni tuting! - uni bo'ldi xotirjamlik bilan kapitan. - Tinchlaning, o'rtoq Saidov. Hech narsa deymayman. Bizda sizdan shubhalanishga asos yo'q. Lekin mening o'rmimda bo'lganingizda nima qilar edingiz?

- Tushunaman... - dedi Rahim Saidov va og'ir xo'rsinib joyiga o'tirdi.

- Biz hammasini bilishimiz kerak. O'sha kuni xotiningiz bir yarimlarda institutdan ketgan. Keyin qaerda bo'lganligi bizga noma'lum. Manavi uzukni tanijapsizmi?

Kapitan stol tortmasidan nikoh uzukni olib ko'rsatdi.

- Yo'q, lekin shunday uzugi bor edi. ZAGSdan o'tayotganimizda olib bergan edim.

- Manavi soatchi?

- Buni tanidim. Men sovg'a qilganman. Tug'ilgan kuni. To'g'rirog'i, men pul berganman, o'zi olgan.

- Manavi ziraklarchi?

Kapitan brilliant ko'zli ziraklarni uning oldiga qo'ydi. Rahim Saidov ziraklarga ancha tikildi. Ammo tanij olmadi. Bunday ziraklarni xotinida sira ko'rmagan edi.

- Kimning ziraklari?

- Xotiningizniki, - dedi kapitan. - Manavi uzuk ham.

U yoqut ko'zli uzukni qutichasi bilan uning oldiga qo'ydi.

- Bu uzukni tanidim. Bu o'sha, janjalga sabab bo'lgan uzuk! Jezdan.

- Jezdan? - hayron bo'ldi kapitan.

- Ha, jezdan. Xotinim shunday degan edi.

- Bahosini bilasizmi?

- Bahosini ham aytuvdi... Hah!.. Esimdan ko'tarilib-di. Esladim! Besh so'm necha tiyin ham!

Kapitan jilmaydi.

- Bilasizmi, bu uzukning bahosi qancha?

- Aytdim-ku!

- Yo'q, bilmas ekansiz, uch yuz qirq olti so'm.

- Nima?! - endi Rahim Saidov hayron bo'ldi. - Uch yuz...

- Ha, uch yuz qirq olti so'm.

- Nahotki xotinim adashgan bo'lsa?!

- Xotiningiz adashmagan. Kim jez uzukni haqiqiy tilla uzukka almashtirib beradi? Keyin jezni tilladan ajratish qiyin emas.

- Demak... xotinim...

- Xotiningiz... noto'g'ri gapirgan, - kapitan "alda-gan" demoqchi edi, aytmadi.

- Nega axir? - Rahim Saidovning ko'zlari piriardi. - Nima zarurati bor edi?

- Manavi ziraklar esa to'rt yuzdan oshiq turadi.

- Tushunmay qoldim. Muncha pulni u qaerdan oldi ekan?

- Demak, siz ilgari bularni ko'rmagansiz?

- Yo'q, uning ziragi bor edi. Bunaqa emas. Yarim oyga o'xshagan tilla sim. Oyim sovg'a qilgan edilar to'yda. Boshqa ziragi yo'q edi.

- Ota-onasichi? Bilishimcha, xotiningiz yolg'iz farzand edi...

- Ha, shunaqa. Lekin... yo'q, ular bunaqa sovg'a qilisholmaydi. Ayniqsa, hozir. Otasi pensiyaga chiqqan. To'xtang!.. Balki o'rtoqlaridan birortasinikidir? Vaqtincha taqib turishga olgandir?

- Biron kishi surishtirdimi? - so'radi o'z navbatida kapitan.

- Yo'q, - bo'shshib javob qildi Rahim Saidov.

- Bizga ham hech kim murojaat qilgani yo'q. Shunday qimmatbaho narsalarni berib turadigan odamlar, agar o'rtoqlari bo'lsa, uning qanday vafot etganini eshitishardi. To'g'ri emasmi?

Rahim Saidov "ha", deb boshini egdi. U g'alati ahvolga tushib qolgan edi. Xotining shuncha siri bor ekan, u bilmabdi, hatto gumon ham qilmabdi.

- O'rtoq kapitan, nahotki?..

- Buni men sizdan so'rashim kerak, - uni tushundi kapitan. - Xotiningizning harakatlarida hech narsa sezganmidingiz?

Yo'q, hech narsa sezmagani edi u. Endi fahmlayapti. Har hafta yangi ko'ylak, antiqa tuffilalar... Munisxon eriga ko'rsatardi ularni. Soatlab oyna oldida o'zini ko'z-ko'z qilardi. Shunda ham fahmlamabdi u.

- Ish ko'p. Ikki-uch yildan beri yangi preparat ustida bosh qotiryapmiz. Ertalab ketaman, kechqurun kelaman. Hech narsa sezmasdim...

Sezmaganmidi?.. U xayolga cho'mdi. Fikrini bir joyga to'plab, eslay boshladi. Xotini yangi narsa ko'rsatgan har bir kunni eslashga urindi, ko'z oldiga keltirdi.

Nahotki?! U bir kunni esladi. Erta kuz edi. Negadir ishdan erta qaytdi. Munisxon yo'q. O'zi oshxonaga o'tib qozonni ochdi. Yog' yuqi suv ichida qozon sochiq ivib yotardi. Choy qaynatib ichdi. Televizor qo'ydi. "So'nggi axborot" berilayotgan ekan, ko'rdi. Qorong'i tusha boshladi. Xotinidan darak yo'q. Diqqat bo'lib, sigaret tutatdi. Ko'cha tomonga qaragan deraza fertoCHKasini ochgan edi, unga tegib turgan terak shoxidan bir-ikkita barg uzilib, qog'oz qushdek pirpirab pastga tusha boshladi. Rahim Saidov barglar yerga tushguncha qarab turdi. Shu payt uy oldiga bir "Pobeda" kelib to'xtadi. Undan Munisxon tushdi. Qo'lida paket. Shoferning basharasi ko'rinmadi. Munisxon mashinaning oldingi oynasiga boshini suqib birpas turdi. Rahim Saidov sezdi, kulyapti, keyin yugurganicha uy tomon ketdi. Mashina o'sha zahoti joyidan qo'zg'aldi.

Munisxon uyga ko'tarilganda ikki yuzi qizarib ketgandi, hansirardi.

- Rahimjon aka, kechiring, magazinga boruvdim, ushlanib qoldim.

- Hechqisi yo'q, - dedi Rahim Saidov o'zini bosib.

- Ul-bul yedingizmi? Ovqat ham qilolmadim. Hozir go'sht qovurib beraman.

- Choy ichdim. Keragi yo'q. O'zingiz agar istamasangiz...

- Qornim to'q. O'shatda kabob yedim. Kutaverib ko'nglim ozib ketdi. Rahimjon aka! - Munisxon erining bo'ynidan quchoqladi. -

Nima olding ham demaysiz? Xotiningizning qayoqlarda yurgani bilan ishingiz yo'g'a!

- Nega, endi xavotir ola boshlovdim, - dedi Rahim Saidov xotini yengil itarib, xotini soxtalik qilayotganini u bilardi. - Nima oldingiz?

- Vuy, ajoyib narsa! Anchadan beri shuni orzu qilib yurardim.

- Nima ekan?

- Angliyskiy kofta. Qarang!

Rahim Saidov ensasi qotib, xotining qo'lga qaradi.

- Egnimga qarang, egnimga!

Munisxon olib kelgan narsasini kiyib ulgurgan edi. Oddiy, qora kofta. Balki chindan ham ajoyib narsadir. Rahim Saidov farqiga bormadi. Lekin xotini xafa qilmaslik uchun maqtadi.

- Yaxshi ekan. Sizga yarashdi.

- Vuy! Judayam! Anatoliy Nazarovich ham shunday deyapti.

- Anatoliy Nazarovich?! - hayron bo'ldi Rahim Saidov.

- Magazinchi-da, - tushuntirdi Munisxon. - Biram yaxshi odam. Ustiga atigi besh so'm oldi.

- Nega?

- Voy, judayam soddasiz-da! Shunaqa narsani ochiq olib bo'ladimi! Hammasi prilavkaning tagida. Anatoliy Nazarovich bilan bir o'rtog'im tanishtirib qo'ydi. Anavi fransuzskiy, keng poshnalik tufligimchi, o'shaniam u olib berdi.

- Mashinada olib kelgan kim? - O'zini tutolmay so'radi Rahim Saidov.

- Voy, ko'rib turuvdingizmi? Anatoliy Nazarovichda. Vaxlik olib berolmadi. Skladga tushish kerak ekan. Poylab turdim. "Uyim o'sha yokda, tashlab ketaman", dedi. Voy, rashk qilyapsizmi? - Munisxon kuldi. - O'sha beso'naqayga-ya! Boshimga uramanmi?!

Burni katta, hamma yog'i yung. Oti ham g'alati. Anatoliy Nazarovich! G'irt qishloqi odam-ku, Anatoliy Nazarovichmish. O'la qolsin!.. Ko'nglingiz to'ldimi?

Rahim Saidov boshini qimirlatdi. Munisxon "cho'lp" etib uning yuzidan o'pdi.

- Biram charchab ketdim! Vannada issiq suv bordir-a, cho'milib chiqay...

Yarim soatdan so'ng u yupqa neylon ko'ylakda nozik, pushti rang badanini ko'z-ko'z qilib, vannadan chiqdi. Rahim Saidovdagi g'ubor shu zahoti yo'qoldi...

Shuni aytish kerakmi kapitanga?! Bo'lar ish bo'ldi, endi yashirib nima qiladi?

- Uning bir tanishi bor edi. Shaxtyorlar uyidagi magazinda. Tayyor kiyimlar magazini. Sotuvchi bo'lsa kerak. Ba'zan kam topiladigan narsalarni o'shandan olib kelardi. Oti Anatoliy Nazarovich.

- Ko'rganmisiz?

- Yo'q, ko'rmaganman, - dedi Rahim Saidov va nimadir yuragini timdalab o'tdi. ВЪ”Yo'q, bo'lishi mumkin emas! Xotininimning aytishicha, juda beso'naqay odam. Hamma yog'i jun. Burni katta.

- Biz ayollarni yaxshi bilmaymiz, - ohista e'tiroz bildirdi kapitan. - Ishqilib, aytganingiz kelsin. Anatoliy Nazarovich, deysizmi?

- Ha, "Pobeda" mashinasi bor. Bir kuni xotinimni... uni olib kelib qo'yganini ko'rganman.

Rahim Saidov kapitan ko'rsatgan xonaga chiqdi. Leytenant Sultonov unga qog'oz, ruchka tutqazdi.

- Hammasini yozaymi? - so'radi Rahim Saidov uyalinqirab.

- Nimani lozim topsangiz, shuni yozing... - dedi leytenant.

Rahim Saidov qo'lga o'z avtoruchkasini oldi. Nimadan boshlash kerak? U o'ylanib qoldi. U hech mahal bunday noqulay ahvolga tushib qolishini xayoliga keltirmagan edi. Fojia, motam, aldanish... Nahotki Munisxon, sevikli xotini uni yosh boladek o'ynatib kelgan, o'zining undan bo'lak, faqat o'zi biladigan o'zga hayoti bo'lgan? Nahotki, uning hamma kulib boqishlari, ishdan kelganida yugurib borib quchog'iga otishlari, hamma iliq, faqat sevimli odamga aytiladigan gaplari bo'hton, ko'zbo'yamachilik bo'lsa?!

Rahim Saidovning xo'rliqi kelib ketdi, oldidagi oppoq qog'ozga "tak" etib yosh tomchiladi.

- Mazangiz yo'qqa o'xshaydi, choy olib kelaymi? - so'radi leytenant.

Rahim Saidov o'zini tinchitib olish uchun zo'rg'a boshini liqillatib "mayli", dedi.

Leytenant choy olib kelganida, orqasidan sekretarKj qiz kirdi.

- Sizni Sobir akam chaqiryaptilar, o'rtoq leytenant.

- Hozir. Oling, achchiq-achchiq ichib oling.

- Rahmat, - dedi Rahim Saidov uning qo'lidan piyolani olar ekan.

Leytenant chiqib ketdi. Rahim Saidov choydan bir-ikki ho'plab, oldidagi oq qog'ozga tikildi...

Kapitanning xonasida starshiy leytenant Ro'ziev o'tirardi.

- Eshitaman, o'rtoq kapitan! - Sultonov chestKj berdi.

- Yozib oling, Anvarjon. Shaxtyorlar uyi. Tayyor kiyimlar magazini. Anatoliy Nazarovich. Kim u, nima ish qiladi, qacda turadi, xullas, bizga tegishli hamma narsani aniqlash kerak.

- Xo'p bo'ladi.

Leytenant Sultonov chiqib ketdi.

- Davom eting, - kapitan Ro'zievga o'girildi.

- Suv sotuvchi kampir uni tanidi, - dedi Ro'ziev.

- Bu yaxshi, xo'sh?

- Uning aytishicha, Munis Saidova juda ko'p marta Chorsuda bo'lgan, shunday budkaning oldidan Samarqand darvoza tomonga o'tib ketar ekan. Ba'zan suv ichar ekan.

Kampirga ishonish mumkin. Doim unga havasim kelardi, deydi. Kelishgan, yaxshi kiyinadigan ayol edi, deydi.

- Yolg'iz o'tar ekanmi do'konning oldidan?

- Buni aytib berolmadi. Gavjum joy, deydi. Ko'rmaganman, deydi. Nazarimda, o'rtoq kapitan, u ko'rgan, lekin cho'chiyapti aytishga.

- Odam qo'yamiz yoningizga, sizga hech narsa qilmaydi, demadingizmi?

- Aytdim. Serjant Qoraboev o'sha yerda.

- Yaxshi qilibsiz.

- Oxirgi marta uni kechqurun sakkizlarda ko'ribdi. Negadir bu gal u juda shoshib o'tib ketibdi. Kampir endi budka berkitmoqchi bo'lib turgan ekan. Bu gal u yolg'iz edi, dedi. Shundan ushlab oldim. Demak, ilgari bировlar bilan ko'rgan ekansiz-da, dedim.

Indamadi. Ko'rsatadi. Qoraboev aqlli yigit, uni ko'ndiradi.

- Yaxshi. Gazeta parchasini aniqladingizmi?

- Ha, o'rtoq kapitan. - Ro'ziev oldida turgan papkani ochib, karton qog'ozga ehtiyotlik bilan yopishtirilgan gazeta parchasini oldi.

Munis Saidovanning sumkasidan chiqqan uzuk qutichasi shu gazetaga o'ralgan edi. - Bu parcha "Toshkent oqshomi" gazetasining birinchi beti, o'ng tomondagi tepa burchagi. Qaysi kuniligini ham aniqladim. 20 avgust, shu yil. Undagi qalamda yozilgan raqamlar esa pochtaKjonniki bo'lishi kerak. Buni ham ekspertlar aniqlab berishdi. Mana, chiziq bor, manavinisi olti ekan. Demak, uy nomeri 16/44. Bunga ishonish mumkin. PochtaKjonlarning hammasi gazeta, jurnallarga uylarning nomerlarini yozib qo'yishadi. Lekin qaysi pochtaKjon buni yozgan, obunachi kim, qaysi ko'chada turadi, aniqlab bo'lmadi. Buning uchun hamma pochtaKjonlarni aylanib chiqish kerak, hamma pochtaKjonlarning yozuvini ko'rish kerak. Bu qiyin. Bir-ikkita so'z yozilgan bo'lganda ham mayli edi...

- Ha, bu og'ir... - rozi bo'ldi kapitan. SekretarKj qiz kirdi.

- O'rtoq starshiy leytenant! Sizni serjant Qoraboev so'rayapti. Radiodan.

- Menga ulang! - dedi kapitan. - Tez! SekretarKj qiz shoshib chiqib ketdi.

- O'rtoq starshiy leytenant! - radio rubkadan Qoraboevning ovozi eshitildi.

- Kapitan Alievman. Gapiravering.

- Chorsudagi operativ bo'limdan gapiryapman. Suv do'konidagi kampir tanidi. Bu o'rta yashar kishi. Suratini oldim... "Moskvich" mashinada do'kon oldida to'xtab, bir yashik pivo oldi, keyin mashinasida bozorga kirib ketdi. Mashinaning nomeri TNB 50-50.

O'rtoq kapitan, buyrug'ingizni kutaman!

- Sotuvchi nima deydi? - so'radi kapitan.

- Sotuvchi mashina to'xtaganda, menga imlab ko'rsatdi. "Shu", dedi. Boshqa hech narsa degani yo'q. Qo'rqqanidan yuragi chiqib o'tiribdi. Hozir ko'ryapman, do'konini bekityapti.

- Siz nimadasiz?

- Mototsiklim bor.

- Taksi yoki shaxsiy mashinalardan birortasini to'xtatib, "Moskvich"ni kuzating. Plyonkani zudlik bilan menga jo'nating.

- Tushunaman, o'rtoq kapitan!

- Bo'пти. Aloqa tamom! Kapitan radiatorubkani o'chirdi.

- Uning tanishlari hammasi mashinalik to'kislarga o'xshaydi. Bittasida "Pobeda", bittasida "Moskvich". Bechora Rahim Saidov... Hali "Volga"ligi ham chiqib qolmasa?..

- Uning o'ynashlari bo'lgan deb o'ylaysizmi? - so'radi Ro'ziev.

- Qosimjon!.. - kapitan yordamchisini uyaltirdi. - Boshqa so'z topolmadingizmi?

- Rosti-da, Sobir aka.

- Aftidan, shundayga o'xshaydi. Lekin nega o'ldirish kerak bo'lib qoldi? Kim o'ldirdi? Mana masala qacda. - Kapitan sigaret tutatib o'ygatoldi. - Ba'zan odamlarga tushunmayman besh qo'llarini og'izlariga tiqishadi. Shu xotinga nima yetishmayotuvdi? Taqinchoqlarmi? Ularsiz ham yashash mumkin. Aminmanki, uch-to'rt yildan keyin puli ko'pligidan nima qilishini bilmay qolardi. Erini ko'rdingizmi? Kelishgan, aqlli odam. Kelajagi porloq odam. Xotin kishiga yana nima kerak? Aqlning chegarasi bor, ahmoqlik esa cheksiz, deb bekorga aytishmagan ekan.

- Balki undan foydalanishmoqchi bo'lishgandir? - taxmin qildi Ro'ziev.

- Nima uchun? Nima maqsadda?

Ro'ziev yelkalarini qisdi. Hali ko'p narsa ikkaloviga tunde qorong'i edi.

- Yana bir narsani biz bilmaymiz...

- Nimani? - so'radi Ro'ziev.

- Chorsuga kelguncha u qacda bo'lgan? Radiorubkaning ko'k chirog'i yondi.

- Eshitaman?

- O'rtoq kapitan! - Bu Qoraboev edi. - "Moskvich" bozordan chiqib, Samarqand darvozaga kirib boryapti.

- Yaxshi. Kuzating. Iloji boricha u sizni ko'rmasin.

- U to'xtadi! Hozir men yonidan o'tib ketib, qaytaman.

- Kimning mashinasidasiz! Uni ogohlantirganmisiz?

- Ha. Jamoatchi avtoinspektor. Plyonkani jo'natdim. Orqadan ko'ryapman. U ko'k darvozaga kirib ketdi... Hozir qaytyapman...

Yaqinlashdim. Uy nomeri o'n olti-yu, qirq to'rt, o'rtoq kapitan.

Kapitan yalt etib Ro'zievga qaradi.

- Endi nima qilay, o'rtoq kapitan?

- Qayting. Postingizni egallang.

- Eshitaman, o'rtoq kapitan.

- Kalavanning uchi topildi! - Kapitan o'rnidan turib ketdi. - Ish endi boshlanadi. Nima qilish kerakligini bilasizmi?

- Ha. - Ro'ziev ham o'rnidan turdi.

- Boring.

6

Rahim Saidov xiyobonda bitta-bitta yurib borardi. Bu yerda hali tong hovri ko'tarilmagan, salqin. Qizil qum sepilgan yumshoq yo'lkalari, asfalt trotuar tunda sepilgan suvdan ola-bula bo'lib turibdi. Qalin barglar orasidan tanga-tanga tushib turgan nurlar hali ularni quritishga o'z. Quyosh endi bu yerga boshini ko'tarib qarayapti. Odam kam. "Do'stlik" kafesining orqasida esa deyarli hech kim yo'q. Kafening usti ochiq zali bo'm-bo'sh. Rahim Saidov uchun bu ayni muddao edi. U hozir hech kimni ko'rgisi, hech kim bilan gaplashgisi kelmas edi. Hozirgina militsiya idorasida u yozib chiqqan "insho", u yerda ko'rgan narsalari, eshitgan gaplari hayotini ag'dar-to'ntar qilib yuborgan edi. Nahotki rost bo'lsa? Kimga almashtirdi uni Munis? Qachon? Balki buning hammasi taxmindir? Unda qaysi ahmoq bekordan-bekorga shunday sovg'alar qiladi?

U arg'uvon tagidagi stol yoniga o'tirdi. Ofitsiant qiz keldi.

- Nima istaysiz?

- Mumkin bo'lsa konKjyak. Ha, yuz gramm konKjyak...

- Bizda konKjyak bo'lmaydi. Shampanskoe bor.

- Mayli, bir bokal keltiring. Muzdagidan.

- Bokallab sotmaymiz. Shishasi bilan sotamiz...

- Shishasi bilan olib keling. O'zingiz sherik bo'lasiz.

- Men ish paytida ichmayman.

- Darvoqe, ish payti-ya!

Rahim Saidov soatiga qaradi. O'n birdan yigirmata o'tibdi. Undan boshqa hamma ishda hozir. Institutdagilarning hammasi. U ham ishda bo'lishi kerak edi. Zotan, uning keragi yo'q hozir. Hamma hisoblar qilingan, preparat tayyor. Hafizning navbati hozir. Lekin ishga borsa, yomon bo'lmaydi. Mayli, biron soat shu yerda bo'ladi, nafasini rostlaydi, keyin boradi...

- Xo'sh, nima olib kelay? - so'radi ofitsiantka.

- Shampanskoe...

- Shishasi bilan-a?

- Olib kelavering.

- Tavba! Basharasidan tuppa-tuzukka o'xshaydi... Rahim Saidov beixtiyor jilmaydi. "Ha, - O'yladi ichida u, - basharadan hech bilib bo'lmaydi. Qani endi shunday bir apparat o'ylab chiqarilsa-yu, shunday knopkasini bosish bilan istagan odamingni dilidagini bilsang!.. Fiziklarga aytib qo'yish kerak. Bu yaxshi fikr..."

U shu apparatni ko'z oldiga keltirdi ham. Kichkina bo'ladi u, gugurt qutichasidek. Soat cho'ntakda ham olib yursa bo'ladi.

Sochning tolasidek quloqqa taqiladi. Yupqa membrana ro'parasidagi kishining yurak urishiga monand harakatga keladi. Knopka bosildimi bas, marhamat qilib eshitaver!

Rahim Saidov shu top fizik bo'lmaganiga achindi. Bo'lmasa, albatta shunday apparat ijod qilardi. Eh-ha, qanday sirlar ayon bo'lmasdi deng o'shanda. Munisning ham sirlari ma'lum bo'lardi. Qachondan beri alday boshladi ekan u? Eski uydalıklaridami, yo bu yoqqa ko'chib kelishganidan keyinmi? Anatoliy Nazarovichning otini qachon eshitdi?

O'tgan yili kuzda. Yilga yaqinlashib qolibdi. Shumikan yo boshqa?..

Rahim Saidov yana o'ylanib ketib, ofitsiantka uzun fujer bilan og'zi ochilgan shampanskoe shishasini olib kelganini ko'rmadi. Qiz shishani to'q etib marmar stolga qo'ydi-da, bloknotini ochdi.

- Sizdan to'rt so'm ellik tiyin!

- Xo'p, - dedi Rahim Saidov.

- Marhamat qilib hozir to'lasangiz.

- Qochib ketadi deb o'ylaysizmi?

- Yo'q, gaplashish qiyin bo'lsa kerak, deb o'ylayman.

- Aytganingiz bo'lsin.

Qiz Rahim Saidovning negadir kulgisini keltirardi. Sababini bilolmadi. Balki, kalta, orqasiga sichqonning dumidek ingichka o'rib tashlangan sochidagi beso'naqay qizil lentadir, balki muomalasidir? Buning unga ahamiyati yo'q edi, nimadir uning chehrasini ochgan edi.

U cho'ntagidan besh so'mlik pul chiqarib uzatdi.

- Maydasi kerak emas.

- Kechirasiz, bizning kafeda yoshlar brigadasi ishlaydi.

- Yoshlarga pul kerak emasmi?

- Bunaqa pul kerak emas. Marhamat, oling.

- Bo'lmasa bitta shartim bor.

- Yana qanaqa shart? - qiz qoshlarini chimirdi.

- Men bilan urishtirasiz.

- Grajdanim! Boya aytdim-ku, ishdaman, deb.

- Bilaman, bugun mening... tug'ilgan kunim. Bir ho'plam bo'lsa ham ichasiz...

- Unda mayli. Men hozir fujer olib kelay.

U tezda qaytdi va Rahim Saidovning ro'parasiga o'tirdi. Rahim Saidov ikkala fujerni to'latdi. Uchqunlar sachratib oppoq ko'pik fujerlar chetidan osha boshladi.

- Nima uchun ichamiz? - so'radi Rahim Saidov.

- Aytardingiz-ku, tug'ilgan kunim, deb. Siz uchun. - Qiz fujerni qo'liga oldi. - Baxtli bo'ling. Ular urishtirishi. Fujerlarning jarangi Rahim Saidovning diliga chiroq yoqqandek bo'ldi. U fujerni oxirigacha, bir tomchi qo'ymay bo'shatdi. Qiz yaxshi niyat qilgan edi. Shunday bo'larmikin?
- Kayfingiz yo'q ko'rinadi? - so'radi qiz.
- Ha, kechasi kam uxladim.
- Sezilib turibdi. Kamroq ichish kerak. Yaxshisi, ichmaslik kerak. Samug' akamga doim shunday deyman.
- U kishi kim?
- O'rtog'im, - qiz uyalib yerga qaradi.
- Juda yoshsiz-ku?
- Bir yil bo'ldi turmush qurganimizga. Armiyadan qaytdilar-ku, to'y qildik. Shofer. Taksi haydaydi.
- Yaxshi kasbi bor ekan.
- Kasbi yaxshi-yu, o'rtoqlari yomon.
- Nega?
- Ichirishadi. Ilgari ichmasdilar. Endi ichib keladigan bo'lib qoldilar.
- Ha, ichmaslik kerak.
- Siz ham ichmang, - qiz unga mehr bilan tikildi. - Shuncha shampanskoeni ichib nima qilasiz?
- Ichmaymi?
- Ichmang.
- Bo'пти. Negadir boya ichgim kelib ketdi. Endi yo'q.
- Boya sizni ko'rib qo'rqib ketdim.
- Nega?
- Mastga o'xshadingiz. Rahim Saidov jilmaydi.
- Mast emasman. Ishim yurishmay qoldi.
- Xafa bo'lmang, yurishib ketadi.
- Rahmat, singlim. Xo'p, men ketdim.
- Ichmaysizmi?
- Yo'q, ichmayman. Yaxshisi, ichmaslik kerak, shundaymi? Qiz boshini qimirlatdi.
- Kelib turing!..

Rahim Saidov xiyobondan chiqib, katta ko'chaga o'tdi. "Yaxshi qiz ekan. Nimasidir Munisga o'xshaydi. Nimasi? Munis, Munis!.." U nima deyishini bilmadi. Militsiya idorasidan chiqqanidan beri u xotiniga achinmasdi ham, undan nafratlanmasdi ham. Lekin ko'z oldidan kapitan ko'rsatgan buyumlar ketmasdi, qulog'i ostida uning gaplari jaranglardi...

"Xotiningizning hamma tanishlarini bilarmidingiz? Hech kimdan gumoningiz yo'qmi? Nahotki hech narsa sezmagansiz?.."

Qanday uyat! Qanday dahshat!.. Hech kimga aytib ham bo'lmaydi buni! Balki bular hammasi taxmindir? Militsiya masalani har tomonlama tekshiradi. Yaxshimi, yomonmi ajratib o'tirmaydi. Ular hamma narsani taxmin qilishga, hammadan gumon qilishga majbur. Bu ham shunday bo'lsachi? Kapitanning savollaridan uning o'zidan ham gumon qilishayotgani ma'lum bo'lib qoldiku? Rahim Saidov o'z xotining qotili. Tavba, aql bovar qilmaydi. Shunday ekan, Munisni ham har narsada gumon qilishlari mumkin. Lekin, taqinchoqlar kimniki?

Munisni ko'mib kelishgan kuni hamma tanish-bilishlar anchagacha o'tirishdi. Hech kim hech narsa so'ragani yo'q. Uyalishdimikin? Shunday qimmatbaho narsalarni so'rashga kim uyalardi?

Rahim Saidov surishtirishga qaror qildi. Buning nimasi yomon? Balki izi chiqib qolar? Ishxonadan ko'ra, uyda turib surishtirgani ma'qul.

U uyiga qarab yo'l oldi. Muhabbat singlisi hozir u bilan turardi. Balki u bilar? Onasiga qaraganda uning xotini bilan aloqasi yaxshi edi. Munis ham uni yaxshi ko'rardi. Ba'zi narsalarni unga hadya qilgan edi. Muhabbatning gavdasi unikidek kelishgan, taxminan u bilan baravar. Ko'cha-ko'yda ikkalovini ko'rgan odam opa-singil derdi.

Rahim Saidov o'zi eshikni ochib, uyga kirdi. Muhabbat oshxonada dars tayyorlab o'tirardi. Akasini ko'rib yugurib oldiga keldi.

- Tinchlikmi?

- Tinchlik, odatdagi savol-javoblar.

Rahim Saidov singlisini ko'r-di-yu, fikridan qaytdi. Qanday so'raydi? Agar u hech narsani bilmasa, uyalib qolishi mumkin. Begona odam bilan gaplashish yengilroq.

- Ha, o'qishga bormadingmi?

- Hozir ketaman. Bugun birinchi para yo'q. O'zingiz nega qaytdingiz, aka?

- Menmi?.. Portfelim qolib ketibdi. Keyin, ba'zi qog'ozlarni olishim kerak.

- Choy ichasizmi?

- Yo'q, sen ketaver. Muhabbat kiyinib chiqdi.

- Kechqurun nima ovqat qilay?

- Ixtiyoring.

- Osh qilaman.

- Mayli.

Rahim Saidov kabinetiga o'tdi. U tezroq singlisining ketishini istardi. Ko'p o'tmay, eshik yopilib, qulfning shirq etgani eshitildi. U shoshib, oshxonaga chiqdi. Avval Faridaga telefon qiladi. Sirdoshroq o'rtog'i shu edi. U telefon kitobining so'nggi betiga Munis shosha-pisha yozgan nomerlarni qidira boshladi. "Far", degan yozuvga ko'zi tushdi. Shu bo'lsa kerak. U telefonni buray boshladi.

- Inturistmi? Menga Farida kerak edilar. Farida? Salom, bu menman, Rahimjonman. Yaxshimisiz?

- Eshitaman, Rahimjon aka? Tinchlikmi?

- Tinchlik. Oldingizda odam bormi? - so'radi Rahim Saidov keyin "Baribir emasmi?" deb ko'ydi ichida.

- Yo'q, nima edi?

- Io'q, yo'q, hech nima. Farida, Munis sizdan hech narsa olganmidi?

- Tushunmadim, qanaqa narsa?

- Masalan, zirak, uzuk...

- Yo'-o'-q. Nega so'rayapsiz, Rahimjon aka? Biron narsa yo'qolibdimi uyda?
- Aksincha, paydo bo'lib qolibdi?
- Nima?
- Masalan, uzuk. Katta, qizil yoqut ko'zli uzuk. Keyin brilliant zirak.
- Voy, Rahimjon aka! Nima deyapsiz o'zingiz! Zirak Munisning o'ziniki-ku? Kichkina, binafsha gulga o'xsha-ganmi?
- Ha.
- Bu o'ziniki. Esingizdan chiqdimi, o'zingiz olib ber-gansiz-ku?
- Men?! - hayron bo'ldi Rahim Saidov.
- Ha. 8 Martga olib bergansiz. To'rt yuz qirq olti so'mmi, shunaqa turadi. Nahotki esingizda yo'q? O'sha kuniyoq menga ko'rsatdi. Qaerdan olganingizni ham aytdi.
- Qaerdan olibman? - bo'shshib so'radi Rahim Saidov.
- O'rdadan. O'rdadagi tilla magazindan. Biram havasim kelgan edi. Borsam, qolmabdi.
- Uzuk-chi? - bo'g'ilib so'radi Rahim Saidov.
- Eshitmadim, nima?
- Uzukni so'rayapman?
- Buni bilmadim. Shunaqa uzuk bor ekanmi? Yana bir ayting, qanaqa dedingiz?
- Katta, qizil ko'zli tilla uzuk...
- Yo'q, buni ko'rmaganman...
- Kechirasiz... - Rahim Saidov undan, "Bilmaysizmi, kimniki bo'lishi mumkin", deb so'ramoqchi edi, aynidi... O'zi so'ragani ma'qul. - Demak, u sizdan hech narsa olmagan?
- Yo'q, Rahimjon aka.
- Rahmat. - U trubkani qo'ydi.

Endi kimga telefon qilsin ekan? Yaqinroq o'rtoqlaridan yana kim bor? Zubayda. "Do'stlik" jamiyatidagi o'rtog'i. Birga o'qishgan. Ammo bu ayol bilan Rahim Saidov kam uchrashgan edi. Zubayda u yo'g'ida bir-ikki uyga kelgan ekan. Ular asosan ko'chada uchrashar edilar. Munis shunday derdi.

Rahim Saidov jamiyatning telefonini topdi. Telefon qilsinmi? Tavakkal!

- Allo! "Do'stlik" jamiyatimi?
- Ha, - javob qildi erkak ovozi.
- Zubayda bormilar?
- Kim so'rayapti?
- Bir tanishi.
- Kechirasiz, bu kishining tanishlari juda ko'p. Telefon esa bitta, mening oldimda. Nima ishingiz bor, ayting, aytib qo'yaman.
- O'zlari kerak edilar, iltimos!..

Trubkadan xo'rsinish eshitildi, keyin nimadir taqil-ladi.

- Zubayda! Yana telefonga!

Ko'p o'tmay, trubkadan qo'ng'iroq ovoz eshitildi:

- Eshitaman?
- Zubayda? Sizmisiz?
- Men!
- Sizni Rahim Saidov bezovta qilyapti.
- Kim? Kim?
- Rahim Saidov. Munisxonning eri.
- E, salom, Rahim aka! Eshitaman.
- Sizdan bir narsani so'ramokchi edim... Munis... Mu-nixon sizdan hech narsa olmaganmide?
- Nima edi? - xavotirlanib so'radi Zubayda.
- O'zim, shunday. Uyda ba'zi narsalar chiqdi. Kimni-kiligini bilolmayapman.
- Eslolmayapman, Rahimjon aka... Nima bo'lishi mumkin? Voy! Agar jurnallar bo'lsa, hech kimga ko'rsatmang! Munis bir-ikki kunga deb olgan edi... Annaqa jurnallarda, bilasiz-ku... Iltimos, hech kimga ko'rsatmang. Mendan zo'r lab olib ketgan edi.
- Yo'q, jurnallar emas...

- Nima bo'lmasam? - Hayron bo'ldi Zubayda.

- Uzuk.
- Uzuk?
- Yo'q, mening ikkita uzugim bor, ikkalovi ham qo'lim-da. Qanaqa uzuk ekan?
- Qizil ko'zli uzuk, tilla uzuk. Men siznikimi, deb o'ylagan edim.
- Yo'q. Surishtirib ko'raymi? Xadichada shunaqa uzuk bor edi.
- U kishi kim?

ВЪ”Tanimaysizmi? Inostranniyda ingliz fakulKjtetining dekani. Birga o'qiganmiz.

- Mayli. Poylab turaymi?

- Hozir so'rab beraman.

Zubayda trubkani qo'ydi. Rahim Saidov o'ylanib qoldi. Xadichani u hech ko'rmagan edi, Munis ham u hakda hech gapirmagan. Tag'in kim biladi, xayolidan ko'tarilgandir?

U stulga o'tirib, sigareta tutatdi. Yaxshi. Aftidan, ular hech narsa sezishmadi. Farida ham, Zubayda ham. Sezishsa nima edi? Balki ular bilishar Munisning tanishlarini? So'rasinmi? Yo'q, yo'q, bu uyat, keyin o'taketgan pastkashlik! Qanday so'raydi, qanday tili boradi? Balki ular birga bo'lishgandir? Ular ham shunday...

Rahim Saidov bu dahshatli fikrlarni miyasidan quvishga harakat qilib, qo'llarini beixtiyor siltadi. Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas. Ularning aloqasi yo'q. Munis o'zi yolg'iz... Bo'lmasa, uchala er ham g'irt ahmoq bo'ladi, hozir esa bitta u... Balki u ham aldama-gandir? Hammasi, hammasi faraz... Uning esiga bir o'qituvchisi keldi. Harbiydan dars berardi maktabda. Baland bo'yli, barvasta odam. Urushda bo'lgan. Uning xotini ham dars berardi. Boshlang'ich sinflarda. Oynisa opa. Juda sho'x, hazilkash ayol.

Rahim Saidov uni yaxshi ko'rardi. Bir kunda bir necha marta salom berardi. Uni ko'rish uchun, kulganini tomosha qilish uchun. Eri negadir doim g'amgin yurardi, og'zidan papirosi tushmasdi... Lekin hech kimni urishmasdi. Bir kuni u kelmadi. Dars bo'lmadi. - Men bilaman nega kelmaganini, - dedi kimdir. - U Oynisa opani tutvopti ilmiy mudir bilan. Bolalar kulib yuborishdi. Ertasiga Rahim Saidov uning xotini bilan qo'l ushlab ketayotganini ko'rdi. Yana avvalgidek darsiga kela boshladi. Ammo Rahim Saidov ikkalovini ham xush ko'rmay qoldi. Oynisa opaning sho'xligidan endi u jirkandigan bo'ldi. Nahotki u ham o'sha o'qituvchisi holiga tushib qoldi? Hamma bilgan, hamma ko'rgan, lekin hech kim unga aytmagan, undan jirkangan?..

Telefon jiringladi.

- Men Zubayda. Rahim aka, Xadicha bilan gaplashdim. Yo'q, uniki emas.

- Kechirasiz, ovora qildim sizni...

- Ovorasi bor ekanmi?.. - Zubayda o'ylanib qoldi. - Kimniki bo'lishi mumkin? Balki o'zinikidir?

Rahim Saidov "unda bilardim" demoqchi edi, o'zini tutdi.

- Balki... Balki o'zinikidir. Xo'p, kechirasiz.

- Men yana surishtirib ko'raman, - va'da qildi Zubayda.

Yana kimga telefon qilish mumkin? Munisning atelKjeda, sartaroshxonada tanishlari bor. Ulardan olmagandir? Olgan bo'lsa ular yugurib kelishardi. Kim qoldi? Rahim Saidov bir-bir eslab chiqdi. Yo'q, boshqa hech kimdan olishi mumkin emas. Ba'zi o'rtoqlarini bilardi. Lekin ular haqida Munis hech tayinli gap aytmagan, demak, yaxshi emas. La'nati uzuk! Nahotki odam shunday yashay olmasa? U jiddiyoq xulosa chiqarishga urinib ko'radi. Biroq fikrlari shunday xulosalar atrofidan nariga ketmasdi. Birdan miyasiga yangi fikr kelib qoldi. Shoshilib yotoqxonaga o'tdi. Bu yerda hamma narsa Munisxon tirikligidagidek qolgan, faqat toshoyna tagidagi atir-upalar o'rmi bo'sh edi.

Rahim Saidov shosha-pisha shkafni ochdi. Kiyimlar, bir-biriga yopishgan kiyimlar qator osig'liq turibdi. Ko'pi Munisxonniki. Oq, sariq, shohi, sherstKj ko'ylaklar... Ularning ba'zilarini Rahim Saidov ko'rgan, ba'zilarini ko'rmagan. SherstKj koftalar, kostyumlar... Ana, qora ingliz kostyum ham osig'liq turibdi. Uning yonida palkJtolar, bir emas, uchta palkJto. Polkalarda latta-puttalar, ular nima, Rahim Saidov bilmaydi ham. Lekin hamma yokdan xotining hidi anqib turibdi. U kiyimlarni titkilar ekan, har bir ko'ylak ichidan Munisxon unga tikilib, "nima qilyapsiz?" degandek bo'lardi.

Qaralmagan pastdagi tortmalar qoldi. Rahim Saidov engashdi. Birinchi tortmada noski, paypoqlar turardi. Ikkinchi tortmada qandaydir materiallarning qiyqimlari. Oxirgisini ochganida, uch rus bahodiri rasmi solingan qutichaga ko'zi tushdi. Qutini tanidi. Hafizning xotini sovg'a qilgandi qaysi bir bayramda. Olib qopqog'ini ko'tardi. Qutida bir siqim dur yotardi, yana allaqanday tugmachalar, barg nusxa klipsi... Durlarni u ko'rgan.

- Qarang, xuddi rostakam durga o'xshaydi, - degan edi uni olib kelganda Munisxon. - Rostakami, bilasizmi, qancha turadi? Besh yuz, olti yuz so'm. Bir ipi. Buning ikki ipi to'rt so'm. Doktor bo'lganingizda olib berasiz. Mabo-do, Yaponiyaga borib qolsangiz, o'sha yoqdan olib kelasiz. U yokda arzon emish.

Rahim Saidov va'da qildi va Yaponiyaga borib, olayotganda adashmaslik uchun yaxshilab xotining bo'ynidagi ikki qator osilib turgan shu durlarga qaradi.

Yoki bu ham... Uning yuragi orqasiga tortib ketdi. Durlarni changallab, cho'ntagiga soldi-da, ko'chaga otildi.

O'rdadagi tilla magaziniga u besh minutda yetib keldi. Prilavka yonida o'sha tanish sotuvchi yigit turardi. U Rahim Saidovning hovliqib kirganini ko'rdi-da, boshini chayqadi:

- Attang, aka, kecha sotib yubordim. Sizni ko'p kutdim. Yaxshi uzuk edi...

- Men... men boshqa narsaga keldim...

- Labbay?

- Manavi... manavi... - Rahim Saidov cho'ntagidan durni chiqarib unga uzatdi. - Rostakammi, bilib bering!..

Yigit durga tikildi.

- Yaxshi durga o'xshaydi. Olyapsizmi, yo sotmoqchimisiz?..

- Ol... olyapman, - dedi Rahim Saidov.

- Qancha so'rashyapti? - yigit durdan ko'z uzolmay qoldi.

- To'rt yuz... Yo'q, besh yuz so'm... bir ipi.

- Besh yuz so'm? Yaxshi dur. Ziyon qilmaysiz. Tag'in surishtiraylik-chi? Rahmatillaka!

Ichkaridan ko'k duxoba do'ppi kiygan mo'ysafid bir odam chiqdi.

- Manavi qalay? - yigit unga durni uzatdi.

- Yaxshi dur. Qancha ekan?

- Besh yuz.

- Arziydi. Yaxshi dur. Kimniki?

- Manavi akamlarniki. Aka!

- Ha, - dedi zo'rg'a Rahim Saidov.

- Olavering. Buyursin. Bu juda kam topiladigan narsa.

- Ha, ha, - dedi Rahim Saidov va tizzalari qaltirab ko'chaga chiqdi. Endi unga hamma narsa ayon edi. U aldangan! Munis, suyukli xotini uni aldagan. Qanday dahshat! Benomus, uyatsiz xotin!..

U bitta-bitta yurib piyoda uyga keldi. Bufetni ochib, bosib ikki ryumka konKjyak ichdi. Badani qizib, peshanasidan ter chiqdi. Bufet yonida turgan stulga o'zini tashladi-da, boshini qo'llari orasiga oldi. Butun vujudi titrardi.

Shu alfozda ancha o'tirdi. Keyin sekin boshini ko'tardi. Nima qilish kerak? Militsiyaga borsinmi? Ko'rsatsinmi? Nahotki o'zi aniqlay olmasa? Unda nima qilib erkak bo'lib yuribdi? Har holda bir narsa qilish kerak edi. Shu fikr unga dalda bo'ldi shekilli, o'rnidan turdi.

Avvalo u o'zini qo'lga olishi kerak, tinchlanishi kerak. Uning o'rnida boshqa odam bo'lganda, allaqachon qog'oz, qalam olib, nima qilish kerakligini yozib chiqarardi va harakatga tushardi.

- O'g'lingiz qanday qilib o'qiydi, bilmayman. Hech bir yerda qo'nim topib, dars qilganini ko'rmayman.

Yoshligida oyisi shunday derdi, undan shikoyat qilgandek bo'lib, Said aka kulib qo'yardi.

U varrak uchirishni yaxshi ko'rardi. Dam olish kunlari, kanikullarida bolalar ertalab varrak yasashga kirishishardi. Birov qamish olib kelgan, birov shildiroq qog'oz, birov un, yo shaftolining sirachi... U hech narsa qilmasdi. Varraklar bitguncha tomosha qilib

o'tirardi. Uchirishayotganda esa havasi kelardi, u ham uchirmoqchi bo'lardi. Lekin qaysi bola o'z varragini beradi? Shunda dadasiga yalinardi:

- Jon dada, qilib bering!.. Hammasining varragi bor, meniki yo'q.

- O'zing qil. Ular o'zlari yasaydi-ku, sening qaering kam?

Shu gap ta'sir qilarmidi, yo tezroq varrak uchirgisi kelarmidi, birpasda yasab tashlardi. Uning varragi hammanikidan baland, tekis uchardi... O'qishda ham shunday edi. Tayyorlanmay yurib-yurib, imtihonga bir-ikki kun qolganda, mukkasidan tushib dars qilardi va doim "besh" olardi. Institutda ham shunday o'qidi. Ish boshqa gap. Ish odamni qolipga solib qo'yadi, tartibga o'rgatadi.

Shunday bo'lsa ham Rahim Saidov bir g'oyani uzoq o'ylab yurib, tajribani juda tez o'tkazardi...

Ha, u o'zini qo'lga olishi kerak, tinchlanishi kerak. Dur, zirak, uzuk - hozircha ish boshlash uchun shular yetarli. U telefon trubkasini qo'lga oldi.

- Hafiz? Bu men - Rahimjonman.

- Salom, Rahimjon. Nega kelmading? Tuzukmisan?

- Sen menga juda keraksan.

- Eshitaman.

- Yo'q, telefonda aytolmayman. Kela olasanmi?

- Hozir, laborantlarga javob berib yuboray. Oldimda turishibdi. Bilasanmi, preparatli paxta ochildi. Bir chanokdagisi olti gramm! Uchastkadagi ham shunday natija bersa, marra bizniki!

- Juda yaxshi. Xursandman. Preparatsizligichi?

- Qovjirab yotibdi.

- Demak, bekorga ishlabamiz. Xo'sh, kelasanmi?

- O'n minutda uyingda bo'laman...

Rahim Saidov uyni yana bir bor qarab chiqdi. Tryumoning hamma tortmalarini axtardi, yozuv stolining tortmalarini bir-bir titkiladi. Boshqa hech narsa chiqmadi. "Shuning o'zi ham yetar", xayolidan o'tdi uning. Munis o'zi molparast edi. Rahim Saidovning sira yodidan chiqmaydi, to'yning ertasiga u xotinidan qattiq ta'na eshitgan edi.

Said aka to'y bo'lishi aniqlangach, tezlik bilan kelin tushirish uchun eski hovlining burchagiga bir uy, bir kichkinagina dahliz soldirdi. Uy shunchalik tez bitdiki, Rahim Saidov qurilish qachon boshlanib, qachon tugaganini payqamadi. O'rtamiyona uy.

Oynalik, eshiklik... Hatto dahlizga kiraverishdagi zinaning ustiga zont ham qo'ndirildi. Rahim Saidovning o'zi dadasining yonida turib eshiklarni qurishga yordamlashdi. Magazinda faqat yashil bo'yoq qolgan ekan, shuni olib keldi. Shiftini esa ko'chaning og'zida qurilayotgan ko'p qavatli binodan ikkita xotin ke-lib moylab ketishdi. Bo'yoq hidi ketmay to'y bo'ldi. Ertalab Rahim Saidov pishillab uxlab yotgan yosh xotining yonidan turib institutga ketdi. Bormasa bo'lmasdi. O'rtoqlari uni uyaltirishdi, urishishdi, shundan keyingina uyiga qaytdi. Kelsa, Munisxon yig'lagudek bo'lib o'tiribdi. Tepasida ayasi.

- Nima qildi? - xavotirlanib so'radi Rahim Saidov. Munisxon uchun ayasi javob berdi:

- O'g'lim, sizdan shuni kutmoqdim. To'yning birinchi kuni ham tashlab ketasizmi xotiningizni?

- Kechirasiz, bugun ish kuni edi, bilmabman. - Qizarib ketdi Rahim Saidov.

- Ministr uylansayam uch kun palagaysa. Bilishingiz kerak edi. Bu ham mayli. Qanday uyga tushirdinglar qizim bechorani? Boya kelsam, dag'-dag' titrab o'tiribdi. Nima ekan desam, shiftda kaltakesak yuribdi, dumini lapanglatib!

Munisxon ham yig'i aralash luqma tashladi.

- Qayoqdan topdingiz bu bo'yoqni? Hamma yoq olataroq bo'lib yotibdi.

- Xafa bo'lmanglar, shoshilib qoldik, - dedi boshini egib Rahim Saidov. - Boshqatdan remont qilaman. Kechirasizlar.

Aya chimirilib chiqib ketdi. Rahim Saidov xotining yoniga o'tirib, uni quchoqladi.

- e'tibor bermang, Munisxon, ozgina sabr qiling, ajoyib uyda yashaysiz. Yorug', keng, katta...

Munisxon indamadi. O'sha kuni Rahim Saidov odati bo'yicha mollarga ovqat bergani molxonaga kirdi. Ularning ikki-uchta qo'yi, bitta katta targ'il sigirlari bor edi. Said aka, bolalar ertalab albatta sut ichishi kerak, deb ko'p yillardan beri mol ushlardi... Rahim Saidov qo'ylarning bittasini ko'rmadi, sigir ham yo'q edi. Qo'y albatta to'yga so'yilgan bo'lishi kerak. Sigir-chi? U molxonadan chiqib supada bir guruh kishilar va qudasi bilan o'tirgan dadasining yoniga bordi.

- Dada, sigir qani? Said aka jilmaydi.

- Uy qurishning o'zi bo'ladi, deysanmi, o'g'lim. Sotdim.

Rahim Saidov og'ir xo'rsindi. Said aka o'g'lining dilida nima bo'layotganini sezdi shekilli, atrofdagilarga eshittirib gapirdi:

- Uyingiz omonat, o'g'lim. Kuzga borib remont qilamiz, charaqlab ketadi.

Rahim Saidov minnatdor ohangda otasiga qarab qo'ydi.

Kuzda uy remont qilindi. Yaxshi ustalar topildi, yaxshi oo'yoqlar olib kelindi. Yashil shift oqish tus olib, yaraqlay boshladi.

SinKjka bilan oqlangan devorlar pushti rangga kirdi. Munisxon uch-to'rt kun juda xursand bo'lib yurdi. Keyin boshqa narsa uni qiynay boshladi: qaynana yomon bo'lib qoldi. Har kuni mayda-chuyda gaplar, g'iybat...

"Mana ko'rasiz, alohida tursak, juda yaxshi bo'ladi. Atigi ikkalamiz bo'lamiz. Biz nimani talashardik?"

Rahim Saidov to bir qarorga kelguncha, Said aka masalani hal qildi. Munisxonning boshi osmonda edi. Ko'p o'tmay yangi uyga ko'chishdi. Lekin... lekin janjal kamaymadi. Qaytanga ko'paydi. Hammasining sababi mol edi, pul edi. Rahim Saidov shu qimmatbaho taqinchoqlarni o'zi olib berganda ham, Munisxon yana bir yetishmovchilik topib janjal ko'tarishiga endi butkul ishongan edi.

Hafiz kelganda u oshxonada bufetning tortmalarini titkilardi. Kim biladi, balki bu yerga ham biron narsa yashirib qo'ygandir? U ancha o'zini bosib olgan, tinch edi.

- Ha, nima qilyapsan? - so'radi Hafiz.

- Qidirayman.

- Nima?

Hafiz zo'r yigit. Tanimagan odami, bilmagan narsasi yo'q. Birpasda aeroportning xalqaro bo'limiga kirib bilet to'g'rilab chiqdi. Hatto Qo'qonga telefon ham qildirdi. Shu odam ertaga qaysi reysga bilet so'rasa topib berishlariga unattirdi. Mana, ikki soat ichida Qo'qonga kelib turibdi. Havo anchayin salqin edi. Toshkentdagidek dim emas. Yengil shamol esardi. Aeroportdan chiqqanda suv sepadigan mashina hamma yoqni changitib trotuar aralash suv purkab o'tdi. Rahim Saidov qanchalik ephillik qilmasin, tuflisiga loy sachradi, aeroport binosiga kirishga to'g'ri keldi. Kioskadan gazeta olib artdi. Qaytib ko'chaga chiqqanda trolleybus ko'rindi.

Munisxonlarning uyi teatrning orqasida edi, shunday markazda. Rahim Saidov bu shaharga kelishni yaxshi ko'rardi. Xotini shu yerlik bo'lgani, yo shahar markazida qo'nadigan joyi bo'lgani uchun emas, shaharning o'zi yoqardi. Kichkina, tinch, salqin... U kechqurunlari havo olib kelay, deb ko'chaga chiqar, allamahalgacha yopilmay turadigan, har qadamida uchraydigan do'konlar, velosiped mingan mo'ysafidlar, yosh-yalangni tomosha qilardi. Tanish-bilishlar yo qaynatasi bilan takyalardan biriga borib devziradan osh qilishardi. Qo'qonliklar choyxonani yaxshi ko'rishadi. Har bir mahallaning deyarli o'z choyxonasi bor, shunga qaramay, har bir qo'qonlikning o'zi yaxshi ko'radigan joyi ham bor edi. Ubaydulla akaga Terakzor takya ma'qul tushib qolgan edi. Baland, tanasi quloqchga sig'maydigan teraklar ostida yetti-sakkizta taxta so'ri qo'yilgan, yo'lkaning yonidan jildirab suv oqardi. Ozoda, tinch. Eng muhimi, bu yerga kelgan odam shahar ichida o'tirganini unutardi. Rahim Saidovni uch-to'rt marta qaynatasi shu yerga olib keldi, o'zi osh qildi. Qip-qizil, har bir guruchi yaltirab ko'zni oladigan osh... Shu-shu Rahim Saidov qachon Qo'qonga kelmasin, Terakzorga kelib, bitta osh qildirmasa ko'ngli joyiga tushmasdi.

Trolleybusda ketayotib, choyxonaga kiradigan tor ko'chaga

ko'zi tushdi. "Ubaydulla aka balki shu yerdadir! - xayolidan o'tdi uning, lekin nima haqida u bilan gaplashishi esiga tushib, tushgisi kelmadi. - Uyga boray-chi!"

Ubaydulla aka uyida edi. So'riga narvon qo'yib, sap-sariq charos boshlarini qog'ozga o'rayotgan edi. Kuyovini ko'rib, pastga tushdi.

- Keling, Rahimjon, o'g'lim!

Rahim Saidov salom berdi. Ubaydulla aka uni uyga boshladi.

- Keling, nechuk?

- O'zim, shunday...

Ubaydulla aka, ayvondagi xontaxta yoniga o'tirishar ekan, kuyoviga sinchiklab qaradi.

- Said akam tinchmilar? Quda aya?..

- Hammasi tinch, salom deb yuborishdi... - dedi Rahim Saidov masalaga qanday yondoshishni o'ylar ekan. - Ayam qanilar?

- Shu yerda. Nonga chiqib ketuvdi. Halizamon kelib qoladi. Xo'sh, Toshkentlar tinchmi?

Rahim Saidov qaynatasining nimani nazarda tutayotganini fahmladi. Qizining yettisini o'tkazib qaytayotganida, u militsiyaga kirmoqchi va qotilni surishtirmoqchi edi. Rahim Saidov qaytardi, o'zim xabar olaman, ovora bo'lmang, dedi. U qaynatasini ayagan, militsiyaga borib fojiani yana bir bor ko'z oldidan o'tkazishini istamagan edi.

- Hali hech gap yo'q. Shug'ullanishyapti, - dedi u va bugun uni chaqirishgani, ba'zi narsalarni so'rashganini aytib berdi, lekin undan ham gumonlari borligi haqida og'iz ochmadi.

- Munisning qandaydir tanishlarini surishtirishdi, - dedi u gapining oxirida.

- Qanday tanishlari? - qiziqdi Ubaydulla aka.

- Men bilmagan tanishlari. Bilmadim, - dedi.

- Bor ekanmi shunaqalar?

- Ha, bor ekan?

- Ularni qidirib nima qilishmoqchi?

- Nazarimda, o'sha kuni qaerlarda bo'lgan, shuni bilishmoqchi bo'lsa kerak. Men bilgan narsamning hammasini aytib berdim.

- Ha, durust. Qani, choyga qarang. - Ubaydulla aka telpak bosilgan choynakdan choy quyib uzatdi. - Men qotilni ko'rishga toqatim yo'q. Basharasi qursin uning. Nega o'ldirgan, sababini bilmoqchiman. Nima uchun endi tuppa-tuzuk yurgan odam o'lib ketaveradi?

Munisning kimga og'irligi tushgan ekan? Yo bu oddiy bezorilikmi? Sizing o'zi hech tasmolingiz yo'qmidi?

Rahim Saidov endi aytish mumkinligini sezdi.

- Shu masalada keldim oldingizga.

- Xo'sh-xo'sh?

- Munisning yonidan bir qancha qimmatli narsalar topishibdi. Uzuk, zirak. Ancha qimmat. Ikkalovi ming so'mga boradi.

Ko'rsatishdi. Bunaqa narsalar unda yo'q edi. Bitta ziragi bor. Uni bilaman. Bu boshqacha. Ko'zlari brilliantdan. Uzugi katta, yoqut ko'zli uzuk. O'sha kuni ertalab qo'lida ko'rgan edim. Jez, degan edi. Jez emas ekan. Uch yuzu qancha turar ekan. Qaerdan olgan bularni, kim bergan? Ayam bilmasalar, boshqa hech kim bilolmaypti. Keyin uydan manavi dur chiqdi.

Rahim Saidov cho'ntagidan durni olib, qaynatasining oldiga qo'ydi.

- Bu ham juda qimmat turar ekan. Bitta ipi besh yuz atrofida. Boshim qotib qoldi.

Rahim Saidov boshini egdi.

- Bu dur ayangizda yo'q edi. Bo'lsa, men bilardim. Ubaydulla aka durni kunga soldi.

- Shunaqa qimmat turar ekanmi?

- Shunaqa deyishdi.

- Surishtirmaganmidingiz, qaerdan olding, deb?

- Oddiy munchoq degan edi. Rostini aytmaganini qaerdan bilaman?

Ubaydulla aka soqolini tutamlab, xayolga toldi. Qizidan ajragani o'zi bir azob edi, yoniga bu ham qo'shildimi endi? Qaerdan oldi ekan u bularni?

U qizini yaxshi bilardi. Tutgan yeridan kesadigan odam. Bu jihatdan onasiga o'xshardi. Onasidan u yana yasan-tusanni, molga havas qo'yishni olgan edi. Yoshgina qizcha ekan, uyiga kim kelsa bo'yracho'p ko'tarib oldiga borardi.

- O'sma qo'yib qo'ying.

O'sma, keyin surmaga o'tdi, xinaga...

Ubaydulla aka o'z ta'sirini unga o'tkaza olmaganidan ko'p kuyinardi, lekin hech narsa qila olmasdi. Tabiatan yumshoq, ko'ngilchan odam, yolg'iz farzandini urishishga tili bormasdi. Buning ustiga xotini butun vujudi, yuragi bilan qiziga yopishib olgan edi.

Uzoq yillar tirnoqqa zor bo'lib ne-ne doktorlar, tabib va folbinlarga qatnagan va hamma narsadan umid uzganida bo'yida bo'lib, farzand ko'rgan aya Munisxonga sig'inish darajasiga yetgan edi. U qizining otasi ham borligini, u ham ta'lim-tarbiya ishlariga faqat maktabda emas, uyda ham aloqadorligini unutgan, hatto tan olmas edi. Xotining tabiatini yaxshi bilgan Ubaydulla aka ko'p urinishlardan so'ng qo'lini yuvib qo'litiqqa urdi. Ammo juda ham koyindi. Munis tengqurlariga o'xshamasdi: juda erka edi, serjahl edi... Qiziga qarab turib, o'zidan juda kam o'xshashlik topardi. Qirra burni, qalin qoshi bir oz unga o'xshab ketardi. Qolgan hamma tomondan butunlay onasining o'zi edi. Toshkentlikka turmushga chiqmoqchiligini eshitib, u xursand bo'ldi. Olis joy, yolg'izlik Munisning ancha tanobini tortib qo'yadi, deb o'yladi. Xotini bilan qattiq tortishdi. Oxiri u aytgandek bo'ldi. Aya rozi bo'ldi. Lekin

eriga quloq solganidan emas, qizining bo'yida bo'lib qolganidan, noiloj rozi bo'ldi. Buni Ubaydulla aka to'ydan keyin bildi. Bildiyu, xunob bo'lmadi. U shunday ketaversa, qizi bir kun ularni sharmanda qilishiga ko'zi yetardi. Yigit insofli ekan, shunday bo'lmadi. Uning Rahim Saidovga boshqacha, juda iliq munosabatda bo'lishining sabablaridan biri ham shu edi. Rahim Saidovni ko'rgandan keyin esa, qizidan ham xursand bo'lib qo'ydi. Kuyov bir ko'rishdayoq unga yoqib qoldi. "O'zingma o'xshagan ekan, yumshoq, ko'ngilchan", - xayolidan o'tkazdi u va ayni vaqtda unga achindi ham. Qiziga bunday yigit emas - O'jar, qattiqqo'l, uning o'ziga o'xshab tutgan yerini kesadigan odam er bo'lishi kerak edi. Shunda Munis popukdek bo'lib yurishi mumkin edi. Bunday yigitning esa u boshiga minib olishi turgan gap edi. Shunday bo'ldi ham. To'ydan keyin Ubaydulla akaning birdan-bir tashvishi - kuyovini qo'ldan chiqarmaslik bo'lib qoldi. O'zicha Rahim Saidov ajralmas edi qizidan. Lekin do'st-birodarlarining maslahatiga kirib ketishi mumkin edi. Shuning uchun Ubaydulla aka har bir masalada kuyovining yonini olar, xotini sal g'ingshiy boshlasa, darhol hujumga o'tardi.

Qiziga aloqador bu sabablardan qat'i nazar, Rahim Saidov unga odam sifatida yoqib qolgan edi. Bitta yigit bo'lsa shunchalik bo'ladi-da, derdi ikki gapining birida va xotiniga maslahat berardi:

- Qizingga aytib qo'y, bunaqa er ko'chada yotmaydi. Pul kerak narsa, pulsiz hayot bo'lmaydi. Lekin undan qimmatli narsalar ham bor: obro', vijdon, aql, madaniyat. Shunaqa narsalar borligini biladimi qizing?

- Voy, muncha qizimni yerga urasiz? - zarda bilan javob qilardi xotini. - Pul deb, nima, erining hiqildog'idan bo'g'yaptimi? Yosh narsa, kiyingisi, o'ynagisi keladi-da. O'sha siz aytgan narsalar qizimda ham oshib-toshib yotibdi. Qopga solsa og'zini yopolmaysiz! Ubaydulla aka gapni chuvalatib o'tirmasdi. Xotining jahli chiqqani, jindek bo'lsa ham unga qo'shilgani edi. Ikkinchidan, o'sha "og'zi yopilmaydigan qop"da nima borligini yaxshi bilardi. Har qo'l solganda bironta tashvish chiqardi u qopdan. Mana, hozir ham yangi tashvish paydo bo'lgandi...

Dimoqqa issiq non hidi urildi. Ostonada aya paydo bo'ldi. Rahim Saidov uni ko'rishi bilan hayron qoldi. To'la, qip-qizil mag'izdek ayol bir haftada cho'pdek bo'lib qolgan edi. O'rnidan turdi.

- Voy, Rahimjon, keling, bolam!

Aya shunday deb unga yuzlandi-yu, yig'lab yubordi.

- Qanday kunga qoldi boshim?.. Yonizda Munisimni ko'rganday bo'lib ketdim!.. Bolam, bolaginam! Qaysi uyga kirmay, sharaqlagan kulgisini eshitaman, yuraklarim ezilib ketadi. Yolg'on bo'lsa-ya, bolam, Rahimjon! Boshqa odamdir o'lgan? U tirikdir? Mani tashlab ketadimi shunaqa ezib?..

Ubaydulla aka ham, Rahim Saidov ham u ko'nglini bo'shatib olguncha jim, boshlarini egganlaricha turishdi. Aya yana nimalarnidir gapirib, qo'lidagi ro'molga tugilgan nonni tokchaga qo'ydi. Ro'mol uchi bilan ko'zlarini artib, o'tirishga taklif etdi.

- Eson-omonmisiz? Oyiz, dadayiz tinchmilar?

- Rahmat... Bir ko'rib ketay dedim...

- Yaxshi qilibsiz, - aya shunday dedi-yu, kuyovining kelishi bejiz emasligini sezdi. - Nima, yigirma o'tkazasizlarmi? - U qoshlarini chimirdi, aftidan jahli chiqqan edi. - Muncha tez?

- Yo'q, yigirman hali o'ylaganimiz yo'q. Men... Ubaydulla aka imo bilan kuyovini to'xtatdi, o'zim aytaman, degandek unga imlab qo'ydi.

- Nima gap? - sabri chidamay so'radi aya.

- Hech gap yo'q, - dedi Ubaydulla aka. - Qotillarni qidirishayotgan emish. Bugun Rahimjonni chaqirishibdi.

- Ha, ma'lum bo'libdimi?

- Hali yo'q. Topishadi.

- Menga nima foyda? Topishgani bilan qizim tirilib kelarmidi?

Aya yana ko'ziga yosh oldi.

- Menga qara, bu... marvaridingni qizingga berganmiding?

- Ulgurolmadim, dadasi, ulgurolmadim. Endi beraman deb turuvdim.

Ubaydulla aka kaftidagi durlarni xotini oldiga tashladi.

- Manavi emasmi?

- Yo'q, maniki mayda. Bu qatdan kelib qoldi? Aya durlarni qo'lga olib ko'rdi.

- Bu kimniki ekan?

- Qizingniki...

- Qizimniki? Yo'q, unda dur yo'q edi. Yo olib beribmidingiz?

Aya kuyoviga qaradi.

- Yo'q. O'zi olgan.

- Bu qimmat turadi-ku? Shuncha pulni qayoqdan olibdi?

- Sen bermaganmiding? - so'radi Ubaydulla aka.

- Voy, menda pul bormidi? O'limligimga atab qo'yganim bor. U urvoq ham bo'lmaydi. Nima gap o'zi? Tinch-likmi?

Aya ko'zlarini pirpiratib, bir eriga, bir xomush o'tirgan kuyoviga qaradi.

- Qizingning yonidan yana ming so'mga yaqin mol chiqibdi.

- Nima ekan?

- Zirak, uzuk...

- Qudam bergan zirakni bilaman. U bunaqa qimmat emas. Nikoxda taqqan uzugi juda arzon, ellik so'mmi, oltmish so'mmi.

- Xo'p, bu narsalar qizingda qanday paydo bo'lib qoldi?

- Men qatdan bilay? O'rtoq-po'rtog'inikidir?..

- Surishtirdik, - dedi Rahim Saidov.

- Biron-yarimtadan qarz olib beribmiding? - tus-mollab so'radi Ubaydulla aka.

- Voy, kimdan olib beraman shuncha pulni?

- Rostini gapir, dayus!

Ubaydulla aka xontaxtaga musht urdi. Rahim Saidov qaynatasini bunday ahvolda birinchi ko'rishi edi, qo'rqib ketdi.

- Qo'ying, dada! - deb uni qo'lidan ushladi. Ubaydulla aka parvo qilmadi. Kuyovidan ham battar qo'rqib ketgan aya o'zini orqaga tashlab, eriga tikilganicha qolgan edi...

- Gapir, deyapman! Kimdan olgansan?

- Hech kimdan olganim yo'q. Nima deyapsiz, o'zi? Olsam, sizdan yashiramanmi? - Zo'rg'a, lablari pirpirab javob kildi aya.
- Rostmi?
- Tepamda Xudo turibdi!
- Yolg'on bo'lsa, tilingni sug'urib olaman!
- Xudo ursin, rost! Qariganimda aldab o'libmanmi? , - Bo'lmasa kim bergan qizingga bularni?
- Men qatdan bilay?..

O'rtaga noqulay jimlik tushdi. Rahim Saidov o'rnidan turib ketmoqchi bo'ldi, lekin ularni shu ahvolda tashlab ketgisi kelmadi. Ularda nima gunoh? Ular ham hech narsani bilmagan bo'lishlari kerak. Ha, bilishmagan. Munis hech kimni o'z ishlariga aralashdirmagan. U endi buyumlarning qanday paydo bo'lganini aniq bilardi. Qiziq, biladi-yu Munisga nisbatan o'zida hech qanday nafrat sezmasdi. U o'zidan nafratlanardi, o'zining ahvolidan kuyunardi.

- Men boray...
- Qayoqqa? - Ubaydulla aka kuyoviga o'girildi.
- Ketishim kerak...

Rahim Saidov o'rnidan turdi.

- Choy ham qo'ymadim sizga.. - dedi aya.
- Rahmat.
- Kuzatib qo'yaman. Nimada ketasiz?

Buning ahamiyati yo'q edi. Biron narsa topilar. Ular oldinma-ketin ko'chaga chiqishdi.

- Aeroportning oldida taksi bo'ladi. Lekin qolsangiz bo'lardi.

Rahim Saidov javob bermadi.

Aeroportda so'nggi samolyot o'n minut oldin uchganligini, lekin bitta ham bo'sh joy bo'lmaganligini aytishdi.

- Taksi bo'lib qoladi, - dedi Ubaydulla aka.

- Siz ketaversangiz bo'lardi, - iltimos qildi Rahim Saidov.

- Siz bilan ketgim kelyapti-yu Toshkentga, ilojim yo'q. Ayangiz o'zini bir balo qilib qo'yishi mumkin. Siz olib kelgan xabardan keyin u o'zini yo'qotib qo'ydi.

- Meni kechiring.

- Sizda nima ayb?.. - Ubaydulla aka bosh chayqadi. - Sizda ayb yo'q...

- Yo'q, ayb menda... - Rahim Saidov og'ir xo'rsindi. - Nazarimda unga yaxshi qaray olmadim. Uni o'z holiga tashlab qo'ydim.

U shunday dedi-yu, haqligini angladi. Chindan ham xayolidan o'tdi uning, Munisni o'z holiga tashlab qo'ymadimi u? Uning ishiga aralashdimi? Istaklari nima? Bilishga qiziqdimi? Ertalab ishiga ketdi, kechqurun charchab qaytdi. Uyida ham o'z ishini o'yladi.

Munis kun bo'yi nima qilgani bilan, qaerlarda bo'lgani bilan ishi bo'lmadi. U o'zi gapirsa quloq soldi. Savollariga xolis, bafurja javob berdi, lekin shundan nariga o'tmadi. Onasi ishlayotgan maktabdan bo'shlagani esida. To'g'rironi, bo'shaganini bilmadi, bo'shab, yangi ishga kirganini bildi. Buni ham Munisning o'zi aytdi.

- Juda zerikib ketdim. Nuqul bolalar, bolalar! Mendan o'qituvchi chiqmaydi.

- Bu ishingiz tuzukmi?

Rahim Saidov komandirovkaga tayyorgarlik ko'rayotuvdi. Ertalab uchishi kerak edi.

- Albatta. Muhimi, ish kam. Kabinet nomigagina kabinet. Hamma kerakli o'qish qurollari kutubxonada. Faqat maoshdan o'n so'm yutqazdim.

- Pulni o'ylamang. Maoshingizga men qo'shib beraman. O'zingiz xursand bo'lsangiz, bo'ldi. Plashimni ko'rmadingizmi?

- Shifonerda bo'lsa kerak...

- Topdim. Kabinetda ekan. Qo'rqmaysizmi men yo'g'imda? Rahim Saidov xotini quchoqladi.

- O'rgatib qo'ydingiz-ku! Men aytgan atlasni albatta olib keling, bo'lmasa, uyga kiritmayman.

- Xo'p bo'ladi. Qanaqa edi?

- Ana, aytmadimmi, esingizdan chiqadi deb?! Yozib oling. Namozshomgul.

- Bo'ldi, esladim...

Har doim shunday edi. Uning uchun xotining yonida o'tirgani, ishlayotganida tepasiga kelib qog'ozlariga tushunmasa ham, yosh boladek iyaklariga mushtlarini tirab tikilishi kifoya edi. To'g'rironi, u shuni istardi, boshqa narsa bilan ishi yo'q edi. O'yga ham, xotinigam ham o'z institutining, o'z hayotining bir qismi deb qarardi. Albatta, buni o'zi bilmasdi. Bir kuni laboratoriyada nima ham qilayotganida, ha, vilt tushgan g'o'zaga issiqlikning ta'sirini tekshirib turganida Munis telefonda chaqirib qoldi.

- Rahimjon aka, bugun Faridalarnikiga boramiz-a? Esingizdami?

- Yo'q, nega boramiz?

- Axir, bugun uning tug'ilgan kuni! Ertalab gaplashdik-ku! Men sovg'a ham olib qo'ydim. Indiyskiy vaza. Juda chiroylik.

Nechalarda kelasiz?

- Munisxon, azizim, o'zingiz bora qoling... Juda ish ko'p.

Munisxon "uh" tortdi.

- Bitta o'zim boramanmi?

- Nima qilibdi, o'rtog'ingiz-ku?! Men kutib olaman. Ko'chaning og'zida turaman. Kelishdikmi?

- Kelishdik, - xo'rsindi Munisxon. - O'nlarda qaytaman.

- Bo'пти.

U o'nda emas, o'n ikkilarda qaytdi. Rahim Saidov xafa bo'lgani yo'q. O'zi shuni istagan edi. Xotini kechirdi, xolos. Mehmonga borgandan keyin, shu-da.

- Voy, Rahimjon aka!.. - dedi xursand holda Munis. Undan yengil konKjyak hidi kelardi. - Biram yaxshi bo'ldi. Juda achindim bormaganingizga... Faridaning eri shunaqangi quvnoq odam ekan... Kuldiraverib ichaklarimizni uzdi.

- Xursandmisiz, ishqilib?

- Judayam.

Rahim Saidov shularni va shunga o'xshash voqealarni eslab, o'zini gunohkor sanay boshlagan edi.

- Ha, ayb menda, - dedi ovozi chiqarib. - Uni yolg'iz qo'yib qo'ydim. Bunday qilmaslik kerak edi.

Ubaydulla aka uning gapini o'zicha tushundi.

- Siz uni erkin qo'yib qo'yingiz. Buning qadriga yetmadi u. Bo'ldi, o'g'lim, o'zingizni qiynamang. Bilaman, sizga og'ir. Menga ham og'ir. Qizim bor, deb faxrlanardim. Bir hafta burun qizimdan mahrum bo'ldim, bugun esa... faxrimdan...

Rahim Saidov uni nima deb yupatishni bilmadi. Taksi keldi.

- Toshkentga borasizmi?

- Necha kishisiz?

- Bir o'zim.

- Yana uch kishi kerak.

- Ularning haqini to'lasam-chi?

Shofer bir oz o'ylanib turdi-da, keyin qo'lini siltadi.

- O'tiring!..

... Tun qo'yniga kirgan shahar asta-sekin uyquga keta boshlagan edi. Katta yo'lga chiqishganda, chiroqlar kamaydi, Rahim Saidovning cho'ntagida ipga tizilgan durdek yo'lning ikki chekkasida miltillay boshladi. Shofer gazni bosdi. Mashina bir-ikki entikib, qushdek uchib ketdi.

Rahim Saidov o'z xayollari bilan band bo'lib, Po'nkanga yetganlarini, oldinda qorayib tog'ning baland-past qoyalari ko'rina boshlaganini payqamay qoldi. Dovonga chiqayotganlarini eti junjikib, sovuq yeya boshlaganidan bildi. Beixtiyor yelkalarini silay boshladi.

- Orqangizda kostyum bor, tashlab oling, - dedi shofer.

Rahim Saidov uyalib turgan edi, o'zi olib berdi.

- Ancha yengil chiqibsiz, shamollab qolmang tag'ing... Rahim Saidov pidjakni yelkasiga tashladi. Birpasda badaniga iliqlik yugurdi.

- Ish zarurmi, deyman, kutgingiz kelmadi?

- Ha, ketish kerak bo'lib qoldi.

- Cheking... - shofer "BT" qutisini uzatdi. - Birlarda Toshkentda bo'lamiz.

Rahim Saidovga buning ahamiyati yo'q edi. Uning xotini uydin tezroq chiqib ketgisi kelgan edi, niyatiga yetdi. Endi ertalab Toshkentga kirib borishsa ham mayli.

Mashina qiynalmasdan dovonning tepasiga chiqdi. Choyxona oldida ikki-uchta mashina ko'rindi.

- Qorin qalay? - so'radi shofer.

- Nima edi?

- Kechasi shu yerda ovqat qilishadi. Yeb ketsak...

- Mayli.

Ular choyxonaga kirishdi. Deraza yonida uch-to'rt kishi ovqatlanib o'tirishardi. Boshqa hech kim yo'q. Shoferga tanish chiqib qolishdi shekilli, ular bilan so'rashib ketdi. Rahim Saidov burchakdagi stol yoniga o'tirdi. Choyxonachi bola darhol choy, qand olib keldi.

- Ovqatlanasizmi?

- Ha. Ikkita lag'mon ber.

U bir piyola achchiq ko'k choyni ichib bo'lganda, shofer yoniga keldi.

- Zerikmayapsizmi? Hozir bittadan lag'mon yeymizu, yo'lga tushamiz. Shundog' eshingizning tagiga olib borib qo'yaman. Choyxonachi bola ikkita to'la kosa lag'mon olib keldi. Sarimsoq, rayhon hidi dimoqqa urildi.

- Shu yerda yaxshi tayyorlashadi, - dedi shofer. - Qani, oling... Men lag'monni yaxshi ko'raman... Rahmatlik xotim yaxshi tayyorlardi.. Yeb to'ymasdim...

Rahim Saidov shoferga qaradi. U o'rta yashar, qirqlarga borgan bo'lsa kerak...

- To'rt oy bo'ldi o'lganiga. Beshta bola bilan qoldim, - shofer ishtaha bilan ovqatlana boshladi. - Uchtasining esi kirib qolgan.

Ikkitasi yosh. Bittasi bog'chada, bittasi yasliida. Shuning uchun ham kechasi ishlayman. Ha, mazangiz yo'q? Oling! Ko'z-quloq bo'lib turmasam bo'lmaydi, hammasi o'g'il... Odamdek chidamli maxluq bo'lmas ekan. O'lib qolaman, devdim g'amdan. Yo'q, ko'nikib ketdim. Bir oy yotdi sho'rlik. Rangi-boshi joyida, nimaligini qazosidan keyin bilishdi. Miya raki bo'lgan ekan.

Yemadingiz-ku?

- Bo'ladi shu.

Rahim Saidov qo'lidagi qoshiqni deyarli buzilmagan kosaga soldi.

- Ketdik bo'lmasa, - shofer fotihaga qo'l yozdi. - Yigit o'lmaylik. Omin!

Rahim Saidovning shoferga havasi kelib ketgan edi. Qanday odamlar bor-a, dunyoda! Ular qanday yashash, nima qilish kerakligini bilishadi. Ularning har bir qadami rejali. U shunday o'ylab, boshidan o'tganlarning hammasini aytib bermoqchi bo'ldi, shu zabardast odamning maslahatini olmoqchi bo'ldi, lekin negadir yuragi dov bermadi. Lozimmidi shu? Nahotki o'z yelkasidagi yukni o'zi ko'tara olmasa?

Oldinda sherning haykali oqarib ko'rindi.

- Shu yerda to'xtating, - iltimos qildi u.

Shofer mashinani chetga oldi. Rahim Saidov cho'qqilarga tikilib turgan sherning oldiga keldi. Shu yerda u Munisni ko'rgan edi.

Shu yerda, baxtimni topdim, deb o'ylagan edi. Ko'z oldiga o'sha birinchi marta ko'rgandagi Munis keldi. Mana, u qo'llarini beliga tirab turibdi... Yosh, kelishgan, quvnoq...

"ББ" Meni olib ketinglar... Zarur ishim bor edi Toshkentda..."

"ББ" Kuyov bola yolg'iz qolar ekan-da?" "ББ" Voy, nega unday deysiz? Jiyanim-ku?" Munis, uyalmaysizmi, degandek unga qaradi. Uning shun-day qarashini Rahim Saidov yaxshi ko'rardi. Shuning uchun ham qanchalik achchiq gaplarni eshitmasin, qanchalik jahli chiqmasin, shunday qarashini ko'rishi bilan erib ketardi, bag'riga bosib, cho'chchaygan lablaridan o'pard.

Toshkentda bo'ron turdi. Uch yil bo'ldi shekilli shunga. Institut hovlisida simlar bir-biriga urilib, charaqlardi, mo'rt daraxtlarning shoxlari sinib tushdi. Keyin do'l yog'di. Undan keyin yomg'ir. Rahim Saidov kabineti derazasidan qarab turardi. Hovlida zont tutgan ayol paydo bo'ldi. Sariq rang etigidan tanidi. Munis edi. Yugurib chiqdi. Xotini plash olib kelgan edi.

- Ertalab aytdim-ku, kiyib keting, deb? - zarda qildi u.

Rahim Saidov zont ostiga boshini suqib, xotini cho'chchaygan lablaridan o'pdi.

Xotini hozir ham uning tepasida zont ushlab turgandek bo'lib ketdi nazarida. U seskanib atrofiga qaradi. Tilsiz, bir oyog'i singan

sher cho'qqilarga qarab turardi.

- Munis... Munis... nima qilib ketding?..

Hech kim javob bermadi. Munis o'z sirini o'zi bilan olib ketgan edi.

7

Kapitan Aliev serjant Qoraboev va leytenant Sulstonovlar olib kelgan suratlarni solishtirdi. O'n olti-yu qirq to'rtinchi uyda turuvchi odam ham, "Gulchehra" tayyor kiyimlar magazinining bosh tovarovedi ham bir odam edi: Anatoliy Nazarovich Olloyorov.

Leytenant Sulstonovning aniqlashicha, u shu magazinda uch yildan beri ishlaydi. Obro'yi yaxshi. U kelgandan beri magazin planini ortig'i bilan bajaradigan bo'lib qoldi. O'tgan yili hatto rayon ko'chma Qizil bayrog'ini oldi. Xushmuomala, chaqqon, juda intizomli odam. Xullas, magazin direktori uni juda maqtadi.

Mahalladan olingan ma'lumot ham uni ancha-muncha shubhadan xoli odam qilib ko'rsatdi. To'rt yil bo'libdi Samarqand darvozaga ko'chib kelganiga. Qaerdan kelgan - buni mahalla komissiyasining raisi aytib berolmadi. Mo'min, qobil, anchayin mahallago'y odam, dedi u. O'tgan yili mahallada ishlatish uchun yigirma chinni choynak, yuzta piyola olib berdi. Tekinga. Aytilgan joydan qolmaydi. Janozalarda tobutni birinchi shu ko'taradi. Keksa onasi bor. Bechora, ko'r. Shuning uchun mahallaga aralashmaydi, doim uyda. Bir-ikki to'yga aytib ko'rildi, chiqmadi. To'paxo'janing o'zi ham (uning asli ismi shunday edi) u kishini bezovta qilmanglar, qiynaladi, dedi. Shu-shu unga tegilmaydi.

Kapitan Aliev Olloyorovni chaqirishga qaror qildi. Undan oldin qorovul ayolga uning suratini ko'rsatmoqchi bo'ldi. Kim biladi, balki tanir? O'sha qora portfelKj ko'targan odam shudir?

Qorovul ayol o'zini ko'p kuttirmay g'irillab keldi. Suratga uzoq tikilib turib:

- Shu! - dedi qat'iy ohangda. - Tanidim, shu, yashshamagur!..

- O'zi bilan yuzlashtirsak, so'zingizdan qaytmaysizmi? - so'radi kapitan.

- Meni kim deb o'ylaysiz? - Xafa bo'ldi qorovul ayol. - Rahmatlik amakingizdan ham ko'rqmaganman! Amakingizni jahli yomon edi. Bir o'qraysa bormi, odamni yuragi chiqib ketardi!..

- Bo'пти bo'lmasa! - dedi kapitan. - Ertaga o'n birga mashina yuboraman. Kelib ketasiz.

- Shu o'ldirganmi? - so'radi qorovul xotin qiziqib.

- Buni hali hech kim bilmaydi. Balki shunchaki tanishdir?..

- Silarniyam ishiyla og'ir...

Ertasi kuni ertalab, kapitan belgilagan vaqtda Olloyorov keldi. Aliev unga qaradi-yu, Rahim Saidovning xotini bergan xarakteristika esiga tushdi. So'laxmonday burni... soqol-mo'ylabi yaxshilab qirilgan bo'lsa ham, shunday qorayib turibdi. Oxirgi tugmasi solinmagan finkasidan ko'krak yunglari chiqib turibdi.

- Keling, grajdanin Olloyorov! - Kapitan ro'parasidagi kresloni ko'rsatdi. - Marhamat.

- Rahmat.

Olloyorov o'tirdi. Uning ovozi yirik gavdasiga yarashmagan ingichka edi.

- Nima uchun chaqirganimizni bilasizmi?

- Mutlaqo xabarsizman, o'rtoq kapitan... Olloyorov o'rnidan turmoqchi edi, kapitan qo'lini ko'tardi.

- O'tiravering, o'tiravering. Chekasizmi?

Kapitan oldidagi sigaret qutisini Olloyorovga tutdi.

- Chekmayman, kechirasiz.

"Xarakteristika to'g'riga o'xshaydi, - xayolidan o'tkazdi Aliev. - O'ta muloyim".

- Biz sizni grajdanka Munis Saidova masalasida chaqirdik. Siz uni bilarmidingiz?

Kapitan unga tikilib qaradi. Ammo unda hech qanday o'zgarish sezmad.

- Munis Saidova? - so'radi u. - Birinchi eshitishim. Kim ekan u? Bilsam bo'ladimi?

- Ha. Mijozlaringizdan. U sizdan mol olib turgan, kofta, tufli.

- Kechirasizu, eslolmayapman. Olloyorov xijolat chekkandek jilmaydi.

- Nahotki bilmasangiz? - O'z navbatida samimiy, hayron bo'lib so'radi kapitan. - Magaziningizga u ko'p qatnagan bo'lishi kerak?

- O'lay agar, eslolmayapman. Bilasiz-ku, bizning magazin chorrahada. Odam ko'p. Ayniqsa, ayollar. Hech eslolmayapman.

- Manavi ayolni taniyapsizmi?

Kapitan Olloyorovga Munis Saidovanning suratini uzatdi.

- Tanishga o'xshaydi. - Olloyorov suratni ko'ziga yaqinroq olib borib qaradi, uzoqroqdan tomosha qildi. - Ko'rgandekman.

Qaerdadir ko'rgandekman. Magazinda bo'lsa kerak, albatta. Saidova shumi?

- Ha, - dedi kapitan va suratni undan oldi. - Demak, qaerdadir ko'rgansiz? Aniqrog'i, magazinda?

- Ha-ha, shunday bo'lishi kerak. Nima edi, o'rtoq kapi-tan, tinchlikmi?

Aliev javob bermay, o'chib qolgan sigaretini tutatdi.

- Ayollar qiziq, - dedi Olloyorov kresloga suyanib, jilmaydi. - Hech yaxshilik qilmay deymanu, ko'ngil bo'shlik qilib qo'yaman, keyin boshim g'alvadan chiqmaydi.

- Saidovaga qanday ko'ngil bo'shlik qilgan edingiz?

- Bilmasam, - xotirjamlik bilan javob berdi Olloyorov. - Odatdagidek, biron narsani beochered olib bergandirmanda... Suratiga qaraganda, yaxshi ayolga o'xshaydi...

- Ha, chiroyli ayol, - unga qo'shildi kapitan. - Demak, u bilan tanishmassiz? Faqat ko'rgansiz, xolos?

- Xuddi shunday, o'rtoq kapitan. Nima, - Olloyorov sirli ohangda kapitanga engashib so'radi, - biron chatoqlik qilib qo'yibdimi?

- Munis Saidova... Munis Saidovani o'ldirib ketishibdi.

- Yo'g'-e! - Olloyorovning ko'zlari qinidan chiqib ketayozdi. - Nega? Qachon?

- 21 avgust kechasi, - kapitan unga yana jiddiy tikildi.

Bu gal Olloyorov dosh berolmay ko'zini chetga oldi.

- Attang!.. Yosh ekan!.. - Olloyorov boshini sarak-sarak qildi. - Bechora uvol ketibdi. Ota-onasi qaqshab qolibdida, attang, attang!

Bola-chaqasi bor ekanmi?

- Yo'q. Yolg'iz eri, xolos.

- Baribir jabr bo'libdi, attang... Qotil topildimi, o'rtoq kapitan?

- Qidiraymiz...

- Ha, yaramaslar!.. - Olloyorov mushtini tugdi. - Xuliganlar! Bunaqalarni topish ham hazil gap emas. Odam o'ldiradi-yu, mana men, deb turarmidi?! Allaqachon qochib ketgandir?..

- Shu yerda bo'lishi ham mumkin, - dedi kapitan. Olloyorov yalt etib unga qaradi-yu, darrov ko'zini oldi.

Boshqa odam buni sezmasligi mumkin edi, lekin zajigalkasini o'ynab o'tirgan kapitan Aliev sezdi va beparvolik bilan suhbatdoshidan so'radi:

- Nima deysiz?

- Nima desam bo'ladi... - Olloyorov qo'llarini yoyib, kapitanga qaradi. - Xato qildim. Boshida rostini aytсам bo'lardi. Ishoning, o'rtoq kapitan, qo'rqib ketdim.

- Nimadan? Nimadan qo'rqdingiz?

- O'zingizdan o'tadigan gap yo'q, ishimiz nozik, savdo ishi. Tanirdim, Munis Saidovani. To'g'risi, Saidovaligini bilmasdim. Faqat nomini bilardim. Munis, Munisxon. Juda kelishgan, xushtabiat ayol edi. Yasan-tusanni yaxshi ko'rardi. Bir marta keldi yalinib, ikki marta keldi. Rahmim keldi. Odamgarchilik yuzasidan unga ul-bul olib bergandim. Bechora, doim xursand bo'lib ketardi.

- Uyingizga ham borarmidi?

- Bir-ikki marta borgan. Anavi ayol to'g'ri gapiryapti. Tirikchilik, ba'zi noyob narsalardan uch-to'rttasini olib qo'yaman. Uydan olib ketishadi. Albatta, tanish-bilishlar. Saidova ham bir-ikki marta borgan. Kechiring, o'rtoq kapitan, ikkinchi bu noma'qulchilikni qilmayman. Qari, nogiron onam bor. Shuning hurmati, kechiring.

Kapitan uning ko'zida yosh ko'rib, ijirganib ketdi.

- Oxirgi marta uni qachon ko'rgan edingiz?

- Hozir, hozir eslayman... - Olloyorov shosha-pisha lablarini osiltirib, mushtlari bilan ko'zlarini artdi. - Buni qarang, hech esimga kelmayapti... Ha, xotirladim, avgustning boshlarida.

- Nima berdingiz?

- Sotding, deng?

- Xo'p, sotdingiz?

- O'lay agar, esimda yo'q. O'rtoq kapitan, kechiring, esimda yo'q. Ruxsat bersangiz, ertaga bilib kelaman nima olganini. E Xudo, nima kunga qoldi boshim?! Shundan keyin, yaxshilik qilay birovga... ahmoq!

Olloyorov peshanasiga urdi.

- Og'ir bo'ling, grajdanin Olloyorov. Demak, eslolmayapsiz?

- Xudo ursin, agar eslasam!

Kapitan tortmadan uzukli qutichani chiqardi.

- Endi esladingizmi?

- O'rtoq kapitan! Bizning magazinda faqat kiyim-kechak sotiladi. Bu narsani men birinchi ko'rishim.

- Nahotki?

- Ishoning, o'rtoq kapitan. Birinchi marta ko'rib turibman. Bu ham Saidovadan chiqdimi?

- Ha.

- Tavba, u demak, u juda ham nochor emas ekan-da. Menga doim shikoyat qilardi. Molni ham, iloji boricha, qarzga olishga harakat qilardi...

- Berarmidingiz?

- Ilojim qancha? Bechora "yo'q" desam, duv etib ko'z yosh to'kardi. Rahmim kelardi, o'rtoq kapitan! - Olloyorov ko'kragiga qo'llarini qo'yib, iltimos qildi: - Mening gumohimdan o'ting, ikkinchi bunaqa bemaza ishlarni qilmayman. Shayton yo'ldan urdi, o'rtoq kapitan! Onam yolg'iz, buning ustiga ko'rmaydigan bo'lib qolgan. Rahm qiling!..

Kapitan o'yga tolgan edi. Nima qilish mumkin? Avvalo shunday bo'lishini, Olloyorov tonishini bilgan edi. Xo'p, uni Saidova bilan birga ko'rishgan. Nima bo'libdi? Hatto fojia kuni birga bo'lgan bo'lsa ham, uni ayblash mumkin emas. Qo'lda hech qanday dalil yo'q. Uning olib sotarlighi esa fojiaga aloqasiz. OBXSS shug'ullanadi bu ish bilan. Hozir uni qo'yib yuborishdan boshqa iloj yo'q. Faqat shunday ko'yib yuborish kerakki, u cho'chimasin, uni kuzatishimizni ham sezmasin.

U o'rnidan turib, kabinetning u boshidan-bu boshiga yura boshladi. Olloyorov undan ko'zini uzmasdi. Anchadan So'ng kapitan uning oldida to'xtadi-da:

- Xo'p, bo'пти, sizga ruxsat, - dedi.

Olloyorov eshikka otildi. Lekin nimadir esiga keldi shekilli, to'xtadi.

- O'rtoq kapitan! Ishimdagilar nima deydi?

- Agar o'zingiz aytmasangiz?..

- Tushundim, o'rtoq kapitan. Rahmat. Olloyorov chiqib ketdi.

"Ha, bu odam bilan ehtiyot bo'lish kerak, - xayolidan o'tkazdi Aliev. - Iltiradigan narsa qo'limda yo'qligipi sezyapti. Bir jihatdan chaqirganim yaxshi bo'ldi. Tinchligini yo'qotdi endi u. Biron nojo'ya harakat qilib qo'yishi mumkin. Qilmasa-chi?"

U radiorubkani qo'ydi.

- Leytenant Sulonov!

- Eshitaman, o'rtoq kapitan?

- Olloyorovning hozir qayoqqa borishini kuzatish kerak.

- Xo'p bo'ladi.

- Ro'ziev kelmadimi?

- Yo'q hali, o'rtoq kapitan.

- Bo'lmasa yana bitta topshiriq: Olloyorov avgustning 13-14- da qaerda bo'lgan, aniqlash kerak.

- Aniqlangan, o'rtoq kapitan.

- Xo'sh?

- Olloyorov 13.8.14 avgustda ishda bo'lmagan.

- Qaerda bo'lgan?

- Samarqandda, o'rtoq kapitan.

- Nega ilgari aytmadingiz?

- Kechirasiz, o'rtoq kapitan. Hozir bildim. Uning mashinasini Jizzaxdagi avtoinspeksiya to'xtatgan.

- Nega?

- Tezlikni oshirgani uchun.

- Rahmat. Topshiriqni bajaring.

- Xo'p bo'ladi, o'rtoq kapitan!..

"Olloyorov Samarqandda bo'lgan. Demak, uzukni u sotib olgan, deb faraz qilish mumkin. Saidovaga sovg'a qilgan. Nega?.."

Kapitan qancha o'ylamasin bu savolga javob topolmadi. Uning taxminlari ko'p edi. Birinchi taxmin - muhabbat. Olloyorov Saidovani yaxshi ko'rib qoladi. Uni qo'lga olishga harakat qiladi. Saidova ko'nmaydi, eri bor. Buni Olloyorov ham biladi. Nima qilish kerak? Saidovanning molga o'chligini payqagan Olloyorov qimmatbaho sovg'alar qila boshlaydi. Aftidan, Saidova shunga ko'nikadi, keyinchalik esa o'rganib qoladi. Nega eridan ajramaydi? Shunday qilishi oson edi. Er-xotinni bog'laydigan bolalar yo'q o'rtada. Buning ustiga Olloyorov yolg'iz. Balki unga uylanishni Olloyorov istamagandir? Shunday yashash unga qulay tuyulgandir?

Kapitan oldidagi qog'ozga nimadir yozmoqchi bo'ldi, lekin uning bo'sh yeri qolmagan edi. Tortmadan yangi qog'oz olib, bitta belgi qo'ydi. Diqqat bilan qaralganda bu belgi o'q-yoy teshib o'tgan yurakni eslatardi.

Ikkinchi taxmin - Saidovanning o'zi. Olloyorov u bilan ishqiy aloqada bo'lmagan. Saidova undan qarzga mol ola boshlagan.

Nihoyat, qarz ko'payib ketgan. Olloyorov unga ishonmay ko'rgan. Fojia shunda yuz bergan. Kapitan yana bir belgi qo'ydi.

Birpasdan so'ng unga savol qo'ydi.

Kapitanni chuqur o'ylatib qo'rgan uchinchi bir taxmin ham bor edi. Ular ishqiy aloqada bo'lgan bo'lishlari mumkin. Olloyorov o'zi shu narsalarni sovg'a qilgan. Saidova olgan. Lekin evaziga nima bergan? O'zinimi? Nahotki u shunchalik qimmat tursa?

Olloyorovning atrofida chiroyli ayollar ko'p bo'lgan, hozir ham ko'p. Nega u Saidovani tanladi? Pulga o'ch odam bekordan-bekorga serharajat bo'lmaydi.

Kapitan qog'ozga "sh" harfidek uchinchi belgi qo'ydi-da, uni doiraga oldi.

Starshiy leytenant Ro'ziev kirdi.

- Xo'sh?

- Olloyorov asli urganchlik. 31-yilda tug'ilgan, - dedi Ro'ziev papkasini ochib. - 60-yilda uylangan. Ikki yil turib, xotini bilan ajrashgan. "Urgench" restoranida bufetchi bo'lib ishlagan. 60-yildan 61-yilning oktyabrigacha. Keyin Toshkentga ko'chib kelgan.

Bu yerda avval 2-taksoparkda shofer bo'lib ishlagan. Sirdan savdo texnikumida o'qigan. O'qishni bitirib, Eski Jo'va bozorida "Tohir va Zuhra" magazinida sotuvchi bo'lib ishlagan. Xalq xo'jaligi institutiga sirdan o'qishga kirgan.

1967 yili uni Markaziy univermagga tovaroved qilib olishgan. 68-yilning aprelida O'rta yer dengizi bo'ylab turistik sayohatda bo'lgan. O'sha yili, u institutni bitirgach, bosh tovaroved bo'lib "Gulchehra" magaziniga tayinlangan. Sudlanmagan. Uch marta ministrlkning faxriy yorlig'i bilan mukofotlangan. Chet elga chiqayotganda berilgan xarakteristika ham juda yaxshi. Shaxsiy delosida turibdi. Xullas, toza odam.

- Demak, toza odam... - dedi kapitan o'ylanib.

- Xuddi shunday, o'rtoq kapitan! - tasdiqladi Ro'ziev.

- Siz o'zingiz nima deysiz?

- Bir narsa deyish qiyin, Sobir aka... Radiorubkaning ko'k chirog'i yondi.

- Eshitaman, - dedi kapitan.

- O'rtoq kapitan! - leytenant Sultonovning ovozi eshitildi. - Olloyorov magazinga keldi.

- Juda yaxshi. Anvarjon, uyiga odam qo'ying. Qachon bo'lsa ham uyiga yaqinlashganida, xabar berishsin.

- Xo'p bo'ladi.

- Ha, bir narsa deyish qiyin... - Kapitan Ro'zievga o'girildi. - O'rtoq Ro'ziev! Yana bir ish qoldi. Saidova so'nggi bir yil ichida nima qilgan, nima bilan qiziqqan, albatta ishdan keyin, shuni aniqlashimiz kerak.

- Bu ancha qiyin...

- Lekin boshqa ilojimiz yo'q. Bilasizmi, men nimani o'ylayapman. Shunday qimmatbaho narsalarni faqat ayolligi uchun olganmikan yoki boshqa biror xizmat evazigami? Agar shunday bo'lsa, u qanday xizmat? Qotil ana shunda topiladi. O'zingiz o'ylab qarang. Eri bilan o'zining maoshini ko'shganda ham bu narsalarni ololmasligi, juda bo'lmaganda yarmisini, amri mahol. Buning ustiga Saidov, bilmayman, deyapti. Olloyorovdan ko'ra unga ishonch ko'proq. Bundan tashqari, biz uning ertalab uyidan chiqib ketganicha xotinini boshqa ko'rmaganini bilamiz. Qo'shila olasizmi shunga?

- Ha, o'rtoq kapitan.

- Saidova soat bir yarimdan keyin qaerda bo'lgan? Kimlar bilan uchrashgan? Bu hamon bizga qorong'i. Olloyorov tonyapti. Balki rost gapirayotgandir, hozir bir narsa deyish qiyin. Agar biz uning qiziqishlarini, nima bilan shug'ullanishini bilsak, masala ancha ravshan bo'ladi.

- Bunga bir necha kun ketadi.

- Turgan gap. Ikki kun sizga muhlat. Butun apparatni ishga soling. Istaangiz, Sultonovni ham oling.

- O'zimiz uddalaymiz. Boraveraymi?

- Ha.

Kapitan u bilan xayrlashdi-da, sekretarni chaqirdi.

- Menga o'simliklar biologiyasi institutining hamma materiallari kerak. Birinchi galda institut faoliyatiga doir...

- Xo'p bo'ladi.

Kapitan tushki ovqatdan so'ng kabinetiga qaytib kirganida stolning ustida turli xil broshyuralar, diagrammalar, avtoreferatlar qalashib yotardi. Bir chekkadan u broshyuralarni varaqlashga kirishdi. O'simliklar eksperimental biologiyasi instituti respublikadagi yangi ilmiy muassasa ekanligini u bildirdi. Qisqa muddat ichida seleksionerlar, bioximiklar talay ishlar qilib qo'yishganidan, yuzaki bo'lsa ham, xabari bor edi. Paxtaning yangi, viltga chidamli sortlari shu institutda yetishtirildi. Ikki yuz ming gektardan ortiq yerda shu paxta ekildi, yaxshi hosil ko'tarildi. Bundan tashqari, institut ximiklar bilan hamkorlikda viltning o'zini yo'qotadigan preparat ustida muvaffaqiyatli ish olib borayotgani ham kapitanga ma'lum edi. Saidov shu ishga aloqador. Ammo preparat tayyormi, yo'qmi, hali noma'lum edi.

Aliev broshyuralar orasida viltga chidamli paxta sortlari "Toshkent - I", "Toshkent - II" haqidagi maqolalarni ko'rdi. Lekin yangi preparat haqida hech narsa topmadi. Bu albatta tushunarli edi. Birinchidan, eksperiment hali tugagani yo'q, ikkinchidan, uni ovoza

qilishga hojat yo'q edi.

Aliev shu haqda o'ylar ekan, starshiy leytenant Abdullaev bilan gaplashib olishni miyasiga tugib qo'ydi.

Broshyuralarni tugatib, qo'lga endi bitta avtorefe-ratni olgan edi, leytenant Sulstonov kirib qoldi.

- O'rtoq kapitan! Olloyorov o'z "Moskvich"ida Eski shahar tomon ketdi. Serjant Qoraboev uni kuzatib boryapti.

- Juda yaxshi.

- Yana bir yangilik! - dedi leytenant.

- Xo'sh?

- Samarqanddan xabar keldi. 14 avgust kuni sotilgan uzukni Olloyorov olgan ekan. Magazinchi uning suratidan tanibdi.

- Bu chindan ham yangilik! - Kapitan sevinib ketdi. - Rahmat, Anvar! Chek kvitansiyasi sizdami?

- Ha.

- Manavi qutichadagi iz bilan solishtiring. Boya Olloyorovga ushlatdim.

Kapitan uzuk qutichasini leytenantga uzatdi.

- Endi u bizdan qutulolmaydi! Lekin baribir... ba-ribir qotil ma'lum emas. - Kapitan o'rnidan turdi. - Qo'limizda yana bir dalil bor.

Bu, gazeta parchasi. Agar shu ham to'g'ri chiqsa, unda ishimiz ancha yurishadi.

- O'rtoq kapitan! Qotil... Olloyorov deb o'ylaysizmi? - so'radi leytenant.

- Hozir bir narsa deyish qiyin... Radiorubkaning ko'k chirog'i yondi.

- Kapitan Aliev eshitadi.

- O'rtoq kapitan, serjant Qoraboev gapiryapti. "Mos-kvich" Samarqand darvoza tomon yo'l oldi. Buyrug'ingizni kutaman.

- Men yetib borguncha kuzating.

- YestKj, o'rtoq kapitan!

- To'xtang! Agar mendan oldin uyga yetib borsa, kiritmay turing. Eshitdingizmi?

- Eshitdim, o'rtoq kapitan! Mashina hujjatlarini surishtirib turaman.

- Bo'пти!

Kapitan leytenantni o'z o'rnida qoldirdi-da, shoshib kabinetdan chiqdi.

Samarqand darvozaga yetib kelganida, ko'chaning og'zida mashinalar qalashib yotardi. Nima bo'lganini tushunmay, shu yerda

mashinadan tushdi. O'ttiz metrcha yurganidan keyin ko'ndalang turgan qizil "Moskvich"ga ko'zi tushdi. Uning oldida qorachadan

kelgan, jikkak serjant turardi. Kapitanni ko'rib chestKj berdi, boshqa ilojim yo'q edi, degandek yelkalarini qisib qo'ydi. Mashina

ichida terga botgan Olloyorov turardi. U zo'r berib mashinasini qayirmoqchi bo'lar, yo'lning torligi, odamlar bunga xalaqit berardi.

- Nima bo'lyapti? - so'radi baland ovozda kapitan.

- Pravasiz haydayapti, o'rtoq kapitan, - dedi serjant.

Kapitanni ko'rib, Olloyorov mashinadan chiqdi.

- O'rtoq kapitan, pravam boshqa kiyimimda qolib ketibdi. Uyim shu yerda. Olib chiqay desam, qo'ymayaptilar.

- O'rtoq serjant, bu gal kechiring.

Serjant tushundi va Olloyorovga o'qrayib qaradi.

- Ikkinchi bunday bo'lmasin.

- Ketavering, serjant.

Kapitan shunday deb serjantga ma'nodor qarab ko'ydi.

- Rahmat, o'rtoq kapitan.

Odamlarning e'tiborini tortmaslik uchun kapitan boshini qimirlatib yo'lga tushdi. 16/44 raqamli ko'k darvoza oldiga kelganda

to'xtadi. Bir ozdan so'ng Olloyorov ham mashinasida yetib keldi.

- Mehmonni qabul qilasizmi?

- Ie, marhamat, marhamat!

Olloyorov xuddi xursand bo'lganday mashinadan tushdi, lekin o'ynab turgan ko'zlaridan uni vahima bosganligini kapitan darrov payqab oldi.

Olloyorov darvozani ochib, mashinasini hovliga olib kirdi.

- Qani, marhamat!

Kapitan ichkariga kirdi. Hovli tor edi. Ikki tup olma, bitta, deyarli butun hovliga soya tashlab turgan o'rik... Daraxtlarning tagiga

beda sepilgan. Anchadan beri qarovsiz qolgan shekilli, bedani sassiq o't, chim, qiyoq bosib ketgan edi. Umuman, hovli ko'chib

ketgan odamning tashlandiq uyini eslatardi. To'rda kichkina ikki ustunli rovon ko'rindi.

- Qani, xush ko'rdik, - shu tomonga boshladi Olloyorov.

Ular rovonga ko'tarilishganda, kapitan burchakdagi xontaxta yonida o'tirgan kampirni ko'rib, cho'chib ketdi. Kampir unga

tikilganicha, xuddi haykaldek qotib qolgan edi.

- Ena, mehmon keldi, - dedi Olloyorov. Kapitan salom berdi.

Kampir yuzidagi ajinlari tortilib, tamshandi.

- Ko'rmaydilar, - tushuntirdi Olloyorov ichkari xonaning eshigini ochar ekan.

- Nima qilgan? - so'radi kapitan ichkariga kirganda.

- E, siz so'ramang, men gapirmay!.. G'amning izi, g'amning. Dadamdan qoraxat kelgach, bu kishini quritdi...

Bu xona ancha durust edi. Devorda ham, polda ham gilam... Bir kishilik qizil mebelKj... Bufetda har xil xrustalKj idishlar...

- Qani, o'tiring! - taklif qildi Olloyorov qizil material qoplangan kresloni ko'rsatib.

Kapitan o'tirdi.

- P\$PsPN€ PëC‡P°CÍPëP·PjPë, C°... - PhP»P»PsC'CBPsPI P±CfC,,PµC,PiP° PëC€PsCBP° T>PëP»PrPë. - PµCfP·PrPµPe
PIPëPSPs P¶CfPrP° PëPµC,P°PrPëPrP° TiPsP·PëCB!

Kapitan e'tiroz bildirib ulgurmasidan Olloyorov chiqib ketdi. Birpasda u bir qo'lida bir lagan tarvuz, bir qo'lida bolgar vinosini ko'tarib kirdi. Bufetdan fujerlar olib qo'ydi.

- Marhamat. Sog' bo'ling, aka!

Kapitan bir qultum vinodan ichdi, fujerni qo'ydi. Uning ko'zi kitob shkafiga tushdi. Flober, Mopassan, Chexov tanlangan asarlari.

Oyna tagidagilari ko'rinmadi.

- Kitobni yaxshi ko'rasizmi, deyman?

- Kim kitobni yomon ko'radi, aka? Yaqinda "O'tgan kunlar"ni yana bir o'qib chiqdim. Ana kitob!.. Qoyilman, yozuvchisiga.

- Gazeta, jurnallar ham olib turarsiz unda?

- Albatta. "Guliston" olaman, "Pravda Vostoka", "Toshkent oqshomi"...

- Ha, durust, "Toshkent oqshomi"ga bir asar chiqa-yotuvdi.

- Shpion haqidami? O'qidim. Yaqinda tugadi. Zo'r asar ekan. Shu bizning chekistlarimizga ham qoyilman. Qildek narsani ham ko'rishadi. Shunday bo'lishi ham kerakda. Zamon notinch. Keldi-ketdi ko'p. Bitta-yarimta olako'zi yo'q deysizmi ichida.

O'qidingizmi?

- Hammasini emas. II bobidan keyin o'qiy olmadim.

- Albatta, albatta. Ishingiz ko'p. Bu yog'i juda qiziq. Vaqt topsangiz, o'qing albatta.

- Sizda bormi? - so'radi to'satdan kapitan.

- Albatta, bor. Men hech gazetani yo'qotmayman. Vaqt bo'lmay o'qiy olmasam ham, tikib qo'yaman. Keyin o'qiyman. Hozir beraymi?

- Agar og'ir bo'lmasa!

- E, aka, og'irligi bor ekanmi? Hozir-da!

Olloyorov kitob shkafining eshigini ochib, bir dasta gazeta oldi.

- Bu bir oyli. Avgust. Asarning boshi ham kerakmi?

- Yo'q, - dedi kapitan, - boshini o'qiganman.

- Ammo lekin zo'r asar ekanda. Kinoini chiqadi, deb eshitdim. Rostmi shu?

- Bilmadim...

Kapitan gazetalarni bir boshdan varaqlay boshladi. Olloyorov to'g'ri aytgan edi. Gazeta sonlarining hammasi bor. Nega yig'ar ekan?

- Durust ekansiz. Hamma sonlari borga o'xshaydi.

- Hammasi, aka. Gazetani hech yo'qotmayman. Studentlikdan qolgan kasal. Texnikumda o'qib yurganimda, matematika domlamiz bor edi. Bechora infarktdan o'lib ketdi. Shu aytardi, savdo xodimlarini ko'pchilik, omi, puldan boshqa dardi yo'q, deb o'ylaydi.

. Senlar, juda bo'lmasa, gazeta o'qinglar. Vaqtlaring bo'lmasa olib qo'ylaring, hammasini bir qilib o'qiyanlar. Men shunday qilaman, derdi. Shu odat bo'lib qolgan. Bir yilgacha yig'aman, keyin tashlab yuboraman.

Kapitan 19 avgust soniga keldi. Beixtiyor yuragi dukillab ura boshlaganini sezdi. Olloyorov uning hayajonga tusha boshlaganini payqamasligi uchun, qo'li keyingi varaqqa qarab ketayotgan bo'lsa ham, jo'rttaga shu sondagi materiallarga ko'proq qaradi, keyin yangi varaqni ochdi.

20 avgust! Tezda unga ko'z yugurtdi-da, keyingisini ochdi.

21 avgust ham bor edi. Birinchi betning o'ng tomonidagi tepa burchak yo'q! Yon cho'ntagidagi gazeta parchasi badaniga botayotgandek bo'lib ketdi. Gazetaning yirtilgan joyiga diqqat bilan qaradi. Ha, bu o'sha Munis Saidovanning sumkasidan chiqqan va hozir cho'ntagini kuydirayotgan parchaning o'rni edi. Kapitan og'ir nafas olib, o'zini kresloga tashladi.

- Ha, yaxshi asar. Kino qilsa, arziydi. - U bir oz o'ylanib turdi, keyin boshini ko'tardi. - O'rtoq Olloyo-rov!

- Eshitaman, aka?

- 21 avgust kuni kechqurun qaerda edingiz?

- 21 avgust kuni kechqurun?! Hozir... hozir... Uyda edim, o'rtoq kapitan. Nima edi? Yana so'roq boshlandi shekilli?

Olloyorov istehzoli jilmaydi.

- Saidova bilan birga. Shundaymi?

- Yolg'iz! Uni men o'sha kuni ko'rganim yo'q.

- Ko'rgansiz, o'zingizni paysalga solmang.

- Men uni ko'rganim yo'q. Isbotlay olmaysiz.

- Mana isbot! - Kapitan gazetaning yirtiq joyiga qo'lini tashladi.

- Nima qilibdi? Yirtiq gazeta... Yirtgan bo'lishim mumkin nimagadir. Siz yirtmaysizmi?

- O'sha yirtiq parcha Saidovanning sumkasidan chiqdi. Boya siz tan olmagan uzuk qutisi unga o'rog'liq ekan.

- Bo'lishi mumkin emas! Ishonmayman! Tuhmat bu!

- Ishonmasangiz, mana, ko'ring.

Kapitan cho'ntagidan gazeta parchasini olib, Olloyorovga uzatdi. Olloyorov uni olar ekan, qo'li titrar, rangi dokadek oqarib ketgandi.

- Endi nima deysiz?

- O'rtoq kapitan, - Olloyorov bo'shashib gazeta parchasini stolga qo'ydi. - O'rtoq kapitan, men sizni aldadim. Rost, o'sha kuni Saidova kelgan edi. Nimadir so'radi. Esimda yo'q, hozir. Keyin o'sha uzukni ko'rsatdi.

- Xo'sh? - qiziqib so'radi kapitan.

- Chiroyli uzuk, dedim, - davom etdi Olloyorov. - Buyursin, dedim. Keyin qutisiga solib, bir narsaga o'rab olay, dedi. Oldimda gazeta turgan edi, yirtib berdim.

- Yana yolg'on gapiryapsiz. Uzukka pul to'langan chekda sizning qo'l izlaringiz bor. Siz bu uzukni 14 avgust kuni Samarqandda olgansiz. - Olloyorov jim boshini egdi. - Endi ayting, Olloyorov, nima sababdan qimmatbaho sovg'alar qildingiz Saidovaga? Faqat rost gapiring.

- Xo'p, o'rtoq kapitan. - Olloyorov xo'rsindi. - Buning tarixi uzun, o'rtoq kapitan.

- Men shoshmayapman.

- Kechirasiz.

- Gapiring.

- Men uni, Munisxonni, bir ko'rishdayoq yaxshi ko'rib qoldim, o'rtoq kapitan. Ishoning, shunday yaxshi ko'rib qoldimki, jinni bo'layozdim. Na ishimda halovat bor, na uyqumda. O'ylayman, o'ylayman, soatlab, kunlab kutaman. Siz uni ko'rmagansiz. Juda chiroyli ayol edi u. Chiroyli bo'lmasa ham, yoqimtoy. Xullas, mening dilimdagi ayol edi. Afsus, eri bor ekan. Lekin yurak bilan nima qilib bo'lardi? Shunday bo'lsa ham, avval ancha o'zimni bosdim. Hoy, janjalga yo'liqma, endi oyoqqa turib kelayotgan

odamsan-a, dedi aql. Yurak qurg'ur quloq solmadi. Baxtinga deymi, yo buning aksimi, Munisxon kiyim-kechakni yaxshi ko'radigan ayol ekan. Kimning egnida yaxshi bir narsa ko'rib qolsa yugurib keladi, topib bering, deydi. Topib beraman. Bir kuni qaysi bir o'rtog'ida angliyskiy kofta ko'rib qolibdi. Keldi. Hali bu moldan bizda yo'q edi. Hamma tanishlarimga telefon qilib chiqdim. "Tohir va Zuhra"da bitta bor ekan, o'zim borib olib keldim. O'shanda, o'rtoq kapitan, shayton meni yo'ldan urdi. Niyatimni aytdim. To'g'rirog'i, restoranga taklif qildim. Ko'nmedi. Uyiga olib borib qo'yayotganimda, ertaga telefon qilaman, dedi.

- O'tgan yili kuzdami? - so'radi kapitan. Olloyorovning ko'zlari olayib ketdi.

- Siz qaerdan bilasiz?

- Davom eting, - kapitan sigaret tutatdi.

- Ha, o'tgan yili kuzda...

- Xo'sh, gapiring, gapiring!..

- Ertasiga... ertasiga soat o'n ikkilarda telefon qildi. Men, dedi, kechqurunlari bandman, uyda bo'lishim kerak. Istasangiz, birga tushda ovqatlanishimiz mumkin. Yo'q deb bo'ladimi? Sevining ketdim. O'sha kuni uchrashdik... Aeroport restoraniga olib bordim. Ozigina ichdik. KonKjyak. Keyin... keyin qaytayotib mashinani Beshyog'och tomon burdim. Qayoqqa ketyapmiz, deb so'rovdi, kofe, turkcha usulda qora kofe ichamiz, dedim. Kofe tayyorlashga ustaman. Agar istasangiz, hozir sizga ham tayyorlab beraman. Shoshmayapman deyapsiz?

- Rahmat, - dedi kapitan. - Hojati yo'q. Davom eting.

- Yo'q, demadi. Uyga olib keldim. Shu xonaga... O'rtoq kapitan, bu yog'ining qizig'i yo'q. Xullas, haftada bir kelib turadigan bo'ldi.

- Kunduzlari?

- Ha, kunduzlari, eri... eri yo'g'ida kechqurunlari ham. Ertalab telefon qilib xabar berib qo'yardi kachon kelishini...

- Ishxonagami?

- Ha, uyda telefonim yo'q. Magazinda o'zimning alohida telefonim bor. O'rtoq kapitan, mening niyatlarim xolis edi. Unga uylanmoqchi edim. Ko'p marta gapirganman. Kulardi. Shuning o'zi yetmaydimi, derdi. Lekin baribir uni ko'ndirmoqchi edim. Hech narsamni ayamadim. Dur ham olib berdim, uzuk ham, zirak ham...

- Yana nima?

- Boshqa hech narsa, o'rtoq kapitan! Xudo ursin!

- 21-da nechalarda u oldingizdan ketdi?

- Hozir... hozir... To'qqizlarda. Ha, roppa-rosa o'nda. Televizorda o'nda kino bor edi. U ketishi bilan burasam, boshlandi. Buni qarang, o'rtoq kapitan! Falokat oyoq ostida turadi, deb shuni aytishar ekan-da. Ketmang, deb biror soat olib qolsam bo'lmasmidi? Olib borib qo'ysam ham bo'lardi. Aytsam ham, yo'q, dedi. Eh, o'rtoq kapitan, bu dunyo shunaqa ekan, bugun borsiz, ertaga esa...

- Nima kinoni ko'rdingiz o'sha kuni?

- O'sha kunimi? "Urush va tinchlik".

- Qaysi seriyasi ekan?

- Uchinchi seriyasi. "Andrey Bolkonskiy". Ko'rganmisiz?

Kapitan javob bermadi. "Artistning o'zi, - O'ylardi u. - Tutib ololmayotganimizni sezyapti. Baribir tutish kerak. Lekin qanday qilib? Qo'rqitaymi? Yo'q, bu qo'rqmaydi. Oralarida chindan ham muhabbat bormidi? O'xshamaydi. Bu ham uni yengil qo'lga tushirgan, u ham shunday, yengil o'zini sotgan. Bu ko'rinib turibdi. Lekin bu soxta muhabbatning tagida nima bor edi? Nega o'ldirdi? Nimadan ko'rkdi? Eri bilib qoladi debmi? Erining bunga nima aloqasi bor? U xotinini tiyib olsin. Nega, nega o'ldirdi? O'zi o'ldirdimi?.."

Rovonda nimadir taqillab ketdi. Olloyorov shoshib o'rnidan turdi-da, eshikni tepib yubordi. Eshik orqasida ko'zlarini bir nuqtaga tikkan kampir turardi.

- Yana quloq solyapsanmi? - qichqirdi Olloyorov. Kampir miq etmadi, qonsiz lablari nimalarnidir shivirladi, keyin sekin burilib, devorga qo'lini qo'ydi-da, ko'zdan yo'qoldi.

- Kechirasiz, - Olloyorov zo'rg'a jilmaydi. - Bechora yolg'iz zerikadi...

Kapitan buni o'zicha tushundi.

- Ha, men hozir ketaman. Televizor qaerda?

- Narigi xonada. Kampir eshitsin deymanda.

- Demak, o'nda boshlandi deng kino?

- Ha, roppa-rosa o'nda. Munisxon shundan bir-ikki minut oldin ketdi. Ishonmayapsizmi, o'rtoq kapitan?

- Saidovanning ketganigami? Ishonaman. U ketmasa, balki omon qolardi...

- Shuni ayting, o'rtoq kapitan, shuni ayting! Qancha iltimos qildim bo'lmasa!

- Saidova o'n bir bilan o'n ikki o'rtasida o'ldirilgan! Siz televizor ko'rib o'tirgan paytingizda.

- Attang! Attang! O'rtoq kapitan, eri biladimi?

- Nimani?

- Men bilan... haligi...

- Buning nima ahamiyati bor?

- Bu gapingiz ham to'g'ri. Bechora qiynalmasin, deymanda. Shu azobning o'zi kammidi?..

"Uni hozir qamay olmaymiz, - O'ylardi kapitan. - Yana bir narsa topish kerak, yana bir narsa..."

- Xo'p, hozircha yetar. Aytganday, Saidova nechada keldi siznikiga?

- Oltalarda. O'tirsangiz bo'lardi, - Olloyorov shunday dedi-yu, lekin kapitandan oldin o'rnidan turdi.

- Boshqa gal.

Kapitan rovonga chiqdi, beixtiyor yoniga qaradi. Kampir yana unga ko'zlarini tikkanicha, haykaldek qotib o'tirardi. O'zi sezmaganda eti jimirlab ketdi.

O'n minutdan so'ng u idorasiga qaytar ekan (Olloyorovning uyidan piyoda Chorsuga chiqqunicha shuncha vaqt ketdi), leytenant Sultonov bilan bog'landi.

- Anvar! Tezda telestudiya bilan bog'laning. 21 avgust-da 21.00 dan 24 gacha nima berilgan, aniqlang, e'lon qilingan programma bilan solishtiring.

- Xo'p bo'ladi, o'rtoq kapitan.

Ha, manzara endi unga ancha oydinlashgan edi. Munis Saidova o'sha kuni bir yarimda institutdan chiqqan. Besh yarimlarda

Chorsu yo'lida bo'lgan. Olti bilan o'n o'rtasida Olloyorov bilan maishat qilgan. ("Buncha uzoq?" - xayolidan o'tdi uning). To'qqizda ko'chaga chiqqan. Ha, o'n besh minutdan so'ng Chorsuda bo'lgan. Tramvay kutgan. Nahotki shu paytda bu yerda hech kim bo'lmagan bo'lsa? O'ndan o'n besh-yigirma minut o'tganda qotil paydo bo'lgan. Gap, janjal. Saidova nimagadir rozi bo'lmagan yoki qotilni ayblagan. Nimada ayblagan? Kapitan xayolan qog'ozga yana bitta belgi qo'yib qo'ydi. O'n bir yarimda esa fojia yuz bergan. Ammo shu yerda yuz berganmikan? Olib kelib tashlagan bo'lsachi? Unda hech kim ko'rmay qolgani tabiiy. Bekat qorong'i. Bittagina fonarkj turibdi. U ham singan. Kapitanning nazarida yana ikkita narsani aniqlash qolgan edi. Birinchidan, fojia qaerda yuz berdi? Ikkinchidan, uning sababi. Qotil Saidovning tanishi ekanligiga unda shubha qolmagan edi. Yoki uning ikkinchi Olloyorovi ham bo'lganmikan? O'z-o'zidan tug'ilgan bu savol kapitanning xayolini marhumaning eriga olib ketdi. Rahim Saidov bilib qolgan bo'lsa-chi? O'sha kungi ertalabki janjal uzukdan emas, "o'ynash"dan chiqqan bo'lsa-chi? Kechqurun xotinini tutib olgan yoki Olloyorovning uyidan o'zi olib ketgan bo'lsa-chi? Unda fojia Chorsuda yuz bergan bo'ladi. "Har holda bu taxmini ham xayoldan chiqarmaslik kerak", - O'yladi kapitan.

U kabinetga kirganda leytenant Sultonov haftalik televizion programma bilan o'tirardi.

- Xo'sh?

- Aniqladim, o'rtoq kapitan, - leytenant o'rnidan turdi. - Soat 21da "Istiqbol egalari" telejurnali ketgan. O'z vaqtida. Besh minut kech tugagan. Yigirma bir qirqda tugash o'rniga yigirma bir qirq beshda tugagan. Keyin televizion yangiliklar boshlangan. Bu ham o'z vaqtida. O'nga ikki minut qolganda Moskva ulangan. Intervidenie orqali Sofiyadan klassik kurash bo'yicha Jahon birinchiligi olib ko'rsatilgan.

- Nima? - hovliqib ketdi kapitan.

- Klassik kurash bo'yicha Jahon birinchiligi, - qaytardi leytenant Sultonov.

- Programmada nima?

- Programmada "Urush va tinchlik" kinofilkjm'i e'lon qilingan. Uchinchi seriya. FilKjm o'ndan qirq to'rt minut o'tganda boshlangan.

- Leytenant!..

- Eshitaman, o'rtoq kapitan!

- Qotil topildi!..

- Kim, o'rtoq kapitan?

- Olloyorov!

- Buni qarang, men bechora Saidov bo'lsa kerak, deb yuruvdim.

- Mening ham gumonim bor edi.

- Qamoqqa olaymi?

- Shoshmang, shoshmang, leytenant. Qamash qochib ketmaydi. Hozir uyida tintuv o'tkazish uchun order tayyorlang.

- Qachonga?

- Ertaga.

- Xo'p bo'ladi, o'rtoq kapitan.

- Birga boramiz. Gruppangizga ayting, unga ko'z-quloq bo'lib turishsin. Endi men uyga boray.

- Xayr, o'rtoq kapitan.

- Omon bo'ling.

Kapitan ko'chaga chiqdi. Qorong'i tushgan, issiqning tafti bosilib, mayin shamol esardi.

- Qayoqqa boramiz? - so'radi shofer mashinaga o'tirganda.

- Uyga.

Shofer hayron bo'lib unga qarab qoldi.

- Ha?

- Ishonmayapman. Kelinoyim ham toza hayron qolsalar kerak.

- Bir uydagilar bilan birgalashib ovqat yeyay...

- Men ham, Sobir aka, - dedi shofer jilmayib. Ikkovlari kulib yuborishdi.

8

- Munis... Munisdan menga ancha mol qolibdi... - Rahim Saidov kulimsirab dadasiga qaradi.

- Qanaqa mol? - tushunmadi Said aka.

- Tilla, dur... Mana, - Rahim Saidov cho'ntagidan durni olib otasi oldiga qo'ydi.

U aytmoqchi emas edi. Qo'qonga borib kelganiga boshqa sabab topmoqchi edi, lekin otasini ko'rib, bu fikridan qaytdi. Nima qiladi yashirib? Qaynatasi bildi, o'rtoqlari bildi, militsiya biladi, otasi eshitmaydimi? Eshitadi. Keyin otasi bironing ustidan kuladigan odam emas, tag'in o'g'lining ustidan. Shu qarorga kelib, u uyatni yig'ishtirdi.

Said aka durni qo'lga olmadi, unga bir oz tikilib turdi-da, o'g'luga ko'zlarini tikdi.

- O'zinikimi?

- Ha, faqat o'ziniki. Men olib bermaganman.

- Puli bor ekan-da?

- Qayokda bo'ladi?! Tramvayga ham mendan so'rardi.

- Mendan so'rardi? - hayron bo'ldi Said aka.

- Pullaring o'rtada emasmidi?

- O'rtada edi. Maoshimni olishim bilan qo'lga tutqizardim. Undan o'n besh so'm olib qoldim. Buni ham o'ziga ko'rsatib. O'zining maoshini surishtirmaganman ham, ko'rmaganman ham.

- Unda o'zi olgan bo'lsa olgandir. Nega xunob bo'lyapsan?

- Buning qancha turishini bilasizmi? Ming so'm! Yana militsiyada shunchasi bor.

- Nimaning?

- Pulni-da! Zirak, uzuk. Ular ham ming so'mcha turar ekan. O'ziniki u yokda tursin, mening bir yillik maoshim ham yetmaydi bunga.

- Unda nima, oyog'i egri ekan, demoqchimisani? Rahim Saidov boshini egdi.

- Qo'qonga shuning uchun bordingmi?

- Ha, - dedi Rahim Saidov eshitar-eshitilmas. Said aka jim qoldi. Qoshlari chimirildi. Yirik qo'llari bilan soqolini tutamlay boshladi. Jahli chiqsa u doim shunday qilardi. Rahim Saidov buni yaxshi bilardi.

- Yaxshi qilmabsiz, o'g'lim, - dedi u nihoyat. - Ularning o'z tashvishi boshlaridan oshib yotibdi. Bu yangilik ularni qaysi ahvolga soldi ekan? Qachon bildingiz buni?

- Kecha.

- Kecha bildingizu, yugurdingizmi? Juda bo'lmaganda men bilan maslahatlashsangiz bo'lardi.

- Dada, Qo'qonga shu xabarni yetkizgani borganim yo'q edi. Onasini bilasiz. Shunaqa narsalarga o'ch. O'sha berganmikan, deb o'yladim. Uniki emas ekan. Bittasi ham uniki emas ekan.

- Shunday bo'lsa ham, bekor qilibsiz... Bunchalik shoshilishga hojat yo'q edi. Ularda nima gunoh?

Rahim Saidov nima deyishini bilmay qoldi. Bunday qaraganda, otasi haq edi. Ularda nima gunoh? Qizlarini shu rasvo yo'lga ular boshlabdimi? Yo bilib-bilmaslikka olibdimi o'zlarini? Surishtirilsa, ayb uning o'zida. Xotinini eplolmagan erkak, qanday erkak. U otasining gaplaridan xuddi shu gaplarni uqqandek bo'ldi. Esiga Qo'qondagi marosim payti mast yigit aytgan so'z keldi.

Peshanasidan sovuq ter chiqib ketdi, seskanib boshini ko'tardi. O'zini oklamoqchi bo'lib, og'iz juftlagan edi, laganda osh ko'tarib opasi kelib qoldi.

- Bir yutum ham tomog'imizdan o'tgani yo'q, shunday qoldi kecha. Odam degan bundoq bo'lmaydi. Uyingga Muhabni...

Hakima opaning ko'zi durga tushib gapi chala qoldi.

- Bu nima?

- Keliningniki ekan, - dedi Said aka.

- Dur-ku?!

Hakima opa laganni qo'yib, durni qo'liga oldi.

- Taqqanini ko'rmagan edim. Yaqinda olib beruvdingmi? Rahim Saidov yer ostidan otasiga qaradi. Said aka bilinar-bilinmas boshini qimirlatib qo'ydi. -Ha.

- Buyurmabdi-da. Yaxshi dur ekan.

- Qani, Rahim, osh sovumasin. - Said aka gapni burdi. - Hoynahoy kechadan beri ochdirsan? Ol.

Rahim Saidov otasidan minnatdor bo'lib, oshga qo'l uzatdi. U bir necha kundan beri birinchi marta qorni ochganini sezdi va ishtaha bilan yeya boshladi. Umuman, u o'z uyida, onasi pishirgan ovqatni yeyishni yaxshi ko'rardi. Shu yerdagina ovqat yegandek bo'lardi. Hakima opa yaxshi pazanda edi. Tez va mazali pishirardi. Nima qilmasin, unda faqat uning o'ziga xos bir narsa bo'lardiki, yegan sari odamning yegisi kelardi. Rahim Saidov nimaligini aytib berolmaydi, har holda onasi tayyorlagan ovqat hech kimnikiga o'xshamasdi. Buni birinchi marta yangi uyga ko'chib borganida bildi.

Yuklarini tushirib, stol-stullarni joy-joyiga qo'yib bo'lishgach, Munisxon ovqatga unay boshladi. Hakima opa so'nggi mashina jo'nayotganda ko'zida yosh bilan bir korzinka narsa, bitta ichi kuydirilgan yaxshi qozon berib yuborgan edi. Munisxon korzinkani ochdi. Kartoshka, piyoz chiqdi undan. Bir paket guruch. Yonida gazetaga o'rog'lik go'sht va to'g'ralgan sabzi. Bir shisha paxta yog'i ham bor edi. Oshxonadagi stolga shularni terib qo'ydi-da, Rahim Saidovni chaqirdi, qaynanasi sha'niga yaxshi gap aytgisi keldi.

- Buni qarang, ayam boyoqish, shuncha narsa berib yuboribdilar. Nima qilib beray?

- Biron narsa bilasizmi o'zi? - Hazillashdi Rahim Saidov.

- Voy, nima deyapsiz! Ayamlardan yaxshi qilarman!

- Bo'lmasa, nima istasangiz, shuni qiling. Siz tayyorlagan ovqat zahar bo'lsa ham yeyman.

Rahim Saidov xotining yuzidan o'pdi.

- Bo'ldi, bo'ldi, boring. Biram shirin ovqat qilayki... Ko'p o'tmay, ancha yuk tushirib horigan Rahim Saidovning dimog'ini piyozdog' hidi qitiqlay boshladi. Endi jahli chiqib, onasining ovqatlarini eslay boshlaganda, ovqat pishdi. Munisxon jarkop qilgan edi. Rahim Saidov ovqatga qaradi-yu, nafasi ichiga tushib ketdi. Piyozni kuygan, kartoshkaning atalasi chiqib ketgan edi, go'sht qorayib, toshdek qotgan. Bitta jazni og'ziga solib, zo'rg'a chaynab yutdi-yu, afti burishib ketdi.

- Tuz esimdan chiqibdi, - dedi Munisxon jilmayib. - Xafa bo'lmang, hozir namakob qilib ustiga sepaman, binoyidek bo'ladi.

Albatta, Munisxon keyin o'rganib ketdi, mazali ovqatlar qiladigan bo'ldi. Hech qaysi ovqat, baribir, onasining o'xshamasdi.

Qaynanasi ham yaxshi ovqat pishirardi. Biroq u ham Rahim Saidovning nazarida onasiga teng kelolmasdi. Balki bu o'rganishdandir? Lekin bitta narsani u yaxshi bilardi. Hakima opa masallig'ni urintirmay ovqat qilardi, har bir narsa o'z mazasi bilan ajralib turardi. Hozirgi osh ham, isitib kelganiga qaramay, juda yeyishli edi.

- Bolam boyoqish-ey... - dedi Hakima opa uning shoshilib ovqat yeyishiga tikilar ekan. - O'zingni juda oldirib qo'yibsan, tuzuk-tuzuk ol.

Rahim Saidov qorni to'yib, qo'lini artdi.

- Ishgami hozir? - so'radi Said aka. -Ha.

- Birga ketamiz.

- Ha, siz qayoqqa? - Hakima opa eriga qaradi.

- Bir kombinatga o'tib kelay...

- Putyovkani surishtirib qo'ying. Qirqni o'tkazib, bir dam olib kelasiz.

- Ko'ramiz.

Said aka o'rnidan turdi. Eshikka chiqishganda u so'radi.

- Nima qilmoqchisan?

- Nima qilardim?..

- Ishlash kerak, - dedi Said aka. - Ishda odam hamma narsani unutadi. Qotil... qotilni sensiz ham topishadi. Xo'pmi?

- Xo'p, ada.

Ko'nglida otasining maslahatiga qo'shilmasa ham, hozir uning borligidan, unga mehr bilan gapirayotganidan, yosh boladek uning oldida bosh egib turganidan u xursand edi. Yaxshi ham ular bor. Onasi bor. Qayoqqa borardi, kimning oldiga shunday bor g'amini, kulfatini ko'tarib kelardi?

- Ma'rakalarni o'ylama. Qildik. Bu yog'ini ham o'zimiz, chol-kampir o'tkazamiz. Bora qol endi.

Rahim Saidov ko'ngli ko'tarilib, ishxonasiga ketdi. Institut darvozasidan kirayotganda direktorning mashinasiga duch keldi.

- Chaqirishyapti, - dedi Sulaymon aka mashina derazasidan boshini chiqarib. - Preparatni so'rashyapti.

- Nima deysiz?

- Nima deyman? Javobimiz tayyor. Bir haftadan so'ng ishlab chiqarishga topshirsak bo'ladi. Yo ertami?

- Yo'q. Bir hafta yetadi.

- Rahimjon! O'zing qarashib yubor, kechikmaylik. Yo boshqa planlaring bormi?

Direktor shunday deb mashinadan tushdi.

- Yo'q, hech qanday planim yo'q.

- Agar istasang, otpuska berishim mumkin. Bir oy dam olib kel. A, nima deysan?

- Kerak emas, Sulaymon aka. Ishni bitiraylik.

- Men ham shunday deysan, deb o'ylovdim. - Sulaymon aka Rahim Saidovning yelkasiga qoqib qo'ydi. - Ezilganning foydasi yo'q.

Yolg'iz har qayoqlarda yurganingdan ko'ra, institutda bo'lganing ma'qul. Xo'p, men ketdim. Prezidentning o'zi chaqiribdi.

Sulaymon aka mashinasiga o'tirdi. Rahim Saidov ustozining ketidan birpas qarab turdi-da, to'ppa-to'g'ri laboratoriyaga qarab yo'l

oldi. Bu yerda ish qizg'in ketayotganini u yaxshi bilardi. Viltga qarshi tayyorlangan dorining sostavini ham teplitsa, ham ochiq

sharoitda tekshirib chiqish bir yildan ko'p vaqtni oldi. Ammo hali ham tugamagan. Endi nihoyasiga yetib qolayotgan edi. Hafiz

aralashmaganida, kim biladi, yana qancha cho'zilardi. Uning qo'li gul. Shuning uchun ham sinovning hammasini u Hafizga

topshirdi. Natija yaxshi. Sulaymon akaning xursandligi bejiz emas. Agar fojia yuz bermaganda preparat allaqachon tayyor

bo'lardi. Fojia uning rejalarini buzib yubordi.

Rahim Saidov shuni o'yladi-yu, yana yuragini sanchiq tutganini sezdi. Tishini tishiga qo'yib ijrig'andi.

Laboratoriyaga kirganida olisdan uni ko'rib, Hafiz qarshisiga yurdi.

- Buncha tez? Qachon qaytding?

- Kechasi. Mashinada.

- Bir oz dam olsang bo'lardi. Rahim Saidov yuragini ko'rsatdi.

- Zerikdim. Qalay ketyapti?

- Nazarimda, durust. Yana o'zing ko'r.

Rahim Saidov Hafizning o'rniga borib, kolbalariga ko'z tashladi. Ular ko'p edi. Hammasida turli rangdagi suyuqliklar... Hammasi

bir necha yillik tinimsiz mehnat mahsuli... Rahim Saidov shu dorilar, shu kolbalar orasida o'zini erkin, mustaqil odam his qilardi.

Shu yerda u o'zini biror ishga qodirligini tushunardi. Bu yerda hamma narsa unga ma'lum. Shu ma'lum narsalar ichida u qushdek

parvoz qilib, sehrlilarda kezdardi, nimalardir izlardi, topardi, "Otam haq, - xayolidan o'tdi uning. - Mening hayotim shu yerda

o'tishi kerak".

- Payqadingmi, stenofimitsin qo'shilganida chigit tozalandi, - uning xayolini bo'ldi Hafiz.

- Demak, qo'shamiz?

- Albatta. Shunda chigit uch-to'rt kun ilgari unib chiqadi.

- Bo'пти. Zavoddagilar nima deyishyapti?

- Ular poylab turishibdi bizni. Bir sex bizga ajratilgan.

- Bir hafta yetarmikan bizga?

- Harakat qilamiz. Agar sen o'zing ham bo'lsang, yetadi.

- Bo'laman.

- Bilasanmi, preparatni qanday nomladik?

- Qanday?

- I-109 S.

Rahim Saidov I-109 nimaligini bilardi. Institut tayyorlagan preparatlarning soni. Lekin "S" nima bo'ldi ekan?

- "S" nima?

- Sen, - dedi Hafiz g'urur bilan jilmayib. - Sulaymon akaning o'zi taklif qildi. - I-109 Saidov!

- Qalay?

Rahim Saidov qizarib ketdi. Preparatni topishda uning xizmatlari ko'p edi. Biroq kollektiv ham ancha ish qildi. Sulaymon akaning

o'zi ham. Shu jihatdan qaraganda uni juda yuqori baholab yuborishmadimikan?

- Yaxshi emas.

- Nega? - hayron bo'ldi Hafiz.

- Yaxshi bir nom topish kerak, hammaga aloqador.

- I-109 kollektivni bildiradi. Kamtarlikning ham chegarasi bo'ladi. Mening familiyamni qo'shishsa, jon-jon derdim...

Hafiz kuldi. Rahim Saidov o'zida yo'q xursand edi. Ha, bu dunyo qiziq. Besh minutdan keyin seni nima kutishini bilmaysan.

Kecha u qanday edi-yu, bugun qanday!.. Hayot yana unga go'zal, quvonch, baxtga to'liq bo'lib ko'rindi. Bu baxt, bu shodlik oldida

uning yuragini qimtiyotgan g'am o'tkinchi bir narsa, halizamon undan qutuladi, zavqli, ilhom va iqbolga to'la saxiy hayot uni o'z

quchog'iga oladi.

- Safar qalay bo'ldi? - so'rab qoldi. Hafiz uning xayolga cho'mganini o'zicha tushunib.

- Safarmi? - Rahim Saidov cho'chib tushdi. - Safar... Yaxshilik yo'q.

U shunday deb, cho'ntagidagi durni esladi? "Nega olib yuribman, boya uyga tashlab kelsam bo'lmasmidi?" Uning yana xayoli

bo'lingan edi. Kechga yaqin esa kayfiyati butunlay buzilib ketdi. Laboratoriyadan chiqib, o'z kabinetiga yo'l oldi.

Rahim Saidov kabinetiga kelib, o'zini kresloga tashladi. Shu tob Hafiz kirdi.

- Rahim, do'stim, - dedi unga mehribonlik bilan Hafiz, - O'lgudek charchabsan. Ko'zlaring ich-ichiga tushib ketibdi. Bor, yaxshisi

ket, ko'chaga chiq, shaharni aylan. Yaxshi kino ketyapti. "Spartak". Borib ko'r. Kechqurun uyingdan olib ketaman. Vaziraga yaxshi

ovqat qildiramiz. Bitta arman konKjyagim bor. Ashot o'zi Yerevandan olib kelgan. Bilasan-a uni, qo'shnim. Kelishdikmi?

Rahim Saidov boshini qimirlatdi.

- Yo uyingga olib borib qo'yaymi?

- O'zim, - dedi Rahim Saidov. - Sal turib. Hozir meni yolg'iz qo'y. Ozgina ishlayman.

Lekin u ishlay olmadi. Hafiz ketgach, birpas o'tirdi-da, ko'chaga chiqdi. Kun har doimgidek issiq emas edi. U bitta-bitta yurib,

tramvay bekatiga keldi. Lekin tramvayga chiqmadi. Ikkita tramvayni o'tkazib, uchinchisi kelayotganida piyoda yo'lga tushdi. Ish

payti bo'lganidanmi, ko'chada odam siyrak edi. Faqat mashinalar turnaqator o'tib turibdi. Ular ko'p, keti uzilmaydi. Qaysi bir

41 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

chorrahada u ancha turib qoldi. Keyin endi o'taman degan edi, yuk mashinasi chinqirib oldida to'xtadi, shofer derazadan boshini chiqarib, so'kindi:

- Ko'zmi, peshanami, kallavaram! Ko'k chiroq-ku?! Rahim Saidov orqasiga qaytdi. Svetoforda qizil chiroq yongach, chorrahani kesib o'tdi. Hozir uni mashina urib olishi hech gap emas edi. Bir marta shunday bo'lgan. Unda Munis bir o'limdan qolgan edi. To'yga borishganmidi o'shan-da? Yo'q, Faridalarnikiga borishgan edi. Bolalaridan birining tug'ilgan kuni edi. O'shandan oldin qattiq urishishdi. Munis bir chamadon kiyim-kechak qilib ayasinikiga, Qo'qonga jo'nab ketdi. Bir hafta o'tgach, Rahim Saidov yalinib-yolborib olib keldi. Yana apoq-chapoq bo'lib ketishdi. Lekin uning dilidagi g'ashlik anchagacha tarqamadi. Mehmonga borishganda ham ochilmadi, qaytanga Farida bilan uning eri o'rtasidagi munosabatini ko'rib, battar yuragi ezildi, ularga havasi keldi. Munisxon esa hech narsa bo'lmagandek qah-qah urib kular, dimog'i chog' edi. Eriga u parvo ham qilmadi. Faqat osh suzilayotganda o'rtog'iga yordam bermoqchi bo'lib oshxonaga bordi-yu, qaytib kelib eriga piching otdi.

- Qovog'ingizdan qor yog'ilyapti, nima balodan tuta qoldi?

Rahim Saidov tishlarini g'ijirlatib, xotiniga qaradi, lekin hech narsa demadi. Agar bir narsa desa o'sha paytda, Munis miyasini qoqib qo'liga berishini, uyga kelib esa yana chamadonni qo'ltiq qolishi mumkinligini bilar edi. Aytgandek, o'shanda janjal Muhabbatdan chiqdi.

Rahim Saidovning singlisi Munisxon bilan jussa jihatidan teng ekanligini aytib o'tgan edik. Bir kuni u kelinoyisidan qora yubkasini bir kechaga berib turishini so'radi. Munisxon berdigina emas, uydan kiydirib chiqardi. Muhabbat qayoqqadir bormoqchi bo'lgan bo'lsa kerakda. Yubkaga mos tushsin deb, qora amirkon yo'g'on poshnalik tuflisini ham berdi. Muhabbat xursand chiqib ketdi. Oradan bir necha kun o'tdi. Bu voqea unutildi. Rahim Saidov bir kuni ishdan kelsa, Munisxon shu qora yubkasini kiyib, toshoyna oldida xunob bo'lib o'tiribdi.

- Ha, nima bo'ldi? - so'radi Rahim Saidov.

Munisxon javob bermadi.

- Tinchlikmi? - yana so'radi Rahim Saidov. Shunda Munisxon tilga kirdi:

- Sizga tinchlik bo'lsa bo'ldi, mening adoyi tamom bo'lganim bilan ishingiz yo'q.

- Nima bo'ldi o'zi?

- Singlingiz yubkamni dog' qilibdi. Yer yutkur ming'aymas. Hali tufligimni ko'rganim yo'q. U nima bo'lgan ekan, Xudo biladi.

- Shunga shuncha tashvishmi? - ovutmoqchi bo'ldi Rahim Saidov, lekin ichida singlisini qarg'aganidan zil ketdi.

- Tashvish bo'lmay nima? - Zarda qildi Munisxon. - Bir yilda bitta ko'ylakka zo'rg'a yetishaman. Topgan pulingiz uyingizga ketadi. Kecha onangiz kelib, yana qoqib ketdilar. Tashvishmasmish-a!

- O'n so'm so'radi. Bozorga kelgan ekan, yetmay qolibdi. Aytdi-ku! Boshqa qancha pul beribmiz?

- Qo'ying, bilmaydi deb o'ylaysizmi? Doim mendan yashirib berib yuborasiz.

- Qancha olishimni bilasiz-ku, - Rahim Saidovning jahli chiqa boshladi. - To'ppa-to'g'ri qo'lingizga olib kelib beraman. Nega yolg'on gapirasiz?

- Ana shu-da. Yolg'onchiga ham chiqdim endi. Singlingiz to'g'ri gapiradi, oyingiz farishtaning o'zi. Bitta men yomonman. O'lay men sizga tegmay!..

Shunday paytda Munisxonni to'xtatib bo'lmasdi, ovutib ham bo'lmasdi. Ovutish uchun aytilgan gap haqoratdek tuyulardi. Avval ichida singlisi, oyisining yonini olgan Rahim Saidov janjal qizigach, ularni urishdi. Keyin esa janjal doirasi o'zlarining munosabatlariga borib taqaldi. Tutab turgan pilik kuyib kerosinga tushdi. Munisxon lov etib yondi-da, chamadonini ko'tarib, qora yubkasida Qo'qonga qarab jo'nadi.

Mehmonda o'tirib, Rahim Saidov Faridaning eriga qilayotgan muomalasini ko'rdi, ezildi, Qo'qonga borib, xotiniga yalinganini esladi. O'shanda Munisxon bir martayam "ayb mendan ham o'tdi", degani yo'q, dimog' bilan uyga qaytdi.

Nihoyat, mehmondorchilik tugadi. Uyga yetguncha ikkalovi churq etgani yo'q. Muyulishda Munisxon chidamadi shekilli, dedi:

- Meni rosa uyaltiringiz. Sal odamga o'xshab o'ltirsangiz, asakangiz ketarmidi!

- Sizni o'ylab o'tirdim-da... - dedi Rahim Saidov piching bilan.

- O', chiyon!

Munisxon shunday dedi-da, chopqillab ko'chani kesib o'ta boshladi. U ham, Rahim Saidov ham orqadan kelib qolgan mashinani ko'rishgani yo'q. Mashina shunday Munisxonning qo'liga tegib to'xtadi.

- Qarash kerak-da, bundoq, opa! - qichqirdi shofyor. Rahim Saidov yugurib kelib xotinini quchoqladi.

- Hech narsa qilmadimi?

- Yo'q, - dedi Munisxon, uning ko'krigiga boshini qo'yib. - Yuragim chiqib ketay dedi.

- Endi zarda qilmaysiz, - kuldi Rahim Saidov uning boshini silar ekan.

O'shanda uning xayoliga yomon fikr keldi: mashina xotinini yoki o'zini bosib ketganda nima bo'lardi? Ikkalovi bir-biridan qutulardi. Bunday ahmoqona tashvishlar bo'lmasdi. U shunday o'yladi-yu, o'z fikridan o'zi cho'chib ketdi. Albatta, mashina hozir uni emas, xotinini urib yuborishi aniq edi. Nahot u shuni istadi? Yo'q, yo'q, bo'lishi mumkin emas. U Munisni yaxshi ko'radi, usiz yashay olmaydi.

Rahim Saidov bir necha marta shu voqeani eslab, o'zidan o'zi uyalib yurdi. Hozir ham o'sha voqea esiga tushdi-yu, qizarib ketayotganini payqadi. O'shanda u xotining o'limi uni bunchalik azobga solishini bilmagan edi. Azobga u rozi edi, hatto umr bo'yi azob tortib, hayotini yolg'izlikda o'tkazishga ham tayyor edi. Shunday qarorga keldi ham, o'ziga va'da berdi ham. Xotining o'limini eshitgan kuni shunday o'yladi, ertasiga ham, uni ko'mishganda ham. Endi esa bu azobga yangi azob qo'shilgan, bu azobning avvalgisidan ham yomonligini u tushungan edi. Qani endi hozir Munis tirik bo'lsa! Ochiq-oydin gaplashardi, agar aldagani, unga xiyonat qilgani rost bo'lsa, uydan boshini olib chiqib ketardi. Keyin nima qilsa qilsin Munis: istasa, o'ntasi bilan yursin, unga baribir edi. Chunki unda bitta narsa uni qiynardi: yolg'izlik, xolos!..

Oldinda xiyobon ko'rindi. Rahim Saidov shu yerda bir pas bo'lgisi keldi. U bu xiyobonni sevardi. Sersoya, baland arg'uvon, chinorlar ostida studentlik yillari ko'p yurgan, ajoyib rejalar tuzgan, xayollarga erk berib, kechalari yulduzlarning ko'z ilg'amas yo'llarini axtargan... Shu yerda bir necha bor Munisxonni bag'riga bosgan, qorong'ida yalt-yalt yongan ko'zlaridan, issiq lablaridan o'pgan... Rahim Saidov ko'p uchrashuvlarni shu yerga tayin qilardi va betoqatlik bilan uni ko'tardi. Bir marta vaqtida kelmadi. Bir soat kutdi. Yo'q. Ikki soat kutdi - yo'q. Oxiri xavotir olib endi yotoqxonaga bormoqchi bo'lib turganida Munis ko'rindi. Uning yuragi to'lqinlanar, zo'rg'a nafas olardi.

- Biram chopdim, biram chopdim, - dedi u Rahim Saidovning bag'riga o'zini tashlab. - Endi ketaman deb turganimda, dadam kelib

qolsalar bo'ladimi?! Mehmonxonaga olib bordimu, bu yog'iga chopdim. Ko'p kutdingizmi?

Ha, u juda ajoyib edi u paytlari! Mehribon, muloyim, sodda, yana nima desa bo'ladi? Yana Rahim Saidovni yaxshi ko'rardi. Judayam yaxshi ko'rardi. Kichkina, nozik, biram sergap!.. O'sha kech qolgan kuni oppoq tufli kiygan edi, egnida katta-katta binafsha gulli yengsiz ko'ylak. Tekis taralgan qalin sochlari bitta o'rim qilib orqasiga tashlangan... Qiziq, nega odamlar turmush qurganlaridan so'ng bunchalik tez o'zgarib ketar ekanlar? Sabab nima? Rahim Saidov o'zida hech qanday o'zgarish sezmasdi. Albatta, u o'zgardi: ulg'aydi, oila tashvishi boshiga tushdi, dunyoqarashi kengaydi. Lekin Munisga nisbatan qildek o'zgarish sezgani yo'q o'zida. Munis esa birpasda boshqa odam bo'ldi-ko'ydi. Yo ilgari ham shunday edi-yu, Rahim Saidov payqamaganmidi?!

Uning gruppasida bir qiz bor edi. Adolat. Hozir u qaerda, nima qiladi, noma'lum. Yaxshi o'qimasdi. Bir amallab diplom olsam bo'ldi, deb o'zi aytardi. Ikkinchi kursdan so'ng u Rahim Saidov bilan ancha yaxshi bo'lib qoldi. Ularni hamma opa-uka deb chaqiradigan bo'lib qolishdi. U Rahim Saidovdan uch yosh katta edi. O'rtoqlashib ketishgach, Rahim Saidov uning erga tegib chiqqanini, hatto bitta bolasi borligini bildi. Rahmi kelib, qo'lidan kelganicha ham moddiy, ham ma'naviy yordam berib turdi. O'qishlar bitdi. Hamma har tarafga tarqab ketdi. To'yga yaqin Rahim Saidov Munisga tufli olib bermoqchi bo'lib, univermagga kirganida Adolatni ko'rib qoldi. Quyuq so'rashishdi. Qishlog'ida o'qituvchilik qilayotgan ekan. Rahim Saidov Munis bilan tanishtirdi. Uchalovi keyin birga poyafzal bo'limiga borishdi. Munisxon eng qimmat, eng chiroyli bir tuflini tanladi. O'lchab ko'rayotganida oyog'iga sig'madi. Shunda Rahim Saidov engashib yordamlasha boshladi. Tufli olindi. Univermagdan chiqishayotganda Adolat uni chekkaga tortdi:

- Tanlagan qizing yaxshi, lekin bunchalik egilaverma, boshingga chiqib oladi. Xafa bo'lma-yu, ko'zidan bilib turibman. Rahim Saidov kuldi.

- Belim uncha-bunchaga egilmaydi. Lekin hozir yomon ish qildimmi?

- Tushunmading, - dedi Adolat. - Mayli, ishqilib baxtli bo'l.

Nahotki ayollar bir-birini shunchalik yaxshi bilsa? Qani endi hozir Adolat yonida bo'lsa! Albatta, birona yaxshi maslahat berardi, ko'nglini ko'tarardi.

Rahim Saidov xiyobon chekkasidagi skameykaga o'tirdi. Shu yer tinch va ancha salqin edi. Sigaret tutatib, yonboshladi. Olisda, haykal o'rnatilgan maydonning orqasida kimningdir kallasi ko'ziga issiq ko'rindi. Unga tikilib turib, tanidi. Bu u bilan shampan vinosi ichgan ofitsiantka qizning boshi edi. "Qiziq, - O'yladi Rahim Saidov, - eri hamon ichayotganmikan?" U kafega borib, qiz bilan gaplashmoqchi, muzdek shampandan ichmoqchi bo'ldi. O'rnidan qo'zg'aldi ham, keyin aynidi. Nimani gaplashadi? Erinimi? Axir ichayotgan bo'lsa, nima qiladi yarasiga tuz sepib? Qiz boshini orqaga tashlab kuldi, yana ko'rinmay ketdi. Ammo Rahim Saidov anchagacha o'sha tomonga termilib o'tirdi. Ofitsiantka boshqa ko'rinmadi. Maydonda bir ayol paydo bo'ldi. Baland bo'ylik, sochi kalta qirqilgan. Semiz chorsi sumkasi yelkasiga osilgan. Kalta, badaniga yopishib turgan yashil ko'ylagi, uzun oppoq oyoqlarini yanada oqartirib turardi. Rahim Saidov beixtiyor unga qarab qoldi.

Ayol maydonni kesib o'tib, keng yo'lkadan u tomonga kela boshladi. Rahim Saidovning yuragi dukillab urib ketdi. Ayol unga kimnidir eslatdi. Kim ekan? Yaqinlashib qolgan ayol unga tikilib turganini ko'rib, to'xtadi, u yoq-bu yog'iga qaradi, keyin yana unga o'girildi va qichqirib yubordi:

- Rahim?!

- Sveta!

- Buni qara-ya, Rahim! Azizim!.. Ayol yugurib kelib, unga qo'l uzatdi.

- Sveta! Nahotki sen bo'lsang?

- Men, Rahim, men! Salom, Rahim. Yaxshimisan?

- O'tir.

Rahim Saidov uni o'tqazdi, o'zi ham yoniga o'tirdi.

- Seni ko'raman, deb sira o'ylamagan edim.

- Qachon kelding? Toshkentda nima qilyapsan?

- Uch kun bo'ldi kelganimga. Bir yoshligim o'tgan shaharni ko'ray dedim. Toshkent o'zgarib ketibdi, yaxshi bo'lib ketibdi!..

- Ha, Toshkentni hozir tanish qiyin. Xo'sh, ahvollaring yaxshimi, dadang qalay. Akang?

Rahim Saidov suq bilan unga tikildi.

- Dadam pensiyada. Biz hozir Moskvada turamiz. Volodyaning ham ishlari yaxshi. Lekin juda olisda.

- Qaerda?

- U geofizik. Antarktikada.

- O'h-ho! Juda uzoqqa ketibdi-ku?

- Yaqinda qaytadi. Muddati tugaydi. Rahim, Rahim... Biz seni ko'p eslaymiz. O'zing qalaysan?

- Rahmat, durust... - Rahim Saidov hech narsani aytgisi kelmadi. - Akang uylangandir?

- Ha, ikkita bolasi bor, bir qiz, bir o'g'il. Juda shirin bolalar!

- O'zing-chi? O'zing...

- Men ham turmush qurganman... Erim... Sasha, uchuvchi. Hozir Toshkentda. Men u bilan birga keldim.

- Juda yaxshi. Tabriklayman.

- Rahmat, - dedi Sveta.

- Biz o'z ko'chamizda to'xtadik. Eshitdim, Rahim. Boshingga kulfat tushibdi.

- Ha, shunday bo'ldi... Hech kutmagan edim...

- Falokat o'zi shunday to'satdan keladi. Yaxshi ko'rarmiding?

- Juda ham.

Rahim Saidov rostini aytdi. Sevardi uni. Usiz hayotni tasavvur qilolmasdi. U shunday dedi-yu, yengil tortib ketdi. Fikrlari oydinlashgandek bo'ldi. Xotini uni qanday ahvolga solib ketganidan qat'i nazar, uning munosabati o'zgaraydi. Sevgan edi, sevadi. Uning haqida eng yaxshi xotiralar bilan qoladi. U shu paytdagina miyasiga kelgan bu fikrni quvvatlash, yuragiga mustahkamroq jo qilish uchun qo'shib aytdi:

- U judayam yaxshi edi...

- Eshitdim. Qo'shnilaring aytishdi. Kechqurunlari eshik tagida seni poylab o'tirar ekan. Uzokdan ko'rishi bilan qarshingga yugurar ekan.

Shundaymidi? Rahim Saidov eslab ketdi. Ha, eski hovlida turishardi unda. Chindan ham tramvaydan tushishi bilan u eshik oldida turgan xotinini ko'rardi. Munis qo'lini silkitib, u tomonga yugurardi, keyin qo'ltig'idan olib uyga boshlardi. Nega shularni eslamaydi u? Yaxshi kunlar ham ko'p bo'lgan-ku, ular hayotida!..

- Xo'sh, bu yerda nima qilib o'tiribsan? - uning hayolini bo'ldi Sveta.

- Shunday, o'zim... - yuragi ilib, jilmaydi Rahim Saidov.

- Tushunaman, ilmiy xodim ijodiy izlanishda...

- Ijodiy bo'lmasa ham, to'g'ri topding, izlanishda. Sveta! Ering bilan... Oti nima edi?

- Sasha.

- Sasha bilan biznikiga kel. Hozir adresimni beraman.

- Mening ham adresimni yozib ol. - dedi Sveta va xo'rsinib qo'ydi. - Lekin senga adres berish foydasiz.

- Nega?

- Baribir javob yozmaysan. Suratimni olganmiding o'shanda?

- Ha. Juda chiroyli tushgan ekansan.

- Hozir-chi? Hozir xunukmanmi?

- Hozir yanada ochilibsan.

- Komplimenting uchun rahmat. Nega xat yozmading menga? Ko'p kutdim.

Rahim Saidov uyalib boshini egdi.

- Yosh edik. Sen olisga ketib qolgan eding. Lekin suratlaringni uzoq saqladim.

- Keyin xotining yirtib tashladi...

Rahim Saidov javob bermadi, gapni burib, shoshilinch so'radi:

- Xo'sh, kelasanmi?

Xayolga cho'mgan Sveta boshini ko'tardi.

- Boshqa gal. Sasha endi tez-tez kelib turadi. Xo'p, men boray!

Sveta o'rmidan turdi.

Rahim Saidov magazindan chiqdi. "Borish kerak, - O'yladi u. - Uning xotirasi uchunoq borish kerak. Shu bilan hamma narsaga chek qo'yiladi. Dilida yana bitta Munis, u yaxshi ko'rgan, u yaxshi bilgan Munis qoladi. Ikkinchisidan qutuladi, bugunning o'zidayoq shartta yuragidan uzib tashlaydi. Avval uyga kirish kerak. Balki yana biron narsa qolgandir? Hammasini oladi.

Hammasidan qutuladi. Birdaniga. Shu bugunoq. Keyin tinchiydi. Anatoliy... Anatoliy Nazarovich emas, boshqa odam bo'lsachi? Buning ahamiyati yo'q. U yoki unga o'xshaganlarning biri. U shu odamni taxmin qiladi. Shunikiga boradi..."

Muhabbat uyda yo'q edi. Rahim Saidov shkafni ochdi. Hamma narsa tartibli taxlangan. Singlisi qilgan bo'lsa kerak. Buzishga to'g'ri keladi. Surishtirsa, ko'ylagimni qidirgan edim, deydi. U shkafdagi hamma narsani karavotga olib qo'ydi. Tortmalarni bitta-bitta ochib kovladi. Yo'q, hech narsa chiqmadi. Tryumoning tortmalarini ochdi. U yerda ham hech nima yo'q edi. Oshxonaga o'tdi.

Bu yerda nima bo'lishi mumkin? Har ehtimolga qarshi bufetni ochdi. Og'zi ochiq yarim shisha "Pliski" hamon joyida turibdi. U beixtiyor ryumkani to'latib qo'ydi. Keyin, qarab qoldi, tortmadi konKjyak. Shunday bo'lsa ham, o'zini majbur qilib bir ko'tarishda dori ichgandek, ichib yubordi.

Bufetdan ham hech narsa topilmadi. Rahim Saidov yotoqxonaga qaytib kirdi. Bir karavot bo'lib yotgan kiyim-kechaklarni bitta-bitta qo'lidan kelgancha shkafga taxlay boshladi. Kiyimlar ko'p edi... Hammasidan hamon faqat ugina seza oladigan Munisxonning nafasi ufurib turardi. Bu narsalarni endi nima qilish kerak? Biron-yarimtaga berish kerakmidi? Yo'q, turaversin. Turgani ma'qul. Shkafni yopayotib cho'chib ketdi. Toshoyina oldida Munisxon turgandek tuyuldi. Tisarilib, qo'rqa-pisa o'sha tomonga qaradi. Yo'q, hech kim yo'q edi. Yuragi bir orziqib tushdi. Yo'q, Munisxon endi mutlaqo yo'q. Uni endi hech ko'rmaydi. Issiq bo'salar, oxiri xuddi yangi tanishgan, yangi turmush qurishgan kunlaridagidek muhabbat izhor qilish bilan tugaydigan janjallar endi yo'q. U endi huvillagan uyga yolg'iz kirib, yolg'iz tunaydi. Munisxon endi uning yuragida, xayolida...

Rahim Saidov xo'rsindi va og'ir qadam tashlab uydan chiqdi.

Chorsuga g'ira-shirada yetib bordi. U shoshilmasdan, piyo-da yo'lga chiqqan edi uydan. Shoirlar xiyobonida anchagina o'tirdi ham.

Qaysi bir shoirning qo'shiq bo'lib ketgan she'rini esladi:

Gulni gul dermu kishi gulning tikoni bo'lmasa,

Yorni yor dermu kishi yorning jafosi bo'lmasa?..

Davomi hech esiga kelmadi. Davomi qiziq bo'lmasa ham kerak. Hafizmi, kimdir aytgan edi, shoirlar bitta so'z topib olishsa, atrofida doston bitib yuborishadi deb. To'g'ri bo'lsa kerak, bo'lmasa esiga tushardi... Nahotki jafo qilmagan odam, yor bo'lolmasa? Oldinda uchta ko'cha ko'rindi. O'rtadagisi Samarqand darvoza. Rahim Saidov shu tor ko'chaga kirdi. U negadir tinch edi. Nima tinchitganini bilmasa ham, ertalabgidek xayollari parishon, fikrlari chalkash emas edi.

Bir oz yurishi bilan o'ng tomondagi ko'k darvozaning zihi ko'rindi. "Shu bo'lsa kerak, - xayolidan o'tkazdi u. - Ha, nomeri 16/44.

Demak, shu". U yaqin borib, ustunga qoqilgan qo'ng'iroq tugmasini bosdi. Hech kim javob bermadi. Yana bosdi. "Hozir" degan erkak ovozi eshitildi ichkaridan.

Ko'p o'tmay darvoza tavaqasidagi eshik ochildi. Rahim Saidovning qarshisida beso'naqay burunli, serjun bir odam paydo bo'ldi.

Bu - tanigan bo'lsangiz kerak, Olloyorov edi. "To'tiqushga o'xshaydi, - dedi o'zicha Rahim Saidov. - Munisxon to'g'ri aytgan ekan".

- Keling, - dedi Olloyorov uni tanimay.

- Men Saidovman. Munis... Munisxonning eri. Olloyorov murdadek oqarib ketdi.

- Endi tanidingiz shekilli?

- Ha, ha... tanidim. Ichkariga... Ichkariga kiring! - dedi tutilib Olloyorov.

Rahim Saidov joyidan qimirlamadi. "Uraymi yo tupuraymi?" - O'yladi u. Lekin bunday qilmadi, cho'ntagidan durni chiqarib uzatdi.

- Olib qo'ying, yana kerak bo'lib qolar...

Olloyorov bir narsa deb g'o'ldiradi, u eshitmadi. Orqasiga qaytdi.

Ana ish bitdi! Endi uni hech narsa qiynamaydi. Hamma iflos narsalar, iflos xayollar shu yerda qoldi. Orqaga o'girilish yo'q endi...

U Chorsuga chiqdi. Qayoqqa borsin bu yerdan? Albatta, uyga. Muhabbat yana xavotir olib o'tirmasin. Lekin piyoda boradi. Uydan Hafizga telefon qiladi. Ertalab vaqtli ishga borishini aytadi. U endi ishlashi mumkin. Tinch, xotirjam.

U maydonni kesib o'tayotib, to'xtadi. Nima qiladi, piyoda yurib? Tezroq uyga borgani yaxshi emasmi? Ana, tramvay ham kelyapti!..

U bekat tomon yura boshladi. Shu top nimadir qulog'i ostida jaranglab ketdi, nimadir yelkasiga urildi. Keyin u dumalab ketayotganini payqadi va hushini yo'qotdi.

9

G'ira-shirada shatir-shutur ovoz deraza tagida yotgan kapitan Alievni uyg'otib yubordi. Aliev erinibgina boshini ko'tarib, hovliga qaradi. Uy oldidagi baland so'rda tok barglari "gurr" etib uchgan kapitar qanotlaridek titrar edi. Ko'p o'tmay tunuka tomni ham patir-putur tovushlar bosib ketdi.

Eriga teskari o'girilib yotgan Sanobarxon g'ingshidi.

- Nima ekan? - so'radi Aliev hech narsaga tushunmay.

- Men melisamasman, - to'ng'illadi xotini. Otpuska bekor bo'lganidan beri Aliev undan bir og'iz shirin so'z eshitmay qo'ygan edi.

Jahli chiqdi-yu, indamadi. Indasa bormi, tuni bilan mijja qoqmay chiqishi aniq edi. Hozir ham o'zini bosdi.

Tarnovdan jildirab suv oqa boshladi. Aliev junjikib ketdi.

- Yomg'ir, - dedi ovozi chiqarib u. - Yaxshiyam hovlida yotmadik.

- Nima? - so'radi Sanobarxon zarda bilan.

- Yomg'ir yog'yapti... - dedi Aliev.

- Voy! - Sanobarxon sapchib o'rnidan turdi. - Kirlarim yoyig'liq edi!

- Tinadi hozir. Yoz yomg'iri-ku bu! - uni yupatgan bo'ldi Aliev.

- Balo bo'lmaydimi menga desa, baribir yomg'irda, - Sanobarxon apil-tapil xalatini kiya boshladi. - Idorayizmi ishi bo'lsa bunaqa yalpayib o'tirmasdingiz!

Aliev ichida kuldi va xotini ketidan hovliga tushdi. Iliq tomchilar xuddi shiradek yelkalariga, burniga yopishdi. Sanobarxonning tashvish tortganicha bor. Bemavrid yomg'ir shunday shiradek tom, hovli to'la dovdaraxtning changi aralash kirlarga dog' bo'lib yopishishi turgan gap edi.

Aliev shosha-pisha bir quchoq kir bilan ayvonga ko'tarilganda telefon jiringlab qoldi. Kapitanning yuragi bir orziqib tushdi.

- Eshitaman? - tashvishlanib so'radi u.

- Kechirasiz, o'rtoq kapitan, - trubkadan leytenant Sultonovning ovozi keldi. - Saidovni kechqurun mashina urib ketibdi.

- Tirikmi? - shoshib so'radi Aliev.

- Tirik. Boshi yorilibdi, keyin... jindek qovurg'asi sinibdi.

- Jindek deganingiz nimasi?.. - Kapitanning jahli chiqdi.

- Ikkita qovurg'asi sinibdi. Hozir hushiga kelgan. Uxlab yotibdi. Xavotir olmang, o'rtoq kapitan.

- Hozir boraman. Mashina yuboring.

Aliev trubkani qo'ydi. Xotini eshitib turgan bo'lsa kerak, hovlidan ovozi keldi:

- Nechuk bugun telefon qilishmadi, deb turuvdim o'zi.

- Qarashvoraymi?

- Bo'ldi. Yog'may o'lsin, bemahalda! Aliev kiyina boshladi. Xotini kirdi.

- Anavi o'lgan juvonning erini mashina urib ketibdi.

- Voy sho'ring qurg'ur. Qattiq uribdimi?

- Bilmasam. Har holda, tirikmish.

Idoraga kelib, u darhol leytenant Sultonovni chaqirdi.

- Shofer tutildimi?

- U qochgan emas, o'rtoq kapitan. O'zi kasalxonaga olib borgan. GAI inspektorining aytishicha, Saidovning o'zi aybdor. Shofer bir necha marta signal bergan. Eshitmaganmi, nima balo... Shoferning aytishicha, o'zini tashlaganmish. Qizig'i shuki Sobirjon aka, fojia Chorsuda yuz bergan.

- Chorsuda? - hayron bo'ldi kapitan.

- Ha, Saidov Olloyorovning uyida bo'lgan.

- Tentak ekan-ku Saidov, - kapitan tutaqib ketdi. - Ishning rasvosini chiqargan bo'lmasin tag'in. Olloyorov uydami?

- Uyida bo'lishi kerak, - dedi Sultonov. - Qoraboev kuzatib turibdi.

- Boring bo'lmasa.

Sultonov chiqib ketdi. Kapitan stol tugmasiga qo'l uzatdi, ammo bosmadi. Hali erta edi. Idorada deyarli hech kim yo'q. U

"kabinetini qulflab, pastga tushdi. "Nega Olloyorovnikiga bordi ekan? - kapitan yana Rahim Saidovni o'ylay boshladi. - Borib nima qiladi? Nega mashinaga urildi? G'amdanmikim bu, yoki...".

U Saidovni qotillikka aloqador bo'lishini istamasdi. Yaxshi odam. Uni birinchi ko'rgandayoq shu fikr xayolidan o'tgan edi. Ish tugaguncha shu fikrda qolgisi kelardi. Odamlarning yaxshi-yomonligi peshanasiga yozib qo'yilmaydi.

Lekin o'n besh yillik hayot tajribasi Alievda qandaydir ichki bir kompas paydo qilgan va uning strelkasi deyarli bexato ishlardi.

Olloyorovni ham ko'rmasidan, isminigina eshitishi bilanoq Alievda unga nisbatan shubha tug'ilgan edi. Rahim Saidovga esa u faqat achindi, xolos. Albatta, bu taxminlar hali qanchadan-qancha isbot talab qiladi, sezgilarga ko'r-ko'rona ishonib bo'lmaydi.

Shunday bo'lsa ham u Rahim Saidovni aybdor sanashga ko'ngli bormasdi. Aybsiz deyishga esa ish, qolaversa, erkaklik g'ururi yo'li bermasdi. U juda ko'p marta o'zini Saidovning o'rniga qo'yib, usta shaxmatchidek bir qancha "yurish"lar qilib ko'rdi. Deyarli hamma "yurish"larda Munixonning qilmishlari yashirin qolmadi. O'lim bilan tugagan fojiaga kelishga Saidovning beparvoligi ham sabab bo'lgan edi. Albatta, agar u mutlaqo pok, qotillikka aralashmagan bo'lsa! Agar aralashgan bo'lsa fojining sababchisi Olloyorov emas, boshqa odam va boshqa narsa bo'lib chiqadi. Nima u? Kim?

Kapitan mashinaga o'tirdi.

- Qayoqqa? - so'radi shofer mudroq bosgan ko'zlarini ishqalab.

- Samarqand darvozaga.

Ular Olloyorovning uyiga yetib kelishganda, ko'cha eshik oldida ancha-muncha odamlar to'planib turishardi. "Hech narsa izsiz bo'lmaydi", - xayolidan o'tkazdi Aliev.

Serjant Qoraboev uni ko'rib, chestKj berdi.

- Odamlarni nega to'pladingiz? - so'radi kapitan. Serjant "nima qilay" degandek yelkasini qisdi.

- O'rtoq kapitan, tinchlikmi?.. - so'radi kimdir.

- Melisaga ish kerak, - po'ng'illadi kimdir.

Aliev to'xtadi. Ko'nglida yaxshilab javob qilgisi keldi-yu, o'zini bosdi.

- Tarqalishsin, - dedi sekingina serjantga va ichkariga kirdi.

Hovlining o'rtasida va rovon oldida turgan ikki militsioner u bilan salomlashdi. Aliev rovonga ko'tarildi va beixtiyor chap tomonga o'girildi. Rovonning etagida xuddi birinchi gal kelganida ko'rganidek yirik ko'zlarini unga qadab Olloyorovning onasi o'tirardi.

Qo'lida tasbeh, boshiga uzun doka ro'mol omonatgina tashlangan.

Ajin bosgan lablari nimalarnidir shivirlardi. Aliev seskanib ko'zini oldi. Ertaklardagi dahshatli yalmog'izni eslatadigan vajohati bilan kampir bu gal ham uni qo'rqitib yuborgan edi.

- O'rtoq kapitan! Bu qanday bemazagarchilik?! - ichkaridan Olloyorov chiqdi. - Kecha qandaydir bir odam menga do'q qilib, bir hovuch dur tashlab ketdi. Bugun bo'lsa tintuv! Hech narsaga tushunmay qoldim!

- Qo'rqupsizmi? - tasmollab so'radi kapitan.

- Qo'rqayotganim yo'q, lekin yaxshi emas. Birovning uyiga bostirib kirish!.. Keyin...

- To'g'ri, yaxshi emas, - uni bo'ldi kapitan. - Boshqa chora yo'q. Chidashga to'g'ri keladi.

- Xudo chidashni To'pa xo'jaga chiqargan! Kapitan yalt etib kampirga qaradi. Gapirgan u edi. Kapitan yana bir narsa dermikin, deb kutdi. Ammo kampir hech narsa demadi. Qo'llarini yerga tirab o'rnidan turdi, ustunga tirog'liq hassasini oldi, hovliga tushdi.

- Bechoraga qiyin bo'ldi, - dedi xo'rsinib Olloyorov.

- Yordam bering! - buyurdi kapitan militsionerlardan biriga.

Ammo kampir yordamni rad etdi. Hassasini do'qillatib trotuardan ko'cha eshigigacha yetdi-da, hovliga tushdi. Olcha tagiga borib cho'nqaydi.

- Ena! - qichqirib yubordi shu tob Olloyorov va rovondan o'zini hovliga otdi.

Ammo Aliev epcillik qilib, bilagidan ushlab qoldi.

- To'xtang! - dedi u sokinlik bilan va bilagini qattiqroq qisdi.

Olloyorov bo'shashib, rovon zihiga o'tirdi.

Kampir qo'llari bilan olcha tagini kovlab, bir narsa oldi-da, o'rnidan turdi. Qanday borgan bo'lsa, xuddi shunday iziga qaytib rovonga yaqinlashdi. Qo'lidagi narsa loy yopishgan o'zbekcha pichoq edi.

- Nima qilib qo'yding, ena! - dedi Olloyorov bo'g'iq ovoz bilan.

- Xudo buyurganini!..

Kampir pichoqni rovonga tashladi va hassasini do'qillatganicha o'g'li yonidan o'tdi-da, joyiga borib chordana qurdi. Hayrat ichida qolgan Aliev uning sokin ko'zlarida yosh yaltirab ketganini ko'rdi.

- Nega o'ldirdingiz? - O'zini tutolmay so'radi Aliev. Olloyorov boshini ko'tardi. Uning rangida rang qolmagan edi.

- Erining ixtirosini olib kelishdan bosh tortdi. Keyin... Sizlarga xabar bermoqchi bo'ldi.

Alievning tasmoli to'g'ri chiqdi. Munisxon erining ixtirosi uchun shahid ketgan. Har holda vijdoni bor ekan. Yengiltaklik qilibdi-yu, sotqinlik qilmabdi.

- Olib keting! - dedi Aliev Olloyorovga ishora qilib.

- O'rtoq kapitan! Hammasini aytib beraman! Inobatga olishingizni so'rayman! Hammasini aytib beraman.

Olloyorov ikki tomonidan qo'ltiqilgan militsionerlar qo'lidan chiqishga harakat qildi.

- Eshityapsizmi? O'rtoq kapitan!..

- Boshqa ilojingiz ham yo'q. Albatta, aytib berasiz. Ichkari xonadan leytenant Sultonov bilan o'rta yoshli bir kishi chiqdi.

- Mahallakom Qodirov, - tanishtirdi leytenant.

- Bo'ldilaringmi? - so'radi kapitan.

- Qayokda?! - ensasi qotib javob qildi leytenant. - Faqat ro'yxatga ikki kun kerak.

- Amir Buxoroning xazinasini ekan bu uy, - qo'shib qo'ydi Qodirov. - Mahallani ham harom qildi yaramas.

- Endi qutuldingiz, - yupatdi Aliev va leytenantga o'girildi. - Bo'пти bo'lmasa, men ketdim.

Kapitan ko'cha eshikka yetganida to'xtadi va orqasiga qayt-di. Rovonga ko'tarilib, kampirning yoniga bordi.

- Rahmat, ona. Bizga katta yordam qildingiz. Harakatsiz ko'zlarini hovliga qadagan kampir javob bermadi, lablarigina nimalarnidir shivirladi.

Aliev Chorsudan to'g'ri ToshMIga bordi. Hamshira qiz uni Rahim Saidov yotgan palataga boshlar ekan, sirli ohangda so'radi:

- Bu odam kim o'zi, o'rtoq kapitan? Ertalabdan beri kasalxonaga odam to'lib ketdi.

- Katta odam, - javob qildi Aliev.

Hamshira go'yo tushungandek "ha-a!" deb boshini qimirlatib qo'ydi.

Rahim Saidov deraza yonida yotardi. Boshi bog'langan. Qoramtir yuzlarida ko'k dori surilgan chiziqlar. Kapitanni ko'rib, u o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'ldi.

- Yotavering, yotavering! - Aliev yugurib borib qo'lidan ushladi. - Qalay ahvollar, Sherlok Xolms?

Rahim Saidov ko'zi bilan jilmaydi.

- Olib borib berdim, hammasini olib borib berdim!..

- Bilaman, - dedi Aliev, - yaxshi qilibsiz.

- O'sha ekanmi?

- Ha.

- Nega... Nega o'ldiribdi?

- Sizning ishingiz deb.

- Mening ishim? - hayron bo'ldi Rahim Saidov.

- Ha. I-109 S deb. Ular preparatingizni yo o'g'irlamoqchi, yo yo'q qilmoqchi bo'lishgan. Xotiningiz... Munisxon bosh tortgan.

- Demak, Munisda ayb yo'q?

Aliev bir oz o'ylanib turdi-da, keyin boshini egdi.

- Mutlaqo.

Rahim Saidov ko'zini yumdi.

This is not registered version of TotalDocConverter

- Ushbu politsiya so'roviga bitta shaxs qatnashgan.
 - Ijrochisi qo'limizda. Ish endi boshlanadi.
 - O'rtoq kapitan, shoferga tegishmasin. Qoidani men o'zim buzdim. Xayol bilan...
 - Xo'p bo'ladi, - Aliev o'rnidan turdi. - Boshqa gapingiz yo'qmi?
- Rahim Saidov boshini qimirlatdi.
- Rahmat.
- Aliev uni tushundi-da, ehtiyotlik bilan qo'lini qisib ko'ydi.

1973